Tadqiqotchi N.A.Bosxamdjiyeva fikricha, jamoat xavfsizligi quyidagi institutlarni o‘z ichiga oladi: terrorizmga qarshi kurash instituti; ekstremizmga qarshi kurash instituti; jinoiy va boshqa noqonuniy tajovuzlarga qarshi kurashish instituti; korrupsiyaga qarshi kurash instituti; aholini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish instituti; noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish instituti; jamoat xavfsizligining ayrim turlarini (yong‘in, kimyoviy, biologik, yadroviy, radiatsiyaviy, gidrometeorologik, sanoat va transport xavfsizligini) ta’minlash institutlari; jamoat xavfsizligini ta’minlashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish instituti; ekologik xavfsizlik instituti; axborot xavfsizligi instituti; oziq-ovqat xavfsizligi instituti[9].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash, albatta, muayyan me’yorlar tizimi bilan tartibga solinadi. Bu belgi aholini noqonuniy tajovuzlardan, turli tahdidlardan himoya qilish qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, qonun normalari favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi muhim miqdordagi jamoat munosabatlarini tartibga soladi, xususan: inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xatti-harakatlarining chegaralari, jismoniy va yuridik shaxslarning jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan muayyan harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha cheklovchi vaqtinchalik majburiyatlarini belgilaydi, noqonuniy xatti-harakatlar turlarini belgilaydi, ya’ni faqat qonun normalari jamoat xavfsizligiga, xam oddiy hayot sharoitida, xam favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikka tajovuz qiluvchi xatti-harakatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilaydi.

Va nihoyat, shaxsning, jamiyatning, davlatning hayotiy manfaatlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi, ular ijtimoiy imtiyozlar, konstitutsiyaviy tuzum, jamoat tartibi, shaxsiy daxlsizlik, mulk va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Jamoat tartibi deganda mohiyatan ma’lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy normalar bilan davlat tomonidan tartibga solinadigan, tashkil etilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan butun tizim, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi tushunilgan[10]. Keng ma’noda jamoat tartibi ma’lum bir tarzda tartiblangan ijtimoiy munosabatlar tizimini (majmuini) o‘z ichiga oladi: iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy va hokazolarni, shu munosabat bilan uni konstitutsiyaviy tuzum doirasidagi jamiyatdagi

shaxslarning xulq-atvori qoidalari majmui sifatida belgilash mumkin[11]. V.V.Lazarev, L.L.Popov va L.M.Rozinlar “jamoat tartibi - ijtimoiy munosabatlar tizimining ma’lum bir sifati bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlarning shunday tartibliligidan iborat bo‘lgan, jamiyat hayotining uyg‘unligi va ritmiga, jamoat munosabatlari ishtirokchilarining o‘z huquq va majburiyatlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishiga va ularning manfaatlari, jamoat hamda shaxsiy tinchligining himoya qilinishiga olib keladi” deb ta’kidlashadi[12]

B.P.Kondrashovning aytishicha, jamoat tartibini keng ma’noda ijtimoiy normalarga (huquq normalari, axloq, urf-odatlar, an’analar va boshqalar) rioya etish natijasida vujudga kelgan, daxlsizligi davlatning butun siyosiy tizimi tomonidan kafolatlangan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi [13]. Shunday qilib, “jamoat tartibi” so‘zining keng ma’nosida jamiyatda mavjud bo‘lgan, ijtimoiy normalarga, shu jumladan huquq normalari va jamiyat qoidalariga muvofiq rivojlangan munosabatlarning butun tizimi tushuniladi

Bu soha jamiyat hayotida osoyishtalik muhitini, mehnat va dam olish uchun normal sharoitlarni, davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar va ularning birlashmalari, muassasalar, jamoat birlashmalari faoliyatini ta’minlash maqsadida, odamlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida jamoat joylarida rivojlanadigan ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi bilan cheklanadi.

Shularni hisobga olib, nazarimizda jamoat tartibi tushunchasini quyidagi ta’rif kengroq qamrab oladi: Jamoat tartibi – bu jamoat joylarida odamlar o‘rtasida vujudga keladigan va rivojlanadigan, qonuniy amalga oshirilishi shaxsiy va jamoat xavfsizligiga rioya etilishini, odamlarning normal muloqotini, sha’ni, qadr-qimmati, hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilinishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, birinchi navbatda, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa fuqarolik tashkilotlari faoliyati bilan ta’minlangan davlat va jamiyatning muvofiqlashtirilgan ijtimoiy-huquqiy jamoat munosabatlari tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasi 3-qismiga binoan, favqulodda holatda, huquq va erkinliklarni cheklash, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish bilan birga, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining 15.12.2021 yildagi O‘RQ-737-sonli «Favqulodda holat to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonuni [14] favqulodda holat joriy etish maqsadini (4-modda) va favqulodda rejimni joriy etish hollari va tartibini (5-modda) belgilaydi. Ushbu rejimni joriy etishning maqsadlari favqulodda holatni joriy etish maqsadlari uni joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etishdan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini hamda O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi va hududiy yaxlitligi himoya qilinishini ta’minlashdan iborat (4-modda).

Shunday qilib, insonning ayrim huquq va erkinliklarini cheklash orqali Davlat inson uchun eng muhimroq va qadrliroq bo‘lgan boshqa huquq va erkinliklarning saqlanishini ta’minlaydi.

Аннотация. В статье приведены отдельные аспекты ограничения некоторых прав и свобод граждан для обеспечения общественного порядка и общественной безопасности по Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, законные основания применение данных ограничений и требований Конституционного Закона Республики Узбекистан “О черезвычайных положениях” и Указа Президента Республики Узбекистан УП №27 “О концепции общественной безопасности”.

Ключевые слова: Конституция РУз в новой редакции, ограничение прав и свобод граждан, законность и обоснованность ограничений, концепция общественной безопасности, общественный порядок и общественная безопасность, смешанный подход, вопросы ограничения прав и свобод.

ISSN 3030-3230

Annotation. The current scientific article presents some aspects of the restriction of certain rights and freedoms of citizens in the process of ensuring public order and public safety in the Constitution of the Republic of Uzbekistan of the new edition, the legal basis for the application of these restrictions, the requirements of the Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan "On extraordinary provisions" and the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan UP No. 27 "On the concept of public security", some points of view of learned lawyers on this issue.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan. new edition, restriction of the rights and freedoms of citizens, legality and validity of restrictions, the concept of public safety, public order and public safety, a mixed approach to the issues of restrictions of rights and freedoms.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Конституционное право зарубежных стран: Учеб. / Под общ. ред. М.В. Баглая. — М., 2008. С. 1.Источник: https://www.sovremennoepravo.ru/

2.Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси,Т.2023.Б.6.

3.Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси,Т.2023.Б.6.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон Фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон; 16.01.2024 й., 06/24/10/0031-сон)

5.Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с.

6. Административное право/под ред. Л.Л.Попова. М.: Юрист, 2002. 699 с.

7. Хамхоев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности // Административное право и процесс. 2011. № 7. С. 40-42.

8.Туманов Г.А., Фризко В. И. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское государство и право. 1989. № 8. С. 21-23.

9. Босхамджиева Н.А. Административно-правовые основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: дис. ... докт. юрид. наук. М., 2013. 369 с.

10. Яценко С.С. Уголовно-правовая охрана общественного порядка. Киев,1986. С. 10.

11. Административное право зарубежных стран: Учебник / Под ред. А.Н.Козырина и М.А.Штатиной. М.: Спарк, 2003. С. 307.

12. Лазарев В.В., Попов Л.Л., Розин Л.М. Правовые основы обеспечения общественного порядка. М., 1967.

13. Коржанский Н.И. Объект и предмет уголовно-правовой охраны. М., 1980. С.15.

14. Ўзбекистон Республикасининг "Фавқулодда ҳолат тўғрисида"ги қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.12.2021 й., 03/21/737/1163-сон

OFITSERLARNING HARBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGI MUAMMOLARI

Parmanov Furqat Djumabayevich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
harbiy tayyorgarlik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. **Maqolada bugungi kunda harbiy ta’lim muassasalari va harbiy qismlardagi pedagogik faoliyat va pedagogik jarayonning xususiyatlari, ofitserlarning psixologik-pedagogik bilimlariga va kasbiy pedagogik saviyasiga qo‘yiladigan talablar yoritilgan.**

Kalit so‘zlar: Harbiy-pedagogik faoliyat, harbiy-pedagogik jarayon, ofitser, kursant, psixologik-pedagogik fanlar.

Bugun mamlakatimizda barcha sohalar qatori, oliy ta’limni rivojlantirishga, tayyorlanayotgan kadrlarning sifati darajasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli yangi kitobida yozganidek, “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz” [1, 230-b.].

Inson o‘z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun undan shu faoliyatning xususiyatlarini, maqsadlarini, vazifalarining mazmunini chuqur anglashi, zarur bilim, ko‘nikma hamda malakalar mavjudligi talab qilinadi. Harbiy-pedagogik faoliyat ham bundan istisno emas.

Mamlakat mudofaasini, xalqimizning bunyodkorona mehnatini, tinch va osoyishta hayotini ta’minlashda harbiy-pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishga qodir yetuk, malakali kadrlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham harbiy kadrlarni tayyorlash masalasiga, harbiy-pedagogik jarayonning talab darajasida amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida ta’kidlaganidek, “Barcha bo‘g‘indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bizning e’tiborimiz markazida bo‘lib qolishi zarur” [2].

Qurolli Kuchlarimizni malakali harbiy kadrlar, zamonaviy qurolyarog‘ va jangovar texnika bilan ta’minlash, harbiy xizmatchilarning xizmat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyalash va boshqa shu kabi masalalar doimo mamlakatimiz rahbariyatining diqqat-e’tiborida turadi. Ayniqsa, armiyaning o‘zagi bo‘lgan ofitser va serjant kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kun talablariga javob beradigan harbiy mutaxassislarni tayyorlash, o‘z-o‘zidan ayonki, harbiy-pedagogik jarayon davomida amalga oshiriladi. Harbiy ta’lim va tarbiya jarayoni haqida so‘z borar ekan, ofitserlarning pedagogik faoliyati xususida alohida to‘xtalib o‘tish zarur.

Gap harbiy-pedagogik faoliyat haqida borar ekan, avvalambor «pedagogik faoliyat» nima ekanligi ustida to‘xtab o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

“Pedagogik faoliyat – ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi; professional pedagogning bo‘ysunuvchilarga ta’lim va tarbiya berish bo‘yicha mehnati jarayoni” [10,70-b.].

Yana bir ta’rif: «Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ta’lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyati» [8, 228-b.].

Ushbu ta’riflardan kelib chiqib harbiy-pedagogik faoliyatga berilgan ta’riflarni keltirish mumkin. “Harbiy-pedagogik faoliyat bo‘ysunuvchilarni tinchlik va urush davrida turli vazifalarni bajarishga tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan psixologik-pedagogik tadbirlar kompleksidir” [5, 270-b.].

«Harbiy pedagogika» qo‘llanmasida «Harbiy-pedagogik faoliyat» tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilinib, uning psixologik va pedagogik jihatlari quyidagilar bilan tavsiflangan:

- jamiyatning aniq buyurtmasi va xususiy maqsadlar bilan belgilangan ofitser erishishi lozim bo‘lgan yakuniy pedagogik

ISSN 3030-3230

- maqsadlarning ijtimoiy ahamiyati va kompleks xarakteri;
- harbiy-pedagogik jarayon davomida ofitser hal qilishi hamda harbiy xizmatchilarda shakllantrilishi lozim bo‘lgan umuminsoniy, milliy davlat va xususiy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan maqsadlar va vazifalarning xususiyatlari;
- harbiy qismdagi harbiy-pedagogik jarayonda o‘qituvchi, tarbiyachi, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg‘ulotlar tashkilotchisi, shaxsiy tarkibning bilish faoliyati, o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlarining tashkilotchisi sifatida ofitserning o‘ziga xos o‘rni va roli;
- harbiy-pedagogik jarayon va harbiy jamoaning faol ishtirokchisi bo‘lgan harbiy xizmatchi shaxsining xususiyatlari;
- pedagogning ishonchli va ta’sirli so‘zi, nutqining madaniyatliligi va mazmuni, bilimdonligi, metodik malakalari va ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari, turmush tarzi va xulqi, faoliyat stilida namoyon bo‘ladigan harbiy-pedagogik faoliyati xususiyati, vositalari va usullari;
- harbiy xizmatchi shaxsining kasbiy, psixologik, ijtimoiy rivojidagi sifat o‘zgarishlarida namoyon bo‘ladigan pedagogik faoliyat natijalarini baholashning murakkabligi va b. [5, 24-b.].

N.V. Bordovskaya va A.A. Rean ‘‘Pedagogika’’ darsligida o‘qituvchi faoliyati konsepsiyasi haqida fikr yuritib, uning quyidagi tarkibiy qismlarini ko‘rsatadilar: 1) kasbiy, psixologik va pedagogik bilimlar;

2) kasbiy pedagogik malakalar; 3) o‘qituvchining kasbiy psixologik pozitsiyasi va ustanovkalari; 4) kasbiy bilimlar va malakalarni egallashini ta’minlashga xizmat qiluvchi shaxsiy xususiyatlari [4, 137-b.). Ushbu konsepsiya harbiy pedagog faoliyatiga tatbiq qilinadigan bo‘lsa, harbiy xizmatning va harbiy mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining o‘ziga xos jihatlari va talablaridan kelib chiqib, mazmuni ancha keng ma’no kasb etadi.

Harbiy-pedagogik faoliyat harbiy-pedagogik jarayon davomida amalga oshiriladi.

Harbiy-pedagogik jarayon – harbiy xizmatchilarni va harbiy jamoalarni belgilangan vazifalarni bajarishga tayyorlash bo‘yicha komandirlarning, shtablarning, tarbiyaviy ishlar organlarining, jamoat tashkilotlarining maqsadga yo‘naltirilgan, tashkiliy o‘quv-tarbiyaviy faoliyati tizimi [3, 358-b.].

Harbiy-pedagogik jarayon komandirlar (boshliqlar) va bo‘ysunuvchilarning ikki tomonlama faol faoliyati bo‘lib, uning doirasida nafaqat harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati shakllantiriladi, balki o‘zida ma’naviy-axloqiy xislatlarni mujassam etgan, aqlan va jismonan yetuk, ijtimoiy faol komil inson shaxsi tarbiyalanadi [13, 260-b.).

Harbiy-pedagogik jarayon murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning mohiyati harbiy mutaxassislarni, bo‘linma va qismlarni mamlakatni qurolli himoya qilish, hozirgi zamon urushi sharoitida jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash bo‘yicha komandirlar, boshliqlar, tarbiyachilarning maqsadli tashkiliy va ta’lim-tarbiyaviy faoliyati bilan belgilanadi [12, 11-b.].

Ko‘pchilik mutaxassislar orasida harbiy-pedagogik faoliyat faqat harbiy ta’lim muassasalariga xos bo‘ladi, harbiy qism va bo‘linmalarda esa pedagogik faoliyat yo‘q, balki jangovar tayyorgarlik amalga oshiriladi, degan fikrlar ham uchrab turadi. Shu o‘rinda harbiy ta’lim muassasalarida ham, harbiy qism va bo‘linmalarda ham harbiy-pedagogik jarayonning asosini bo‘ysunuvchilar ta’limi va tarbiyasi, jangovar, ma’naviy,ma’rifiy, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va tashkil etishini ta’kidlash muhim.

Ofitserlarning professional faoliyatida pedagogik jarayon, ya’ni bo‘ysunuvchilarga rahbarlik qilish, ularga ta’lim berish va tarbiyalash asosiy o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham har bir ofitser, u o‘qituvchi bo‘ladimi yoki komandir (boshliq)mi, o‘z kasbiy faoliyatini yuksak saviyada amalga oshirishi va bu faoliyatdan ko‘zlangan maqsadlarga erishishi, mehnati natijalaridan qoniqish hosil qilishi uchun o‘zining kasbiy mahoratini rivojlantirish haqida qayg‘urishi lozim.

Bugungi kunda ofitser nafaqat harbiy mutaxassis, balki o‘z bo‘ysunuvchilarining rahbari, o‘qituvchisi, tarbiyachisi hamdir. Ofitserga nazariy bilimlar sohibi bo‘lishning o‘zi yetarli emas. U nazariy bilimlarini amalga tatbiq eta oladigan psixolog, pedagog, sotsiolog, harbiy xizmatdagi va kundalik turmushdagi jarayonlarni

chuqur idrok etadigan va mustaqil ravishda to‘g‘ri xulosalar chiqara oladigan inson bo‘la olishi lozim [9, 597-b.].

Ofitserlar harbiy ta’lim muassasalarida bo‘ladimi yoki harbiy qism va bo‘linmalardami, harbiy-pedagogik faoliyat yuritishga tayyormi? Ofitserlarni harbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni ularda harbiy-pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik yo‘nalganlikni, psixologik-pedagogik bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan va maqsadga yo‘naltirilgan tegishli darajadagi psixologik, pedagogik tayyorgarlikni amalga oshirishni taqozo qiladi [5, 270-271-b.].

Ofitserlarda harbiy-pedagogik sifatlarning shakllanishiga va rivojlantirilishiga ular oliy harbiy o‘quv yurtida o‘qish davrida asos solinadi. Kursantlarda bo‘lajak harbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan moyillik va qiziqish shakllantiriladi. Bu davrda harbiy professional pedagogik faoliyatning, ta’lim-tarbiya ishlari jarayoni metodikasining barcha masalalari bo‘yicha zarur bo‘lgan bilimlar asoslari beriladi, boshlang‘ich malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi [13, 28-b.].

Bugungi kunda ofitserlarni harbiy mutaxassis sifatidagina emas, balki pedagog sifatida ham tayyorlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Chunki ofitserning pedagogik tayyorgarligi uning harbiy-kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilab beruvchi mezonlardan biri bo‘lib sanalmoqda.

Pedagogik faoliyat muammolarini tadqiq qilar ekan, N.V.Kuzminaning tadqiqotlariga asoslanib N.V.Bordovskaya A.A.Rean “Pedagogika” darsligida o‘qituvchi faoliyatining tarkibini tashkil etuvchi quyidagi beshta funksional komponentlar ko‘rsatib o‘tadi:

gnostik;
loyihaviy;
konstruktiv;
tashkiliy;
kommunikativ [4,136-b.].

Pedagogik faoliyatning sanab o‘tilgan funksional komponentlarini harbiy-pedagogik faoliyatga tatbiq etgan holda quyidagicha izohlash mumkin:

Gnostik komponent (lot. gnozis – bilish) ofitserning kasbiy va harbiy-pedagogik bilimlari sohasiga taalluqli. Bu yerda gap nafaqat harbiy o‘qituvchi (bo‘linma komandiri)ning o‘z fanini bilishi, balki pedagogik kommunikatsiya usullari, pedagogik madaniyati saviyasi, ta’lim oluvchilarning psixologik xususiyatlarini bilishi, shuningdek, o‘z-o‘zini (o‘z shaxsini va faoliyatini) anglashi haqida boradi.

Loyihaviy komponent o‘z ichiga bo‘lajak ofitser (harbiy mutaxassis)lar ta’limi va tarbiyasining istiqboldagi vazifalari haqidagi tasavvur hamda ana shu vazifalarga erishish strategiyasi va usullarini oladi.

Konstruktiv komponent – harbiy ta’lim muassasasi (harbiy qism, bo‘linma)ning yaqin vaqtga mo‘ljallangan o‘quv va tarbiyaviy maqsadlarini hisobga olgan holda pedagog (komandir)ning o‘z faoliyatini va ta’lim oluvchi (bo‘ysunuvchi)lar faolligini ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqish.

Kommunikativ komponent – ta’lim va tarbiya maqsadlariga erishishga qaratilgan harbiy-pedagogik jarayonda ofitser-o‘qituvchi (komandir) kommunikativ faoliyatining, ta’lim oluvchi (bo‘ysunuvchi)lar bilan hamkorligining xususiyatlari.

Tashkiliy komponent – o‘qituvchi (komandir) ning o‘z harbiy-pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish va ta’lim oluvchi (bo‘ysunuvchi)lar faolligini ta’minlay olish malakalari tizimi.

Shunday qilib, ofitserlarning psixologik-pedagogik tayyorgarligining mohiyati va komponentlari ularning nazariy tayyorgarlik va harbiy-pedagogik amaliyot jarayonida psixologik- pedagogik bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni egallashi bilan belgilanadi, harbiy-pedagogik faoliyat esa uning mazmunini tashkil etadi [5, 277-b.].

Hozirda harbiy ta’lim muassasalarida ofitser kadrlarning harbiy-pedagogik tayyorgarligi mazmuni o‘z ichiga, asosan, ularda harbiy xizmatchilarga ta’lim va tarbiya berish bo‘yicha zarur amaliy harakatlarni amalga oshirish malaka va ko‘nikmalarini egallashlarini nazarda tutib, psixologik-pedagogik nazariyani o‘rganishga, pedagogik hodisalar va jarayonlarning ichki psixologik qonuniyatlarini tushunishga esa kam e’tibor qaratilmoqda.

Harbiy ta’lim muassasalari bitiruvchisi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha harbiy-kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi bilan birga quyidagilarni o‘z ichiga olgan ofitser-pedagogga qo‘yiladigan talablarga mos kelishi kerak.

Nazariy bilimlari: tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti; harbiy psixologiya va pedagogika; boshqaruv nazariyasi; harbiy huquqshunoslik, nizomlar, boshqaruv hujjatlarini bilishi.

ISSN 3030-3230

Amaliy ko‘nikma va malakalari: bo‘ysunuvchilarni o‘rganish; yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish; o‘qish, xizmat, turli tadbirlarni tashkil qilish; shaxsiy tarkibni qo‘yilgan vazifalarni bajarishga safarbar qilish.

Shaxsiy sifatlari:

axloqiy – qat’iylik; Vatanga va uni himoya qilish g‘oyalariga muhabbat va sadoqat; insonparvarlik va kelajakka ishonch;

axloqiy-jangovar – o‘z kasbiga, Qurolli Kuchlariga, mutaxassisligiga muhabbat va sadoqat; intizomlilik; burch va harbiy g‘urur hissi; tashabbuskorlik; mardlik va maqsadlarga erishishda tirishqoqlik;

tashkiliy – o‘z ishining muhim jihatlarini ko‘ra olish; vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishga o‘zini va boshqalarni ruhlantira olish; ishchanlik; ochiqlik;

psixologik-pedagogik – talabchanlik; buyruq, tanbeh, uqtirish va taklif ko‘rinishida bosim o‘tkazmasdan va shaxsni kamsitishga yo‘l qo‘ymasdan bo‘ysunuvchiga ta’sir etish; ko‘rsatma va topshiriqlarni bera olish; o‘zini boshqara olish; bo‘ysunuvchilarga nisbatan adolatlilik va sezgirlik; nutqining madaniyatliligi va mazmundorligi; bo‘ysunuvchi shaxsining rivojlanishini bashorat qila olish malakasi; xizmat, o‘qish, turmushning har qanday masalalarini tushunarli va ishonchli tushuntira olish qobiliyati.

4. Psixologik-pedagogik bilimlari:

harbiy faoliyat sharoitida harbiy xizmatchi psixikasi namoyon bo‘lishining qonuniyatlari;

shaxs va harbiy jamoani psixologik o‘rganish metodlari va olingan natijalarni tahlil qilish usullari;

psixologik ishlarning asosiy mazmuni va psixologik bilimlarini harbiy hayotning turli jabhalarida qo‘llash imkoniyatlari;

qo‘shin psixologlarining asosiy vazifalari, ish metodlari va hamkorlik qilish usullari;

ofitserning harbiy-pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan pedagogik talablarning mohiyati va ularni amalga oshirish yo‘llari; - bo‘linma shaxsiy tarkibi ta’limining texnologik asoslari; - ofitser pedagogik madaniyatining asoslari.

Harbiy qism va bo‘linmalar faoliyati davomida turli kutilmagan, o‘ylanmagan, ilgari duch kelinmagan voqea va hodisalar ham yuzaga kelishi mumkinki, o‘sha vaziyatda maqbul yechimga kelish, oqilona qaror qabul qilish uchun ofitserdan nostandart va tezkor tafakkur, mavjud bilimi va tajribasini yuzaga kelgan muammoni hal qilishga qarata olish malakasi, mas’uliyat, ba’zida jasorat talab qilinadi. Buning uchun ofitserning qolipga solingan tafakkur va faoliyatdan chiqib keta olishi, unda masalaga ijodiy yondasha olish malakalarining shakllanganligi muhim ahamiyatga ega.

Kursantlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini amalga oshirishda nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda, professor R.S. Samarov tavsiya etgan ijodiy faoliyat tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi [11]. Muallifning ta’kidlashicha, ijodiy faoliyat tajribasi ta’lim oluvchining yangi vaziyatli-kasbiy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni yechishini ta’minlaydi. Tajriba mazmunining asosiy ko‘rsatkichi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

o‘zlashtirgan bilim va egallagan malakani mustaqil tarzda boshqa obyektga (ya’ni, nazariyani amaliyotga qo‘llash) qo‘llay olishda;

ma’lum vaziyatda yangi muammoni aniqlashtirishda;

turli faoliyat usullarini uyg‘unlashtirgan holda bajara olishda; - muammoni yechishning muqobil usulini tanlay olishda; - muammoni yechishda mutlaq yangi usulni qo‘llay olishda.

Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Bu o‘z navbatida, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda muammoli vaziyatlar omiliga alohida e’tibor qaratilishini ko‘rsatadi [11, 11-b.].

Harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning bo‘lajak ofitser sifatida mutaxassisligi bo‘yicha harbiy-kasbiy tayyorgarligi darajasiga shubha qilmagan holda ularning pedagogik faoliyatga qanchalik shayligini ko‘rib chiqaylik.

Ofitserlarning pedagogik tayyorgarligi, avvalambor, ularda psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘rganish asosida harbiy xizmatchilar bilan o‘quv va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda harbiy ta’lim muassasalari o‘quv rejalarida psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi fanlarning ulushi quyidagicha manzarani ko‘rsatdi.(1-jadval).

Harbiy ta’lim muassasalari o‘quv rejalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, turli o‘quv davrlari (2000/2001, 2005/2006, 2021/2022 o‘quv yillari) da psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi fanlarning ulushi o‘zgarib turgan. Obyektiv ravishda “Qo‘mondonlik-taktik tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar” mutaxassisliklar o‘quv rejalarida psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi fanlarning

1-jadval

O‘quv rejasida psixologik-pedagogik fanlar ulushi

T/p	Fan	O‘quv yillari bo‘yicha fanlarga ajratilgan soatlar					
		2000/2001		2005/2006		2021/2021	
		Tabr.	Kom.	Tarb.	Kom.	Tarb.	Kom.
1.	Harbiy pedogogika	90		54		80	
2.	Pedagogik mahorat	60		68			
3.	Yangi pedagogik texnologiyala	40					
4.	Pedagogika tarixi va nazariyasi	100		100			
5.	Harbiy psixologiya	90		44		180	
6.	Harbiy pedagogika va psixologiya		140		56		90
7.	Ijtimoiy psixologiya va pedagogika	90		92			
8.	Tarbiyaviy ishlar uslubiyati (Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyati)	300	150	270	90	204	72
9.	Madaniy xordiq ishlari (Madaniyatshunoslik)	90		76			
10.	Harbiy xizmat etikasi	40	40	40	44	Falsafa fani tarkibida	
11.	Estetika	30	30	30			
12.	Ritorika (Notiqlik san’ati)	40		44			
13.	Konfliktologiya					36	
	Jami:	**970**	**360**	**620**	**190**	**500**	**162**

soni va ularni o‘qitishga ajratilgan soatlar miqdori qo‘mondonlik-taktik mutaxassisligiga nisbatan ko‘proqligi, biroq bu ulush yildan-yilga kamayib ketayotganligini ko‘rishimiz mumkin (1-jadvalga qarang). Bunday holat harbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining psixologik-pedagogik tayyorgarligi saviyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada harbiy qism va bo‘linmalar mansabdor shaxslari nomidan harbiy ta’lim muassasalari qo‘mondonligiga kelayotgan fikrlarda yosh ofitserlarning harbiy xizmatga adaptatsiyasi jarayonining murakkab kechayotganligi, shaxsiy tarkib bilan ishlash malakalarining rivojlanmaganligi, nutqi va kasbiy-pedagogik madaniyati darajasining pastligi kabi salbiy fikrlar uchrab turibdi. Bu, albatta, komandirlarning shaxsiy tarkib bilan yakka tartibda va jamoaviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishida, samarali pedagogik muloqot o‘rnatishida, maqsadga muvofiq psixologik ta’sir etishida, liderlik sifatlarining namoyon bo‘lishida ko‘zga tashlanmoqda.

Harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarni bo‘lajak ofitser sifatida xizmat faoliyatiga tayyorlashda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy ta’lim muassasalarida ofitser kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning harbiy mutaxassisligi bilan birga psixologik-pedagogik tayyorgarligiga ham e’tiborni kuchaytirish. Ana shu maqsadda:

turli mutaxassisliklar bo‘yicha kursantlarni o‘qitish o‘quv rejalarini, o‘qitiladigan o‘quv fanlari turlarini, hajmini va mazmunini qayta ko‘rib chiqish; xorijiy mamlakatlar harbiy ta’lim muassasalarining ushbu masala bo‘yicha ilg‘or ish tajribasini o‘rganish, muhokama qilish hamda

ISSN 3030-3230

bizning sharoitimizda samara beruvchi jihatlarini tatbiq etish; kursantlarning, turli darajadagi komandir va mansabdor shaxslarning

psixologik-pedagogik bilimlari, muloqot madaniyati, so‘z boyligini oshirish, kreativ tafakuri darajasi hamda dunyoqarashini kengaytirish maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari, uslubiy yig‘inlar, konferensiyalar va shu kabi tadbirlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Xulosa o‘rnida aytish zarurki, bugungi Qurolli Kuchlar zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika, axborot-kommunikatsiya vositalari, o‘quv-moddiy texnika bazasi bilan qanchalik ta’minlangan bo‘lmasin, inson omili birinchi o‘rinda turadi. Bugungi bo‘ysunuvchi kursant – ertaga ofitser, komandir, boshliq, mansabdor shaxs bo‘ladi. O‘z xizmat vazifalarini samarali, muvaffaqiyatli ado etishga tayyorlash uchun esa harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishda bo‘lajak ofitserlarning psixologik-pedagogik tayyorgarligiga mustahkam asos yaratish lozim.

Аннотация. В статье раскрываются особенности педагогической деятельности и педагогического процесса в военных образовательных учреждениях и воинских частях, описаны требования к психолого-педагогическим знаниям и профессионально-педагогическому уровню офицеров.

Ключевые слова: военно-педагогическая деятельность, военно-педагогический процесс, офицер, курсант, психолого-педагогические дисциплины.

Abstract. The article reveals the features of pedagogical activity and the pedagogical process in military educational institutions and military units, the requirements for psychological and pedagogical knowledge and the professional and pedagogical level of officers.

Key words: military pedagogical activity, military pedagogical process, officer, cadet, psychological and pedagogical disciplines.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 bet.
2. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. //Vatanparvar, 2017 yil 14 yanvar.
3. Богданов, И.В. Значение теории педагогики и педагогической практики в военной службе и деятельности военнослужащих. «Молодой учёный». № 10 (69). Июль, 2014 г. С. 355-360.
4. Бордовская, Н.В., Реан, А.А. Педагогика. Учебник для вузов. – СПб: Питер, 2000. – 304 с.
5. Военная педагогика. Под ред. И.А. Алёхина. – Москва, изд. МО РФ, 2008. – 324 стр.
6. Военная педагогика: Учебник для вузов. Под ред. О.Ю. Ефремова. – СПб.: Питер, 2008. – 640 с.
7. Кудрявцева, В.Ю. Военно-профессиональная подготовка курсантов высших военно-учебных заведений к педагогической деятельности в войсках: автореф. дис. … к-та пед. наук / В.Ю. Кудрявцева; Казанский государсственный технолгический ууниверситет. – Казань, 2010. – 20 с.
8. Nasirov, K.J. Pedagogika.Psixologiya. Darslik. –Toshkent OHBI, 2017. –256 b.
9. Попова, О.А. Базисные составляющие педагогической деятельности офицера ВС РФ. – Молодой учёный, № 19 (78). Ноябрь, 2014 г. С. 596-598.
10. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. – 116 b.
11. Samarov, R.S. Ta’lim mazmunini belgilashning strukturaviy funksional jihatlari (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim misolida). Zamonaviy ta’lim, 2015, 12-son. – 9-14-betlar.
12. Satib-Aldiyev, A., Karimjonov, A. Harbiy pedagogika. – T.: Sharq, 2005. – 256 b.
13. Satib-Aldiyev, A. Ofitser-o‘qituvchining pedagogik mahorati [Matn]: darslik/ – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. – 264 b.

EKSTREMISTIK FAOLIYATGA NISBATAN JAVOBGARLIK BELGILANGAN QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI

To‘xtayev Firdavs Mustafoqul o‘g‘li,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Ushbu ilmiy maqolada, insoniyat paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab ekstremistik faoliyatning mavjudligi, qadimgi tarixiy manbalarda ekstremistik faoliyat shakllariga nisbatan javobgarlikning belgilanishi o‘rganilgan. O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksida ekstremistik faoliyat natijasida sodir etilgan jinoyatlar tahlili qilingan va bugungi qonunchilik bilan o‘zaro qiyoslangan. Bugungi kunda, ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi qonunlar tahlil qilingan hamda ularni o‘zgartirishga oid mualliflik yondashuvlari bayon etilgan.**

Kalit so‘zlar: ekstremistik faoliyat, jinoyat, qonun, din, sud-dinshunoslik ekspertizasi, terrorizm, ekstremizm, qo‘poruvchilik, inqilob, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, diniy mazmundagi material.

Ekstremistik faoliyatning rivojlanish va tahdid sifatida shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Ayrim islomshunos olimlarning fikriga ko‘ra, yer yuzidagi dastlabki ekstremist Odam alayhissalomning o‘g‘li Qobil bo‘lgan. Chunki, u jamiyatdagi umume’tirof etilgan mavjud tartib-qoidalarga qarshi chiqqan birinchi inson bo‘lib, o‘z otasi Odam alayhissalomning g‘oya va tartibiga rioya etmagan, zo‘ravonlik harakatlarini olib borgan hamda o‘z ukasi Hobilni o‘ldirgan [1].

Yer yuzida aholi soni ortib borishi bilan ilk davlatchilik shakllari paydo bo‘la boshlagan vaqtda ham ekstremistik harakatlar mavjud bo‘lgan. Xususan, miloddan avvalgi IV ming yilliklarda qadimgi Misr davlatida fir’avn hukumatiga tajovuz qilish og‘ir jinoyat hisoblangan. Bunday jinoyatlarni sodir etganlar mamlakat hayotini izdan chiqarish va davlatga xiyonat qilishda ayblanib, jazolangan [2].

Insoniyat paydo bo‘lganidan so‘ng, ilk yaratilgan huquqiy norma sifatida e’tirof etilgan Qadimgi Bobil hukmdori Xammurapi tomonidan ishlab chiqilgan “Hammurapi kodeksi”da ham ekstremistik faoliyat haqida to‘xtalib o‘tilgan. Mazkur qonunda Bobil hududida qurolli uyushmalar tuzgan hamda zo‘ravonlik harakatlarini olib borishga uringan shaxslar o‘lim jazosiga hukm qilingan [3].

Bundan uch ming yil muqaddam Markaziy Osiyo hududida paydo bo‘lgan “Zardushtiylik” dinining kitobi “Avesto”da ham ekstremistik faoliyatga qarshi javobgarlik haqida aytib o‘tilgan. “Zardushtiylik” ta’limotiga ko‘ra, inson qaysi guruh, qabila yoki irqqa mansub bo‘lmasin, barcha birdek teng bo‘lib, shaxsga nisbatan irqiga yoki qabilasiga qarab, munosabatda bo‘lish og‘ir jinoyat hisoblanadi[4].

A.Perixanyan “Avesto”ning me’yoriy-huquqiy jihatlarini o‘rganishi davomida, unda bayon etilgan jinoyatlarni bir necha guruhlarga ajratgan. Ular orasida dinga qarshi jinoyatlar, bu boshqalarni diniy e’tiqodini buzishga harakat qilish va diniy adovat qo‘zg‘atish hamda shaxsga qarshi jinoyatlar esa zo‘ravonlikni targ‘ib qilish yoki zo‘ravonlik harakatlarini sodir etishni alohida ko‘rsatib o‘tgan [5].

XIV asrda “Temuriylar” davlatini boshqarishda eng asosiy dasturlardan biri bo‘lgan “Temur tuzuklari”da davlat tinchlikni saqlovchi, ta’minlovchi milliy va etnik adovat qo‘zg‘alishiga yo‘l qo‘ymaydigan tuzilma sifatida belgilangan. Ijtimoiy vaziyatni beqarorlashtirishga uringan, buzg‘unchilik va yovuz g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi shaxslarga nisbatan taftish o‘tkazilishi hamda ularga barmoq, qo‘l, burun, quloqlarni kesish ko‘zga mil tortib ko‘r qilish, darra va qamchi bilan urish, sazoyi qilish kabi jazo turlari qo‘llanilishi haqida ta’kidlangan [6]. Bu borada, Amir Temur ham “buzg‘unchilikka undovchi yovuz fikrlar, jaholat urug‘ini sepib urushni targ‘ib qiladi. Buzg‘unchi fikrlar jamiyatdagi muayyan guruhlar, qatlamlarning ongiga singib, uning yovuz manfaatlarini ifodalaydigan g‘oyaga aylanishi mumkin. U holda jamiyatda beqarorlik muhiti vujudga kelib, odamlar boshiga katta kulfatlar yog‘ilishi mumkin” deya fikrlar bildirgan [7].

Chor Rossiyasining birinchi jahon urushida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi natijasida Rossiya va Markaziy Osiyoda beqaror vaziyat yuzaga kelgan. Bunday vaziyatda, jamiyat hayotida turli qurolli tuzilmalari faoliyati kuzatiladi. 1917-yil oktabr inqilobidan so‘ng, davlat arboblari hayotiga tajovuz qiluvchi hamda inqilobga qarshi bo‘lgan jinoiy uyushmalarga qarshi jinoiy-huquqiy choralar ko‘rishga ehtiyoj tug‘ildi. Shuning uchun 1924-yilda “Sovet Ittifoqi davlatlarining jinoyat qonunchiligi asoslari” qabul qilingan [8].

Sovet Ittifoqida 1958-yilda “Davlatga qarshi

ISSN 3030-3230

jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan [9]. Mazkur qonun qabul qilinishi natijasida, “inqilobga qarshi jinoyatlar” tushunchasi yuridik atama sifatida qonunchilikdan chiqarib tashlanib, “davlatga qarshi jinoyatlar” tushunchasi kirib keldi.

A.I. Siganok Sovet Ittifoqida ekstremistik faoliyatga nisbatan javobgarlik belgilangan qonunchilikni rivojlanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratadi. Birinchisi, inqilobgacha bo‘lgan, ya’ni, XIX asr oxiridan 1917-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. 1917-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan davr esa ikkinchi bosqich sifatida qayd etilgan [10].

1959-yil 21-mayda “O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksini tasdiqlash haqidagi” O‘zbekiston SSRning qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun bilan tasdiqlangan kodeksning maxsus qismi birinchi bo‘limining birinchi bobi “Davlatga qarshi jinoyatlar” deb nomlanadi.

Ushbu bobning 55^{1}-moddasida “Hokimiyatni egallash maqsadida fitna uyushtirish”, 58-moddasida “qo‘poruvchilik”, 60-moddasida “Antisovet g‘oyalarini targ‘ib qilish”, 62-moddasida “Antikonstitutsion faoliyatda ishtirok etish yoki davlatga qarshi o‘ta xavfli jinoyatlar sodir etish maqsadida uyushgan faoliyat” kabi jinoyatlarga javobgarlik belgilangan [11].

Shuningdek, mazkur Kodeksning maxsus qismi birinchi bo‘limining ikkinchi bobi esa “Davlatga qarshi boshqa jinoyatlar” deb nomlanib, 64-moddasida “Milliy yoki irqiy tenglikni buzish” va 69-moddasida “Ommaviy tartibsizliklar” uchun javobgarlik nazarda tutilgan [12].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksida konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish bilan bog‘liq uchta jinoyat turi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, mamlakat hududida taqiqlangan uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyat ko‘rsatishi ham konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz sifatida baholangan. Amaldagi Jinoyat kodeksida mamlakatda uyushgan jinoiy guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etishga nisbatan alohida jinoiy javobgarlik belgilangan. O‘zbekiston SSRning mazkur kodeksida ilk bora, ekstremistik faoliyat natijasida sodir etiluvchi jinoyatlarning tarkibi batafsil bayon etilgan.

Ekstremistik faoliyat sifatida baholanuvchi jinoyatlar O‘zbekiston SSR ushbu kodeksining yagona bo‘limiga joylashtirilgan bo‘lib, ularning barchasi davlatga qarshi jinoyatlar sifatida belgilangan hamda o‘zaro bog‘liqligi ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida ekstremistik faoliyat natijasida sodir etiladigan jinoyatlar turli bo‘lim va boblarda keltirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrlarda islom dini niqobidagi ekstremistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi uyushgan guruhlarning faoliyati mamlakat hududida faollashdi. Shuning uchun ekstremistik faoliyatga qarshi kurashishni huquqiy tartibga soluvchi normalar ham takomillashtirib borildi. Bu borada, M. Dvoredskiy jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqiy vositalardan foydalanish juda muhimligini [13], Z. G‘afarov esa ekstremizm ko‘rinishlariga qarshi kurashish bu uning keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan zararli oqibatlarini oldini olish tadbirlari bo‘lib, qarshi kurashda idoralararo hamkorlik muhim hisoblanadi deb qayd etishgan [14].

Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarda qarshi kurashishning boshqa jihatlari nazardan chetda qoldirilgan. Ekstremistik faoliyat sodir etilmasdan, uning oldini olish masalalari yoritilganda, unga aloqador shaxslar hamda holatlarni majmuaviy tarzda aniqlash to‘g‘risida bayon etilganda, qarshi kurashishning barcha jihatlarini qamrab olgan bo‘lar edi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, ekstremizmga qarshi kurashish jarayonlarini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lamiz. Xususan, birinchi bosqich 1991-1999 yillar oralig‘ini, ikkinchi bosqich 2000-2018 yillar oralig‘ini va uchinchi bosqich 2018-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda, davlat xavfsizligi uchun jiddiy tahdid bo‘lgan diniy ekstremizmning oldini olish maqsadida, mustaqillikning dastlabki yilida (1991-yil) O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi

va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi” qonuni qabul qilindi. 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinib, unda kishi istalgan dinga e’tiqod qilishi yoki qilmasligi belgilab qo‘yildi [15].

Konstitutsiyaga ko‘ra, ushbu huquqlar boshqa fuqarolar, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga daxl qilishi mumkin emasligini anglatadi. Qonun davlat xavfsizligi, jamoat tartibini yoki axloq me’yorlarini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan hollarda diniy faoliyatni cheklashga ruxsat beradi.

Konstitutsiyada davlatning diniy jamoatlar ishiga aralashmasligini nazarda tutuvchi dunyoviy asos belgilab qo‘yilgan, unda davlat bilan din bir-biridan ajratilgan va diniy prinsiplarga asoslangan siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlangan. Davlat ro‘yxatidan o‘tmay turib, diniy faoliyat yuritish uchun javobgarlik belgilangan [16].

1991-yilda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi” Qonuni 1998-yilda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. Ushbu qonun dindan xususiy tartibda ta’lim

berishni taqiqladi. Diniy ta'lim olish niyatida bo'lgan shaxslar umumta'lim maktablarida o'rta ma'lumotlarni olganidan so'ng, davlatdan tegishli tartibda ruxsat olgan diniy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Bunday normalar mamlakatda din niqobi ostida ekstremizmning kirib kelishining oldini olish maqsadida kiritilgan.

Qonun faqat davlat ro'yxatidan o'tgan markaziy ma'muriy organi bor diniy tashkilotlarga din xodimlarini tayyorlash va diniy ta'lim berishga ruxsat etadi [17].

1994-yil 22-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinishi ekstremistik faoliyat hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tashlangan muhim qadamlardan bo'ldi. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi, fuqarolarning ekstremizm xavfidan va insonning axborot sohasidagi huquqlarini himoya qilishni mustahkamlashga xizmat qildi [18].

1998-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori qabul qilingan [19].

Qarorga ko'ra, respublika mutasaddi davlat hamda jamoat idoralari tomonidan ishlab chiqilgan "Huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, aqidaparastlik g'oyalari tarqalishini oldini olish bo'yicha tadbirlar dasturi" tasdiqlangan bo'lib, ushbu qaror asosida diniy va umuman mafkuraviy adabiyotlar, video va audio kassetalarning mazmuni va tarqatilishidan oldin zaruriy tekshiruvdan o'tkazilishi, viloyatlar markazlarida diniy adabiyotlar sotuvini amalga oshiruvchi maxsus do'konlar tashkil etish va ular faoliyatini nazoratga olish tadbirlari yo'lga qo'yildi [20].

Shu qatorda Jinoyat kodeksi ham yillar davomida takomillashtirib borildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi O'RQ 62^{1}-I-son Qonuniga asosan, Jinoyat kodeksining 216^{1}-, 216^{2}- va 244^{1}-moddalari bilan to'ldirildi [21].

Natijada, qonunchilikda ilk bor, "diniy ekstremizm" tushunchasi yuridik atama sifatida qo'llanildi. Shuningdek, ekstremistik faoliyatni amalga oshirish hamda harakatlarini niqoblash usullariga nisbatan ham javobgarlik belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-apreldagi O'RQ 77^{2}-I-son Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga 244^{2}-moddasi kiritildi [22]. Mazkur moddaga asosan "diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish" harakatlariga nisbatan qat'iy huquqiy choralar ko'rish mexanizmi vujudga keldi.

Ta'kidlash joizki, birinchi bosqichning yakunlanishi ekstremizmga nisbatan javobgarlik choralarining kuchaytirilishi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, ekstremistik faoliyatga qarshi kurashishning ikkinchi bosqichi boshlandi.

Ikkinchi bosqichda "Axborotlashtirish to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinishi, axborotlarni toifalarga ajratish, ularni tarqatishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar mustahkamlandi [23].

Ushbu davrda, O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 22-iyundagi O'RQ 37-son Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 156-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi [24]. Unga muvofiq, mazkur moddaning birinchi qismiga "milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa" jumlalari bilan to'ldirildi. Natijada, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi materiallarni tarqatishga nisbatan choralar ko'rish huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Qayd etish kerakki, shu vaqtlarda ekstremistik faoliyatni sodir etilishi asosan diniy mazmundagi materiallarning muomalasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan O'RQ 37-sonli Qonun bilan Jinoyat kodeksi 244^{3}-moddasi bilan to'ldirildi [25]. Ushbu moddada, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish harakatlariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, sodir etilsa, jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Ekstremistik faoliyatning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan diniy mazmundagi materiallarning qonunga xilof muomalasiga qarshi choralar ko'rishni huquqiy tartibga solish jarayoni izchil davom ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yildagi "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 10-sonli Qarori asosida shaxslar diniy mazmundagi materiallarning muomalasini amalga oshirishlari belgilandi.

Ikkinchi bosqichda Jinoyat kodeksining 2441-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 25 apreldagi O'RQ 405-sonli Qonuni bilan mazkur modda qayta nomlanib, "tayyorlash yoki tarqatish" degan so'zlar "tayyorlash, saqlash,

ISSN 3030-3230

tarqatish yoki namoyish etish” degan so‘zlar bilan almashtirildi [26].

Shuningdek, modda birinchi qismi dispozitsiyasidagi ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng, degan jumla chiqarib tashlab, modda dispozitsiyasida ko‘rsatib o‘tilgan harakatni dastlabki sodir etilishi jinoyat hisoblanishi belgilandi. Bundan tashqari, moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga “diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash, tarqatish yoxud namoyish etish” kabi qo‘shimchalar kiritilib, jinoyatning obyektiv tomoni batafsilroq bayon etildi.

Moddaning uchinchi qismida esa diniy tashkilotlardan, shuningdek chet el davlatlari, tashkilotlari va fuqarolaridan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamdan foydalanib hamda ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilganligi og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilandi.

Ekstremistik faoliyatga qarshi kurashishning uchinchi bosqichini huquqiy tartibga solinishining yangi davri sifatida qayd etish lozim. Bu 2018-yil 30-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi bilan izohlanadi. Mazkur qonunning qabul qilinishi, ekstremizmga qarshi kurashishning huquqiy asosini yaratib, mamlakatda “ekstremizm” tushunchasiga aniq huquqiy yondashuv va qarashning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ekstremistik faoliyatning shakllarini batafsil bayon etdi.

“Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning turli bandlari konstitutsiyaviy tuzum hamda mamlakatning yaxlitligini saqlash, tinchlik, millatlararo va dinlararo totuvlikni ta’minlash, shaxs, jamiyat va davlatni himoya qilishga taalluqlidir. Qonunda ekstremizm va ekstremistik faoliyatga qarshi kurashishning asosiy tushunchalari, prinsiplari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Ushbu qonunning asosiy maqsadi ekstremistik faoliyatga nisbatan qarshi kurashish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish bo‘lsa, biroq, “ekstremizmga qarshi kurashish” tushunchasiga ta’rif berilmagan. Bu masala yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi, xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalarining qonunlarida bu haqda qayd etib o‘tilgan [27].

Jinoyat natijasida orttirilib, chet elga chiqarilgan daromadlarni O‘zbekistonga qaytarish masalalari bilan bog‘liq ayrim masalalar jinoyat protsessual kodeksining o‘n to‘rtinchi – jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik bo‘limida o‘z aksini topgan. Xususan, protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to‘g‘risida so‘rov yuborish (592-m.), ushbu so‘rovning mazmuni va shakli (593-m.), xorijiy davlat hududida olingan dalillarni yuridik kuchi va ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.

Jinoyat kodeksida esa jinoiy daromadlarni qaytarish bilan bog‘liq masalalarni oldini olish yoki mazkur holatlar aniqlangan taqdirda protsessual majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq normalar mavjud emas.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish” to‘g‘risidagi qonuni normalarida esa aktivlarni qaytarish bilan bog‘liq masalalar batafsil yoritilmagan.

Xususan, ushbu qonuning 32-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlari bilan aktivlarni qaytarish masalalarida xalqaro so‘rovlarni yuborilishi, xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan yuborilgan so‘rovlarni ijro etishning qonuniy asoslari detallashtirilmagan[9].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash

ISSN 3030-3230

to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish to‘g‘risidagi normalar kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko‘ra, vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o‘zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi belgilangan. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, mazkur norma yetarli darajada takomillashmagan. Chunki, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar, mohiyatan noqonuniy bo‘lib, ushbu qarorlar bekor qilishga manfaatdor shaxsning arizasi talab etilmasligi hamda sud va boshqa vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan ushbu qarorlar darhol bekor qilinishi lozimdir.

Bundan tashqari, “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunda Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar (IV bob) hamda Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi (5-bob) masalalari ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etish – aktivlarni qaytarish masalalari mavhumligicha qolib ketgan.

Qonunda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan moddiy ziyonni undirish va orttirilgan jinoiy daromadlarni qaytarish tartibi, ya’ni ushbu masalalarni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning (tergovchi, prokuror, sud va aktivlar realizatsiyasini amalga oshiruvchi davlat idoralarining) vazifalari aniq ko‘rsatib berilishi lozim.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy jinoyatlar vositasida tuzilgan shartnoma, kelishuv, aktlar va boshqa harakatlarning haqiqiy emasligi hamda ushbu shartnomalar natijasida orttirilgan jinoiy aktivlarni qaytarilishi kerakligi ham ko‘rsatilishi kerak.

Mazkur sohadagi so‘nggi islohotlardan 2021-yil 28-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PF-6252-son Farmoni hamda 2021-yil 29-iyundagi Vazirlar Mahkamasining 402-son qarori bilan tasdiqlangan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomlarini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Jumladan, PF-6252-son Farmonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyalari talablari, Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (FATF) standartlarini inobatga olingan strategiya hamda strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Ushbu sohada ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ro‘yxati tasdiqlangan.

Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida[10]:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda milliy darajada aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda davlat siyosatini yanada mustahkamlash;

- ushbu sohadagi milliy tizimning xalqaro hujjatlarga muvofiqligini, shuningdek, FATF standartlari va xalqaro-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston qonunchilik hujjatlariga implementatsiya qilinishini ta’minlash;

- xalqaro hamkorlik va uzviy axborot almashinuvini olib borish choralarini yanada kengaytirish;

sohadagi barcha statistik ma’lumotlarning yaxlit tizimini shakllantirish, ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish hamda axborot almashinuvi samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

sohaga jalb qilingan davlat organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, shuningdek, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar xodimlarini o‘qitish hamda qayta tayyorlash kabilar qayd etilgan.

Strategiyada belgilangan vazifalarni ijroga qaratish yuzasidan aniq muddatlar belgilangan bo‘lsa-da, lekin ularning aksariyati bajarilmay kelmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 402-son qarori PF-6252-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosiga qaratilgan bo‘lib, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan shubhali operatsiyalar to‘g‘risida maxsus vakolatli organga xabar berish, ma’lumotlarni taqdim etish tartibi, maxsus vakolatli organlarning xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish tartibi tasdiqlangan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan, jinoiy daromadlarni xorijdan qaytarish jarayonini

o‘rganishga qaratilgan, ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish natijasida, shuningdek ushbu jarayonlarning protsessual-huquqiy tartibga solinishi mexanizmining milliy qonunchilikdagi jihatlaridan kelib chiqib, aktivlarni qaytarish jarayonlari davlatlararo yuridik jarayonlarni o‘ziga qamrab oluvchi, moliyaviy xarakterli, bosqichma-bosqich tizimli yondashuvga ega bo‘lgan jinoiy protsessual jarayon ekanligi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin.

Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatimizda jinoiy daromadlarni qaytarishni protsessual-huquqiy hamda tashkiliy mexanizmlari qonun osti hujjatlari bilan belgilangan bo‘lsa-da, kelgusida sohani ustuvor xalqaro hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga moslashtirish maqsadida, aktivlarni O‘zbekistonga qaytarish jarayonlarini tartibga solish yuzasidan qonuniy asoslarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rish mumkin.

Аннотация. В статье обсуждаются исследования по вопросам возврата преступных активов, процессуально-правового регулирования, международно-правового сотрудничества, финансовой разведки, отмывания денег, приостановления операций, финансирования терроризма, международных и национальных норм в отношении возврата преступных активов.

Ключевые слова: процессуально-правовое регулирование, международно-правовое сотрудничество, финансовая разведка, отмывание денег, преступные активы, отслеживание активов, антикоррупционная Конвенция ООН, международно-правовые документы, процессы возврата активов.

Annotation. The article discusses research on the return of criminal assets, procedural and legal regulation, international legal cooperation, financial intelligence, money laundering, suspension of operations, financing of terrorism, international and national norms regarding the return of criminal assets.

Key words: procedural and legal regulation, international legal cooperation, financial intelligence, money laundering, criminal assets, asset tracking, the UN Convention against Corruption, international legal documents, asset recovery processes.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. БМТнинг Коррупцияга қарши кураш Конвенциясининг 1-моддаси//www.lex.uz
2. БМТнинг Коррупцияга қарши кураш ва Уюшган жиноятчиликка қарши курашк онвециялари//www.lex.uz
3. БМТнинг Коррупцияга қарши кураш Конвенцияси//www.lex.uz
4. Д.А.Кунев. Возврат из-за рубежа перступных активов: теория и практика. Учебный пособия. М-2021/стр. 30-35
5. «Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни// www.lex.uz
6. Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий фаолиятлан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуннинг 3 моддаси//26 августа 2004 г.,№ 660-II
7. https://nrm.uz/contentf?doc=13997. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси (ЎзР 22.09.1994 й. 2013-XII-сон Қонуни билан тасдиқланган)
8. https://nrm.uz/contentf?doc=13997. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси (ЎзР 22.09.1994 й. 2013-XII-сон Қонуни билан тасдиқланган)
9. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш” тўғрисидаги қонуни// www.lex.uz
10. www.lex.uz//28.06.2021 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш миллий тизимини ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» ПФ-6252-сон Фармони

ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASIDA MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH USLUBIYOTI

Djaydakbayev Murat Turgunovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Nazorat-taftish boshqarmasi boshlig‘i,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazoratni amalga oshirishning uslubiyoti tahlil qilingan va nazorat tadbirlarini o‘tkazishda moliyaviy nazorat uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.**

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, moliyaviy nazorat uslubiyoti, moliyaviy nazorat tadbirlarini rejalashtirish bosqichlari, moliyaviy nazorat usullari.

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy nazorat tizimi faoliyatining yuqori samaradorligini hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash muhimdir.

Respublikamizda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida samarali moliyaviy nazoratni shakllantirish davr talabidir, moliyaviy nazoratni takomillashtirish esa uning asosi hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev quyidagilarni ta’kidlaydi: “Albatta, Davlat budjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqatdir”[1].

Shundan kelib chiqib, Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan bo‘linmalarda moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilishida amaliy jihatlarni hisobga olib tahlil qilish zarur.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy nazoratga metodologik yondashuvlar sohasidagi nazariy tadqiqotlarni tahlil qilishda iqtisodchi olimlarning qarashlarini o‘rganish va bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan yaqindan tanishish lozim.

L.A.Maysigovaning fikriga ko‘ra nazorat doktrinasi amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan yagona tamoyillarni o‘z ichiga olishi, tafovutlar va ikki tomonlama talqinlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak va uning asosida yagona uslubiyotni ishlab chiqish va rivojlantirish zarur. Aks holda, ilmiy munozaralar hech qachon nazariy doiradan tashqariga chiqmaydi va amaliy muammolarni hal qilish uchun foydasiz bo‘lib qoladi [2]. Bu bilan muallif nazorat tizimini ishlab chiqish va boshqarishda tizimli yondashuvni taklif qiladi.

A.V.Grigorev va A.G.Samsonovlarning fikriga ko‘ra nazorat tartib-qoidalarining muayyan vazifalarini hal qiluvchi moliyaviy nazorat usullari, shuningdek, texnik usullar majmui moliyaviy nazorat uslubiyotini tashkil etadi. Bundan tashqari, nazorat obyekti uchun belgilangan ko‘plab baholash mezonlari moliyaviy nazorat usulining bir qismi hisoblanadi [3].

T.A.Pashkova nazorat organlari tomonidan moliyaviy nazoratning turli usullarini amalga oshirish uslubiyoti tashqi moliyaviy nazoratning tegishli standartlarida mustahkamlangan bo‘lishi lozimligini, hamda, standartlar mamlakat budjeti tizimining barcha darajalarida nazorat vakolatlarini amalga oshirish xususiyatlarini ajratib turadigan darajada farqlanishi kerak ekanligini ta’kidlaydi [4]. Uning fikrida boshqaruvning turli darajalarida moliyaviy operatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan tashqi moliyaviy nazorat standartlarini ishlab chiqish va qo‘llash muhimligi ta’kidlangan. Bu moliya ustidan samaraliroq nazoratni amalga oshirishga yordam beradi va moliya sektorida shaffoflik va risklarni boshqarishni, hamda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

D.Shaymardonovaning fikricha budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar sarfini nazorat qilish, ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi.

Budjet tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobi uslubiyotini yanada takomillashtirishni talab etadi [5]. Uning fikridan budjet tashkilotlarining hisob yuritish tahliliy bir nechta xarajatlar smetalari asosida topshiriladigan hisobotlari, moliyalashtirish manbalari ko‘p tarmoqliligidan kelib chiqib, budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatini tashkil etishning ahamiyati yanada yuqoriligini ko‘rish mumkin.

S.U.Mexmonov, mamlakatimizda budjet tizimi budjetlari ijrosi moliyaviy nazoratida ichki audit faoliyatni o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyati xizmati uchun alohida Ichki audit standartlari qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ichki audit faoliyati audit standartlari asosida tashkil qilinishi audit o‘rganishlarini rejalashtirishga, nazorat va tekshirish turiga, nazorat qilish uchun kerakli ma’lumotlarni to‘plashga, tizimlashtirishga yagona yondashuv ta’minlanadi hamda ichki audit faoliyati samaradorligini baholash imkoniyat yaratiladi deb ta’kidlagan [6].

Moliyaviy nazorat uslubiyotini o‘rganish samarali moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan moliyaviy nazorat uslubiyotini yanada chuqur tadqiq qilish va takomillashtirish moliyaviy boshqaruv sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tahlil qilishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi hamda mavzuni yoritishda tahlil, taqqoslash, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish kabi tadqiqot usullari hamda umumiy iqtisodiy usullar: tasniflash, guruhlash va boshqalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy jamiyatda nazorat aniq iqtisodiy muammolarni hal qilishda tartibga soluvchi sifatida tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, hozirda moliyaviy nazorat samaradorligi qoniqarli darajada emas. Bunday holatning sabablaridan biri nazorat faoliyatini amalga oshirish uchun yagona qonunchilik va uslubiy asoslarning to‘liq emasligi hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazorat xizmati Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan 2020-yilning 20-aprelida 88-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nazorat-taftish boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” buyrug‘iga muvofiq o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda. Nizom moliyaviy nazorat xizmatining maqomi, vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, Milliy gvardiya Qo‘mondonining 2022-yil 18-yanvardagi 18-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish haqida”gi buyrug‘i qabul qilingan va ushbu buyruq bilan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan taftish va tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha Qo‘llanma” hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari rahbarlari va ichki tekshiruv komissiyasi tomonidan kassadagi pul mablag‘lari qoldiqlarini tekshirish bo‘yicha Uslubiy ko‘rsatma” tasdiqlangan. Qo‘llanma va Uslubiy ko‘rsatma Milliy gvardiya bo‘linmalarida moliya-xo‘jalik faoliyatni taftish va tekshirishning asosiy usul hamda shakllarini belgilab beradi.

Shundan kelib chiqib, biz Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan bo‘linmalarda moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilishi borasida amaliy jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qilishni lozim topdik.

Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati markaziy devonning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va bevosita Milliy gvardiya Qo‘mondoniga bo‘ysunadi. Moliyaviy nazorat xizmatiga Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi. Moliyaviy nazorat xizmati harbiy xizmatchilari, xodimlari va xizmatchilari boshliq taklifiga binoan Milliy gvardiya qo‘mondoni tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Moliyaviy nazorat xizmati o‘z faoliyatini Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan tasdiqlanadigan yillik nazorat tadbirlari Dasturi asosida amalga oshiradi. Milliy gvardiya bo‘linmalarining moliya-xo‘jalik faoliyatini Dasturdan tashqari nazorat tadbirlarini o‘tkazish Milliy gvardiya Qo‘mondonining va moliyaviy nazorat xizmati boshlig‘ining qaroriga asosan amalga oshiriladi [7].


Milliy gvardiya bo‘linmalarida moliyaviy

ISSN 3030-3230

nazorat xizmati tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha har chorakda Milliy gvardiya Qo‘mondoniga axborot-tahliliy ma’lumotlar taqdim etiladi. Ushbu ma’lumotlar natijalari asosida barcha bo‘linmalar ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, bo‘linmalarda o‘tkazilishi lozim bo‘lgan nazorat tadbirlarining umumiy yillik rejasi tahlili shakllantiriladi.

O‘tkaziladigan nazorat tadbirlarini rejalashtirishdan oldin nazorat obyektining xarakteri, davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar miqdori, moliya-xo‘jalik faoliyati hajmi, bo‘linmalarni jangovar shayligini ta’minlashning umumiy moliyaviy tizimidagi roli, o‘rni, taftish davri, ichki nazorat tashkil qilinishi, tekshirish o‘tkazilgunga qadar aniqlangan moliyaviy huquqbuzarliklar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘riladi. Shundan so‘ng bajariladigan tadbirlar ketma-ketligini aniqlash uchun dastur tuziladi hamda bo‘linmada o‘tkaziladigan nazorat tadbirining tashkil etilishi va o‘tkazilishi jarayoni amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat xizmati tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish quyidagi 6 bosqichdan iborat (1-rasm).



1-rasm. Nazorat tadbirlarini rejalashtirish bosqichlari

Olti qismga ajratilgan nazorat tadbirlari Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan Milliy gvardiya bo‘linmalarida o‘tkaziladi. Bu bosqichlarni boshqa tekshiruv o‘tkazishdan farqli jihatlari shundan iboratki, xulosa qismida aniqlangan moliyaviy huquqbuzarliklar, boshqa xato-kamchiliklar yoritiladi, ayrim hollarda alohida taklif va tavsiyalar beriladi. Ularni kengroq yoritamiz:

tashkiliy bosqich – nazorat obyektiga tegishli boshqa boshqaruv organlariga so‘rovlar yuborish orqali moliyaviy nazorat xizmatida mavjud bo‘lgan nazorat obyekti to‘g‘risidagi, shuningdek tashqi manbalardan zarur hujjatlar va ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishdan iborat;

dastlabki o‘rganish va tekshirish bosqichi – moliyaviy nazorat xizmatida shakllantirilgan nazorat obyektiga oid hujjat va ma’lumotlarni (kirim-chiqim, qaytarilgan pul mablag‘lari va qat’iy hisobot blanklari, so‘nggi taftish o‘tkazilgan yil boshidan navbatdagi taftish boshlangunga qadar davrda yil boshidan bo‘lgan davrda olingan moddiy vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar), shuningdek nazorat obyektidan va unga tegishli bo‘lgan boshqaruv organlaridan so‘rov orqali olingan qo‘shimcha ma’lumotlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilishdan iborat;

nazorat obyektida o‘rganish va tekshirish bosqichi – ushbu bosqichda moliyaviy va boshqa operatsiyalarni aks ettiruvchi haqiqiy hujjatlarni o‘rganish natijalari bo‘yicha bevosita natijalar shakllantiriladi;

nazorat tadbirlari natijalarini shakllantirish bosqichi – nazorat tadbirlarining barcha natijalarini tekshiruvning jamlovchi dalolatnoma shaklida umumlashtirish va tizimlashtirish hamda nazorat obyekti rahbariyatida jamlovchi va ayrim oraliq dalolatnomalariga e’tirozlar uchun taqdim qilish (agar mavjud bo‘lsa);

yakuniy bosqich – nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish va kelgusida ularga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish orqali choralar ko‘rish, ular asosida tekshirilgan nazorat obyektlari rahbarlariga moliyaviy nazorat xizmati taqdimnomalarini tayyorlash va yuborishdan iborat. Jinoyat alomatlari mavjud bo‘lgan ayrim materiallar belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga chora ko‘rish uchun yuboriladi.

Monitoring va ijro nazorati bosqichi – tekshirilgan nazorat obyektlaridan moliyaviy nazorat xizmati taqdimnomalarini bajarilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari materiallari bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida tizimli ravishda ma’lumot olib borishdan iborat. Ushbu bosqichda moliyaviy nazorat xizmati taqdimnomasini bajarishdan bo‘yin tovlagan yoki o‘z vaqtida bajarmagan mansabdor shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Nazorat tadbirlarining xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, moliyaviy nazorat xizmati rahbari bilan kelishilgan holda tashkiliy bosqich, dastlabki o‘rganish va

tekshiruv bosqichi hamda nazorat obyektida o‘rganish va tekshirish bosqichlari bir vaqtning o‘zida birlashtirilishi va bajarilishi mumkin.

Shuningdek ijro nazoratida taklif va tavsiyalar ijrosi o‘rganiladi. Buning natijasida taklif va tavsiyalarning bo‘linma uchun keltirgan foydali tomonlari bilan birga, mavjud muammolari, boshqa xato-kamchiliklari bartaraf etiladi. Bo‘linmaning ichki nazorat tizimi va mas’ul shaxslarning mas’uliyati hamda javobgarligi ham ushbu oxirgi bosqichda ko‘rinadi.

Taftish va tekshiruvni rejalashtirish, avvalo, nazorat tadbirlari dasturi, rejani puxta tuzishdan boshlanadi. Milliy gvardiya Qo‘mondonining 2022-yil 18-yanvardagi 18-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish haqida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan taftish va tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha Qo‘llanma”sida Milliy gvardiya bo‘linmalarida moliya-xo‘jalik faoliyatni hujjatli taftish (tekshiruv) o‘tkazishning namunaviy dasturlari va rejasi belgilab qo‘yilgan.

Ushbu namunaviy dasturlar va rejalar asosida o‘tkaziladigan moliyaviy nazoratni rejalashtirish jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Har bir bo‘linmada moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini boshlashdan oldin dastur, reja tuzadi. Taftishni rejalashtirish risklarni baholashni o‘z ichiga oluvchi va taftish qilish jarayoni mohiyati, o‘tkazish muddati hamda hajmini belgilab beruvchi taftish rejasini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, moliyaviy nazorat xizmati taftishchilari nazorat obyektida kasb etikasi prinsiplariga rioya qilishlari, har tomonlama asoslangan takliflar kiritishlari, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishga sidqidildan va vijdonan yondashishlari, ishga professional munosabatda bo‘lishlari kerak. Taftishchi o‘z faoliyatida umume’tirof etilgan axloq normalari va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish hamda unga yuklatilgan vazifalarni bajarishda xolislik va nazorat obyektidan mustaqil bo‘lishi zarur.

Taftish mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, mavjud taftishchilar bilimi va tajribasi xususiyati hamda ularni malakasini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, moliyaviy nazorat xizmatining eng samarali tarkibi tayinlanadi.

Agar, bir nafardan ortiq taftishchi jalb qilinsa, taftish guruhi maqsadlari, qo‘llanilish doirasi va tekshiruv hajmi, taftish o‘tkazish uslubiyoti, ko‘lami hamda taftish ichki nazorat tizimini baholashning boshqa turlarini muhokama qilish uchun rejalashtirilgan yig‘ilish o‘tkazadi.

Moliyaviy nazorat xizmati taftish o‘tkazish rejasida, taftish o‘tkazilish davomidagi bo‘linmaning tegishli huquqi va majburiyatlari, taftish jarayoni haqida umumiy qisqacha ma’lumot va taftishning asosiy bosqichlarida vaqt muddatlari keltirilgan bo‘ladi.

Fikrimizcha, taftish va tekshiruvni rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilishi kerak, ya’ni taftish muhim sohalarni qamrab olganligi, risklarning aniqlanishi, baholanishi va o‘z vaqtida hisobga olinishi hamda samaradorligi va natijadorligini ta’minlovchi tekshiruv samarali to‘g‘ri tashkil etilganligi va boshqarilishi, shuningdek, taftishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, tekshiruv faoliyatini boshqarilishi va nazorat qilinishi.

“Har bir auditorlik tekshiruvi, jumladan tekshiruvning maqsadlari, hajmi, bajarilish muddati va resurs taqsimlanishi kerak. Rejada tashkilotning strategiyalari, maqsadlari va tekshiruvga bog‘liq risklari ko‘rib chiqilishi kerak [8].

Fikrimizcha, Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan kelgusi yil uchun nazorat tadbirlari Dasturini shakllantirishda nazorat obyektlarini nazorat tadbirlari Dasturiga kiritish uchun quyidagi tanlash mezonlariga ahamiyat beriladi:

ko‘lami bo‘yicha – bajaradigan vazifalar xarakteri, moliya-xo‘jalik faoliyati hajmi, xarajatlar tuzilmasi;

tizimliligi bo‘yicha – o‘tgan taftish davrida moliya-xo‘jalik faoliyatining ijobiy yoki salbiy holati.

Nazorat obyektining xarakteri va uning moliya-xo‘jalik faoliyati hajmidan, uning bo‘linmalarni jangovar shayligini ta’minlashning umumiy moliyaviy tizimidagi roli va o‘rni, hamda xarajatlar tuzilmasidan, bajariladigan vazifalar xarakteri va taftish davridan kelib chiqib har bir aniq holatda taftishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish uchun amaliy faoliyatga, taftish materiallarini rasmiylashtirish va amalga oshirishga sarflanadigan aniq muddatni nazarda tutish zarur.

Taftish va tekshirishlarni o‘tkazishda muddatni qisqartirish ishdagi shoshma-shosharlikka, moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda jiddiy kamchiliklarga va oqibatda taftish va tekshirishlarni yuzaki o‘tkazilishiga olib

ISSN 3030-3230

keladi. “Yakuniy nazorat tarzidagi moliyaviy nazoratni amalga oshirish muddati o‘ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim. Zarur hollarda muddati moliyaviy nazoratni tayinlagan organning rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan uzaytirilishi mumkin” [9].

Moliyaviy nazorat xizmati tasdiqlangan yillik nazorat tadbirlari Dasturiga kiritilgan nazorat obyektlaridan tashqari Milliy gvardiya Qo‘mondonining qaroriga muvofiq alohida tekshiruvlarni o‘tkazishi mumkin. Bundan tashqari bo‘linmalarda kamomad, talon-tarojlik, o‘g‘irlik, noqonuniy o‘zlashtirish holatlari aniqlansa Dasturdan tashqari taftish va tekshiruvlar o‘tkazilishiga ruxsat beriladi.

Milliy gvardiya bo‘linmalaridan har bir bo‘linmaning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib rejalashtirish amalga oshiriladi. Chunki, bo‘linma faoliyati, risklar tahlili, ichki nazorat tizimini baholash va hajmi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Taftish vazifalari taftishning maqsadini izohlaydi. Taftishning asosiy vazifasi:

budjet mablag‘laridan foydalanish va budjet hisobini yuritilishi, budjet qonunchiligiga rioya etilishini;

aniqlanayotgan moliyaviy huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilishi, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzilishi, tasdiqlanishi, ijro etilishi tartibi va budjet qonunchiligi buzilishi holatlarini chuqur tahlil qilishi va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqilishini;

moliya qo‘shin xo‘jaligini tashkil etish va yuritish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini, harbiy xizmatchilarning pul ta’minoti, ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqa, kompensatsiya hamda ularga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri tayinlanishini;

autsorsing xizmati faoliyatini, shartnoma majburiyatlarini va pullik iste’molchilar bilan hisob-kitoblarning bajarilishini, moddiy boyliklarning to‘liq kirim qilinishini va harbiy-texnik vositalarning saqlanishini, ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash mumkin.

Rejalashtirishda risklar tahlili va ularni baholash tadbirlari amalga oshiriladi. Risklar tahlili asosan oldingi o‘tkazilgan tekshiruv, risk darajalari, bo‘linma uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘lar miqdori, moliyaviy operatsiyalarning hajmiga bog‘liq holda baholanadi.

Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmatining nazorat tadbirlari Dasturi nazorat obyekti faoliyati yuzasidan dastlabki o‘tkazilgan monitoring, profilaktika va masofaviy nazorat tadbirlari, moliyaviy hisob va hisobotlar, statistik ma’lumotlar va boshqa materiallarni o‘rganish natijalari asosida ishlab chiqiladi hamda Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan tasdiqlanadi. Bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish o‘tkazishning namunaviy dasturi ishlab chiqiladi.

Taftish dasturida maqsadlar aniq va ravshan ifodalangan bo‘lib, taftish natijalariga ko‘ra ularga erishilganlik to‘g‘risida tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradigan bo‘lishi kerak. Taftish maqsadidan kelib chiqib tekshiruv masalalari aniqlanadi va ular nazorat obyektida taftishchilar bajarishlari lozim bo‘lgan nazorat tadbiri mazmuni va hajmi bilan belgilanadi. Nazorat tadbiri to‘g‘ri taqsimlanishini tasdiqlash uchun taftish hajmini e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taftishga doir ma’lumotlarni yig‘ish. Bu bosqich bo‘linma faoliyati to‘g‘risida barcha moliyaviy va boshqa ma’lumotlardan iborat. Taftish guruhi (taftishchi) nazorat obyekti to‘g‘risida zarur bo‘lgan hujjat va ma’lumotlarni quyidagi manbalardan olib shakllantiradi:

normativ-huquqiy hujjatlar, statistik va hisobot ma’lumotlar;

oldingi o‘tkazilgan taftish (tekshiruv)larning dalolatnomalari, xulosa va boshqa materiallari;

nazorat obyektidan va unga aloqador bo‘lgan boshqa boshqaruv organlaridan qo‘shimcha so‘rov orqali olingan ma’lumotlar.

Nazorat obyekti faoliyatiga nisbatan hujjat va ma’lumotlar bazasi shakllantirib borish mobaynida, uni o‘rganish va natijalarini tizimlashtirish amalga oshiriladi.

Nazorat obyektida ma’lumotlar yig‘ish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

mas’ul shaxslar bilan dastlabki yig‘ilishni o‘tkazish;

moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish o‘tkazish dasturini ishlab chiqilishini yakunlash va tegishli taftish hujjatlarini tayyorlash;

ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash, dastlabki natijalar, taklif va tavsiyalarni qayd qilish, so‘nggi yig‘ilishni o‘tkazish.

Dastlabki yig‘ilishda mas’ul shaxslarga barcha vazifalar va ularning bajarish ketma-ketligi belgilanadi. Bu bosqich asosan dalillarni yig‘ishdan iborat. Bu haqida ichki audit xalqaro standartlarining - 2310 - “Ma’lumotlarni aniqlash” bo‘limida: “Ichki auditorlar berilgan

vazifaning maqsadlariga erishish uchun yetarli, ishonchli, tegishli hamda foydali bo‘lgan ma’lumotni aniqlashi kerak”.

Taftish dalillari jismoniy dalillar, hujjat dalillari, guvohlik beruvchi dalillar, tahliliy dalillardan iborat. Tahliliy dalillar quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan munosabatlarga e’tibor qaratadigan tahliliy tekshirish usulini qo‘llashni ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy nazorat xizmati quyidagi umumiy qoidalar asosida taftish ma’lumotlari ishonchliligini baholaydi:

taftishchi tomonidan bevosita olingan taftish dalillari bilvosita taftish dalillariga ko‘ra ishonchliroq hisoblanadi;

hujjat shaklidagi, ya’ni qog‘oz, elektron yoki boshqa axborot tashish vositalari yordamida taqdim etilgan taftish dalillari og‘zaki ravishda olingan dalillarga qaraganda ishonchlidir;

asl hujjatlar yordamida taqdim etilgan taftish dalillari nusxa yoki suratga olingan hujjatlardan ishonchlidir.

Bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatiga oid ma’lumot va hujjatlarni talab qilish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar quyidagicha bo‘lishi zarur:

bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyati tahlili, barcha moliyaviy operatsiyalari, shaxsiy tarkibi, oxirgi 3 yildagi asosiy ko‘rsatkichlarining tahlili;

bo‘linma mas’ul shaxslari bilan moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan o‘quv- amaliy uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazish, shuningdek, moliya-xo‘jalik faoliyatidagi muammoli masalalarning tub negizini bilish uchun oldingi o‘tkazilgan taftishlar natijalari bilan tanishish.

Bo‘linmaning moliya-xo‘jalik faoliyati o‘rganilib, taqdim qilingan so‘rovnomalar to‘ldirilib, taftish (tekshiruv) o‘tkazish bo‘yicha reja va dasturlar tuzilgandan so‘ng asosiy bosqichga, ya’ni taftishni tashkil etish hamda o‘tkazish jarayoniga o‘tamiz.

Taftish va tekshiruvni tashkil etish va o‘tkazish. Bu tasdiqlash bosqichi bo‘lib, taftish usullarini qo‘llash hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



2-rasm. Tahliliy tekshirish usullari

Bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish va o‘rganish uchun ma’lumotlar zarur. Bo‘linmaning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish uchun yuqoridagi hujjatlar zarur hisoblanadi, shuningdek,xizmat zaruriyati sababli boshqa ma’lumotlar so‘ralishi mumkin.

Ichki nazoratni baholash keyingi bosqich hisoblanib, undan maqsad taftish dalolatnomasiga kiritilishi mumkin bo‘lgan har qanday moliyaviy buzilishlarni, xato-kamchiliklarni aniqlash, nazorat riskini kamaytirishni belgilab olishdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘rganish masalalariga e’tibor qaratamiz. Ushbu ma’lumotlar orqali bo‘linmaning moliya-xo‘jalik faoliyatini, shartnomalarini, bo‘lim va xizmatlar faoliyatiga tegishli hujjat va ma’lumotlarni o‘rganamiz.

barcha bajarilgan tadbirlarni belgilangan tartibda amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish uchun yakunlangan taftish dasturi va boshqa tegishli hujjatlarni o‘rganib chiqish;

dastlabki natijalar, taklif va tavsiyalarni ko‘rib chiqish, zarur hollarda yangilash, shundan so‘ng tadbirlar jarayonining xususiyati va hajmini aniqlash.

Taftishni o‘tkazish uchun bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyati tahlil qilinadi degan xulosaga keldik:

- moliya-xo‘jalik faoliyatga oid barcha ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish va taqqoslash;
- joriy davrdagi ma’lumotlarni prognoz natijalar bilan taqqoslash;
- axborotning turli elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish;

ISSN 3030-3230

- boshqa bo‘linmalarning ko‘rsatkichlari bilan ma’lumotlarni taqqoslash.


Bo‘linma faoliyatiga oid barcha ma’lumotlar moliyaviy va moliyaga tegishli bo‘lmagan bo‘lishi mumkin. Usul va amallar moliyaviy va moliyaga oid bo‘lmagan ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tahlil qilish orqali ma’lumotlarni baholanishi va taqqoslanishidan tashkil topadi. Tahliliy usul va amallar, shuningdek, boshqa tegishli ma’lumotlarga zid bo‘lgan yoki kutilgan ko‘rsatkichlardan ancha farq qilgan, aniqlangan o‘zgarishlar yoki munosabatlarni o‘rganish kabi zarur izlanishlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, moliyalashtirilgan va amaldagi xarajatlar (hisobot davri va o‘tgan hisobot davr uchun budjet xarajatlari) taqqoslanishi kerak hamda aniq izoh olish uchun zarur o‘zgarishlar ustida izlanish olib boriladi.

Bo‘linmalarda ichki nazorat tizimi moliyaviy nazorat xizmati taklif va tavsiyalariga ko‘ra tashkil qilingan bo‘lib, samaradorligi yuqori bo‘lsa, u holda turli risklarni maqbul darajagacha kamaytirishga yoki batamom oldini olishga imkon berishi mumkin. Agar ichki nazorat tizimiga yetarlicha ahamiyat berilmay samarasiz tashkil qilingan bo‘lsa, u holda moliyaviy nazorat xizmati o‘z zimmasiga ko‘proq vazifalarni yuklaydi va ish faoliyatini yanada jadallashtiradi.

Moliyaviy nazorat xizmati ba’zan mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlarni tekshirmasdan, taftishning tanlov usulidan foydalanib ishonchli xulosa chiqarishi mumkin. Namuna olishning statistik va statistik bo‘lmagan usullarini ko‘rib chiqamiz (3-rasm). Statistik namuna olishning asosiy usullari tasodifiy va tizimli tanlov hisoblanadi.

Tanlab olish usulida tekshirish aksariyat hollarda asosli test sifatida qo‘llaniladi va hisob-kitob qaydlarining to‘g‘riligi haqida taftish dalillarini taqdim qiladi. Biroq, bu uzoq muddatni talab qiladigan jarayondir. Tanlov hajmini hisoblashda ham alohida yondoshuv talab qilinadi.

Taftish maqsadi bu hisob-kitob qaydnomasining to‘g‘riligi haqida aniq dalillarni olish hisoblanadi. Dalil arifmetik to‘g‘riligiga tekshirilgan, tekshiruvchi tomonidan imzolangan va tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlardir. Kuzatuv davrida masalan, 100 ta hisob-faktura mavjud bo‘lib, ularning barchasi bir xil miqdor uchun chiqarilgan. Ma’lumotlarning asosli qaydlari hisob-fakturalar bilan solishtiriladi va har bir hisob-faktura vakolati va kalkulyatsiyasi tekshiriladi. Tanlov kalkulyatsiyasi bo‘yicha 30 ta hisob-faktura tekshirilishi kerak. Biroq, tekshirish va vakolatlash jarayoni nazorat hisoblanib, bu hisob-kitob qaydlarining muvofiqligini tekshirish o‘rniga nazoratning to‘g‘ri faoliyat yuritganini tekshirish imkoniyatini berishi mumkin. Bu jarayon kamroq tanlab olishni talab etadi, ehtimol 50 tadan ortiq bo‘lmagan namuna talab qilishi mumkin.



3-rasm. Tanlov uchun elementlarni tanlash usullari

Xulosa, hisobot, taklif va tavsiyalarni shakllantirish. Hujjatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsipi shundan iboratki, guruhning kam tajribali a’zolari tomonidan amalga oshirilgan taftish ishi guruhning tajribali a’zolari tomonidan ko‘rib chiqilishi zarur.

Hisobotni tuzish quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

taftish hisoboti loyihasini tayyorlash va taqdim etish;

boshqaruv organdan yozma javoblarini so‘rab olish, ularning javoblarini o‘z ichiga olgan yakuniy taftish hisobotini tayyorlash va taqdim etish.

Taftish guruhi rahbari umumiy javobgar shaxs bo‘lib, bajarilgan ishlarning sifati, hujjatlar va natijalar uchun mas’ul hisoblanadi.

Taftishni rasmiylashtirish bu, amalga oshirilgan taftish jarayonlari, olingan dalillar, natijalar va xulosalar haqidagi hisobot. Moliyaviy nazorat xizmati ish hujjatlari degan atamani ishlatadi.

Ishchi hujjatlar taftishning barcha bosqichlarini, ya’ni rejalashtirishdan to taftish natijalari bo‘yicha hisobot berishga qadar jarayonni o‘z ichiga oladi. Uchinchi tomon foydalanuvchisi taftish davomida bajarilgan amallarni mustaqil ravishda takrorlashi uchun hujjatlar yetarli darajada batafsil yoritilishi lozim. Ma’lumotni rasmiylashtirish taftish xulosalari va natijalarini asoslash, taftish maqsadlariga erishilganligini rasmiylashtirilgan tarzda tasdiqlash, bajarilgan ishlarning qonuniyligi va to‘liqligini tasdiqlash, taftishning sifatini nazorat qilish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash uchun zarurdir. Olingan ma’lumotlarga rioya qilmaslik, suiste’mol qilish, firibgarlik va korrupsiya risklari to‘g‘risida ma’lumot yozib olinishi va rasmiylashtirilishi kerak. Bunday ma’lumotlardan keyingi tekshirishlarni boshlashda yoki boshqa obyektlarni tekshirish paytida foydalanish mumkin. Barcha hujjatlar (shu jumladan maxfiy hujjatlar) belgilangan tartibda saqlanishi, qabul qilinishi lozim.

Taftishchilar tekshirish natijalari, taklif va tavsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishdan tashqari, taftish hisobotlarini taqdim etish jarayoni nazorat obyektining rasmiy javobini olish, kelishilgan harakatlar va muddatlarni qayd etish imkonini beradi va obyekt tomonidan takomillashtirish ishlarini amalga oshirish uchun moliyaviy nazorat xizmati tomonidan monitoring qilish uchun asos yaratadi.

Bu jarayonlar yakunlanganidan keyin hisobot yoziladi va taftish natijalari bo‘linmaning rahbariga yetkaziladi.

Shuningdek, taftish xulosasi taftish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yaxshilash, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, rejalashtirish tegishli tuzatishlarni kiritish bo‘yicha amaliy yordam berishi lozim. Moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi ham yordam berish hisoblanadi. Shu bilan birga bo‘linmalarda oldingi o‘tkazilgan tekshiruv natijalari bilan solishtirilib, o‘zgarishlarni baholashi lozim.

Moliyaviy nazorat xizmatining batafsil ma’lumoti, xulosasi, quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

mezonlar – normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki audit xizmatining ilg‘or tajribalari bo‘yicha ekspert xulosasi;

shartlar – moliyaviy nazorat xizmati tomonidan olingan taftish dalillari;

risk – belgilangan mezonlar va shartlar o‘rtasidagi nomutanosiblik, nomuvofiqlik va noaniqlik bilan bog‘liq bo‘lgan risklar [10].

Bundan tashqari xulosada taklif va tavsiyalar ko‘rsatilishi kerak. Taklif va tavsiyalar bo‘linmaning aniqlangan salbiy holatlarini bartaraf etish maqsadidagi harakatini belgilab beradi. Taklif va tavsiyalar bo‘linma faoliyatini ijobiy tomonga o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, undagi xato-kamchiliklarni bartaraf etish hamda oldini olish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy nazorat xizmati taftish natijalari va yakuni bo‘yicha umumiy ma’lumotlarni Milliy gvardiya Qo‘mondoniga belgilangan tartibda taqdim etadi. Taftish natijalari nazorat-taftish ishlari bazasiga kiritiladi.

Taftish natijalari va yakuni bo‘yicha Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan qonuniy qaror qabul qilinishi zarur. Shundan so‘ng, taftishda aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf etish uchun bo‘linma rahbariga Moliyaviy nazorat xizmati taqdimnoma yuboradi.

Taftish natijalari yakuniy hisobotda, dalolatnomada, ma’lumotnomada ko‘rsatilgan xato-kamchiliklar, takliflar va tavsiyalarning ijro etilishiga bo‘linmaning rahbari mas’ul hisoblanadi.

Ijro nazorati. Ijro nazorati quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

bo‘linma rahbariyati tomonidan chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish va tekshirish;

zaruriyat sababli tekshiruvni takroran

ISSN 3030-3230

o‘tkazish.

Taklif va tavsiyalarni ijro etilishini monitoring qilish avvalo bartaraf etish tadbirlarining bajarilishini nazorat qilishdan boshlanadi hamda katta mas’uliyat talab etiladi. Takliflarni ijro etishni taqsimlash:


taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

xato-kamchiliklarni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish va tekshirish;

rejaning bajarilishi, bajarilishi to‘g‘risida hisobot taqdim etish;

rejaning to‘liq bajarilganligini tekshirish va rahbariyatga ma’lumot (hisobot) taqdim etish.

Shu bilan birga taftish tomonidan monitoringga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Tekshiruvlarni o‘tkazish manbalari va ustuvor yo‘nalishlari mavjud bo‘lganda, birinchi navbatda, monitoring o‘tkazish muddatlari va hajmi quyidagilarga bog‘liq (4-rasm):



4-rasm. Taftishga ta’sir etuvchi omillar

Moliyaviy nazorat xizmati bo‘linma rahbariyati tomonidan taftishdan so‘ng berilgan taklif va tavsiyalarni ijro etilishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar holatini monitoring qiladi.

Moliyaviy nazorat xizmati berilgan taklif va tavsiyaning ahamiyatiga, hisobotda (dalolatnomada, ma’lumotda) ko‘rsatilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilinadigan chora-tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hisobga olib, ijro nazoratining xususiyati, muddati va hajmini belgilaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytishimiz mumkinki, moliyaviy nazorat uslubiyoti - bu davlat organlari va muassasalari tomonidan davlatning moliyaviy resurslarini to‘g‘ri boshqarish va nazorat qilishni ta’minlash uchun qo‘llaniladigan prinsiplar, usullar, tartiblar va vositalar tizimi. Bu moliyaviy boshqaruvning muhim jihati bo‘lib, davlat moliyaviy operatsiyalarining shaffofligi, samaradorligi va huquqiy ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazoratni amalga oshirish uslubiyotining turli jihatlarini tahlil qilish jarayonida ushbu soha mutaxassislariga moliyaviy nazorat usullarini qo‘llashga yordam beradigan mezonlar aniqlandi.

Maqolada keltirilgan moliyaviy nazorat usullarini tizimlashtirish va tasniflash nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida, balki Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralariga moliyaviy resurslarni yanada samarali boshqarish, risklarni aniqlash va moliyaviy normalar va qoidalarga rioya etilishini ta’minlash imkonini beradi.

Moliyaviy nazorat moliyaviy boshqaruvning asosiy omili bo‘lib, uni samarali qo‘llash moliyaviy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola moliyaviy nazorat sohasida kelgusi tadqiqotlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Аннотация. В статье анализируется методология осуществления финансового контроля в Национальной гвардии Республики Узбекистан и даются рекомендации по совершенствованию методологии финансового контроля при проведении контрольных мероприятий.

Ключевые слова: финансовый контроль, методология финансового контроля, этапы планирования мероприятий финансового контроля, методы финансового контроля.

Annotation. The article analyzes the methodology of implementation of financial control in the National Guard of the Republic of Uzbekistan and gives recommendations on improving the methodology of financial control in conducting control activities.

Key words: financial control, financial control methodology, stages of planning financial control measures, financial control methods.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Qarori. Kirish rejimi: https://lex.uz.
2. Майсигова Л.А. Формирование единой методологии финансового контроля: проблемы и решения // Международный бухгалтерский учет, 2004. – №2. – С. 22-24.
3. Григорьев А.В., Самсонов А.Г. Виды, формы и методы финансового контроля, их систематизация // Журнал прикладных исследований, 2021. – № 5 (6). – С. 412-418.
4. Пашкова Т.А. Внедрение новых методов финансового контроля в деятельность органов внешнего муниципального финансового контроля // Инновационные аспекты развития науки и техники, 2020. – №1. – С. 60-65.
5. Shaymardonova D. “Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari, ular bo‘yicha smetalarni tuzish va ijrosi hisobining xususiyatlari” // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali, 2017. – 2-son. – B. 24-27.
6. Mehmonov S.U. Budjet tashkilotlarida ichki auditning uslubiy ta’minotini takomillashtirish // Xalqaro moliya va hisob, 2018. – 1-son. – B. 1-9.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘mondonining 2022-yil 18-yanvardagi 18-son “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish haqida”gi Buyrug‘i.
8. INTOSAI Financial Audit Guidelines are based on the International Standards on Auditing, 2200 Engagement Planning. Kirish rejimi: https: theiia.org/standards.
9. O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. Kirish rejimi: https://lex.uz.
10. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkiliy uslubiy jihatlari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. T., 2020. – B. 56- 58.

ISSN 3030-3230

“VATAN TAYANCHI” HARAKATI ASOSIDA O‘QUVCHI-YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH ORQALI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYALASH

Yarmatov Akbar Normurotovich,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada bugungi kunda tobora avj olib borayotgan va insoniyat ongi, tafakkuri va intellektini egallashga qaratilgan “axborot xuruji” uning maqsad va muddaolari, salbiy oqibatlari, namoyon bo‘lish shakllari va unga qarshi kurashishning dolzarbligi, ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar, Prezident va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchi yoshlari tarkibidan tuzilgan “Vatan tayanchi” harakati otryad a’zolari tomonidan axborot xurujiga duchor bo‘lmaslik bo‘yicha amaliy taklif va mulohazalar bayon qilingan.**

Kalit so‘zlar: “Vatan tayanchi” harakati, axborot, axborot xurujlari, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi.

Kirish. XX asrning oxiri va asrimiz boshiga kelib hayotimizda “axborot asri”, “axborotlashgan jamiyat”, “axborot xuruji” kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Bu esa bugungi kunda axborot tushunchasining ahamiyati oshganligidan, qamrovi kengayganligidan, maqsad-muddaosi o‘zgarayotganligidan darak beradi. Axborot endi biror jarayon, voqelik yoki hodisa haqida xabar berish ma’nosidan chetga chiqib, insonlar ongi va ruhiga ta’sir etishning, jamiyatda mavjud qonun-qoidalarini va butun dunyo e’tirof etgan umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalarni ma’lum maqsad atrofida birlashgan ayrim guruh va jamoalarning manfaatlariga xizmat qiluvchi o‘ziga xos yangi talqinlarini yuzaga chiqarishning, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ‘ibotchisiga aylanib bormoqdaki, buning natijasida, insoniyat taraqqiyotining ayni pallasida axborotning omma ongiga ta’siri va uning salbiy oqibatlari jamiyatning jiddiy muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Endi axborot atalmish qurol vositasida inson ongiga hujum qilish natijasida uning tafakkuri va intellektini egallash, o‘z auditoriyasini kengaytirish bilan qudratini oshirish orqali ularni qaysidir g‘oya atrofida birlashgan kuchlarning maqsadlariga xizmat qildirish bilan bog‘liq “urush”ning zamonaviy ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichiga kelib, dunyo axborot bozorida munosib o‘rin egallashga erishish uchun moddiy ko‘rinish va shaklga ega bo‘lmagan, faqat aql bilan ko‘rish va tafakkur bilan anglash mumkin bo‘lgan jiddiy kurash avj olmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha, axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millat mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, dini, davlatning informatsion va harbiy tizimiga salbiy ta’sir o‘tkazadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bugun insoniyat g‘oyaviy urushlar, ma’naviy ziddiyatlar, zo‘ravon g‘oyalarning dunyoni qaytataqsimlashga qaratilgan o‘yinlari avj olgan shiddatli zamonda yashayapti. Hozir buzg‘unchilik, axloqsizlik va ma’naviy inqirozlar har qachongidan ham xatarli tus olmoqda. Yoshlarimiz bunday sharoitlarda hamisha hushyor va ogoh bo‘lishi, fitna va g‘arazli maqsadlar, manfaatdor kuchlar turganini bir lahza ham unutmasdan, yoshligidanoq sog‘lom tafakkurni shakllantirish lozim” [1].

Yosh psixologiyasi nuqtai nazaridan olib qaralganda, axborot olishga bo‘lgan ehtiyoj yoshlarda kattalarga nisbatan bir necha marta ortiq. Chunki yoshlarning bilishga nisbatan qiziquvchanligi, axborotga bo‘lgan ehtiyojining hali qondirilmaganligi ularning axborot olish borasidagi faolligiga sabab bo‘ladi. Axborotga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishi ijobiy holat, ammo hech qanday asosga ega bo‘lmagan, bir qarashda beozorgina bo‘lib ko‘ringan, lekin maqsad-muddaosi g‘arazli bo‘lgan axborotlarga yoshlarning aldanib qolayotganligi tashvishlanarlidir. Davlatlarning siyosiy qarashlarini noto‘g‘ri talqin qiluvchi, turli

ekstremistik va terroristik g‘oyalarni, insoniyatga qarshi qurol ko‘tarishga undovchi, o‘z-o‘zini o‘ldirishga chaqiruvchi, narkotik va odam savdosi bilan bog‘liq maqsadlarni ko‘zlovchi, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi barcha axborotlar o‘ziga xos ta’sir etish imkoniyatlariga egaki, bu “aldamchi jilvalanishlar”ga, ko‘p hollarda, aqliy va ma’naviy jihatdan hali to‘la shakllanib ulgurmagan yuqori sinflarda tahsil oluvchi yoshlar “maftun” bo‘lib qolmoqda. Hatto bunday g‘arazli maqsadlar o‘z tabiati bilan ezgulikka xizmat qilishi kerak bo‘lgan san’at asarlari (kino, animatsion filmlar, musiqa, qo‘shiq, raqs va b.) zamiriga ham singdirib yuborilmoqdaki, bu kabi “kosa tagidagi nimkosa”larni anglash uchun insonlardan teran aql -zakovat va hozirda bir qaraganda ko‘rish mumkin bo‘lmagan, ammo real mavjud “axborot xurujlari”ga qarshi immunitet shakllangan bo‘lishi lozim.

Zero, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Barchamizga ayon bo‘lishi kerak: mamlakatimizning kelajagi, o‘zbek millatining, O‘zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday joy olishi bugun yoshlarga berayotgan tarbiyamiz, ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligimizga bog‘liq” [2] .

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 qarori[3] ga binoan “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etilgan. Ushbu harakatga davlat umumta’lim maktablarining 10-11-sinf o‘quvchilari orasidan 20 nafar eng sarasi tanlab olinib, “Vatan tayanchi” otryadlari tashkil etildi.

Ushbu qarorda ““Vatan tayanchi” harakatining asosiy vazifalari etib, o‘quvchilarni turli xavfli g‘oyalar va tashqaridan “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta’sirlardan himoya qilish” ekanligi o‘ta dolzarb vazifa ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Yosh avlodni har taraflama sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalash g‘oyat murakkab va uzoq vaqtni talab qiladigan jarayondir. Farzand tarbiyasi hech qachon bizni kutib turmaydi. Ayniqsa bugungi g‘oya va mafkuralar kurashi avj olgan bir paytda, kelajak avlod tarbiyasi har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasiga beparvolik, loqaydlik kelajakda tuzatib bo‘lmas og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar bu vazifani biz bugundan boshlab, yoshlarimiz qalbi va ongida ezgulik g‘oyalarini, yuksak axloqni, yoshi ulug‘ insonlarga hurmatni shakllantira olsak nafaqat o‘zimiz, balki jamiyatimizning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Prezidentimiz tomonidan yuqoridagi qaror talablaridan kelib chiqib umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar, Prezident va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchi yoshlari tarkibidan tuzilgan “Vatan tayanchi” harakati otryad a’zolari aynan yuqoridagi axborot xuruji va “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlardan himoyalanishda o‘z tengqurlari va kattayu kichik yoshlarni otryadlar atrofida birlashtirish va jipslashtirish, yoshlar orasida harbiy vatanparvarlik, o‘quv tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda asosiy tashkilotchi sifatida faoliyat yuritish, o‘quvchilarni o‘qish va intizom bo‘yicha yuqori natijalarga erishishga ishtiyoqni uyg‘otish hamda o‘rnak bo‘lish uchun faol harakat qilish borasida namuna bo‘la olishi uchun tashkil etildi.

Ona-Vatan deb bilgan zaminni, kindik qoni to‘kilgan tuproqni muqaddas bilib, uni har qanday bosqinchi yovlardan jonini qurbon qilib bo‘lsa ham himoya qilish avvalo insoniylik burchimizdir. Chunki bu burch ortida ajdodlarimiz xoki yotgan zamin, ularning ruhi kezib yurgan yurt va bizni dunyoga keltirgan ota-onalarimiz hayotining osoyishtaligi, tinchligi, farzandlarimiz iqboli, baxt-saodati va farovonligi turibdi.

Inson dunyoga kelishi bilan ko‘z ochib ko‘rgan zaminni vatanim deb biladi, shuning uchun ham shimoliy va janubiy hududlarning juda murakkab iqlimiga qaramay yerli aholi u joylarni dunyoning hech bir jannatmakon joylariga almashmaydi. Chunki bu keng muzliklar va qumliklarda ularning ajdodlarining bosib o‘tgan hayot yo‘llari bor va u ham shu yo‘llar bilan borib o‘z hayotini tashkil etadi va o‘tkazadi. Bu asrlar bo‘yi davom etib kelayotgan qonuniyatdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vatan, vatanparvarlik nima? “Vatan” aslida arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “ona yurt” ma’nosini anglatadi. Shu ma’noda “O‘zbekiston” – o‘zbek xalqining, shu yerda tug‘ilib o‘sgan insonlarning vatanidir. Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga etgan tuproq, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari shakllanib, rivojlanib, kamol topib boradigan zamindir.

Vatan deganda hamisha har birimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta’lim-tarbiya olib voyaga etgan, avlod – ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql-idroki, mehnati bilan

ISSN 3030-3230

to‘kilgan peshona terlari, xoklari abadiy qo‘nim topgan yurt ko‘z oldimizga keladi.

Inson ma’naviy yetukligining muhim belgisi – vatanparvarlik hisoblanadi. Har bir fuqaro o‘zini vatanning, xalqning tarkibiy qismi deb bilib, o‘z burchini yuksak onglilik, fidoyilik bilan ado etgandagina vatanparvarlik e’tiqodi mustaqil mamlakat taraqqiyotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy zaminga aylanadi. Vatanparvarlik tug‘ma, irsiy xususiyat emas, balki muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatda, ta’lim-tarbiya natijasida shakllanadigan va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladigan hodisa. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi mustaqil vatanimizning taraqqiyoti, xavfsizligi, mudofaa quvvati va Qurolli Kuchlarini mustahkamlashda muhim zaruriyatga aylandi.

Buyuk vatandoshimiz, olamga mashhur bo‘lgan mutasavvuf olim Shayx Najmiddin Kubro ham buyuk vatanparvarlik namunasini ko‘rsatdi. U 76 yoshida qo‘liga qurol olib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashdi, jonini tikib eng xatarli holatlarda ham xalqi, vatani uchun kurashdi va jangda mardona halok bo‘ldi. Bunday ibratli misollarni tariximizdan ko‘plab keltirish mumkin.

Vatanni himoya qilish borasidagi an’analar, milliy ozodlik uchun olib borilgan kurashlar, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temurning harbiy taktikasi buyuk tarixiy meros va vatanparvarlikning namunasi sifatida tushunilishi bugungi kunda jamiyatimizning keng ijtimoiy fikriga aylanib bormoqda.

Har birimiz o‘zimizning bilimimiz, kasb-u korimiz va faoliyatimiz bilan mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi, xalqimizning farovonligi uchun harakat qilmog‘imiz, yoshlarimizning turli zararli va yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun o‘z mas’uliyatimizni unutmasligimiz zarur.

Xo‘sh, biz yashab turgan olamda o‘ziga xos “aldamchi jilvalari” bilan o‘ziga rom etuvchi; matn, tovush yoki tasvir ortida bir qarashda anglash mumkin bo‘lmagan, ammo ayrim guruh va jamoalarning g‘arazli maqsadlarini targ‘ib etuvchi pinhona “axborot xurujlari” mavjud ekan, bizning jamiyatimizni bu kabi salbiy ta’sirlardan ihotalash uchun, xususan, bu illatning yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta’sirini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilmoqda va bu choralarning samaradorligini oshirish uchun yana nimalar qilishimiz lozim bo‘ladi?

Avvalo, bu borada shu paytga qadar ko‘rilayotgan choralarni umumlashtiradigan bo‘lsak, bir qancha ishlar amalga oshirilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, davlatimizda axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda, bu borada ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda, xalqimizning, xususan, yoshlarning fikri va qarashlarini o‘zgartirishga, g‘arazli maqsadlarni targ‘ib qilishga qaratilgan internet saytlariga cheklovlar o‘rnatilgan. Ammo, bizningcha, butun dunyoda fikr, ong va intellektni egallashga qaratilgan o‘ziga xos tarzdagi “urush” – “axborot xuruji” va uning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish uchun amalga oshirilayotgan bu chora-tadbirlar yetarli emas. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun yana quyidagi ishlarni taklif qilmoqchimiz:

1) milliy axborot makonimizni aholining va “Vatan tayanchi” otryadlari a’zolari va yoshlarning qiziqishini inobatga olgan holda jarayonlarni obyektiv va pozitiv yorituvchi mahalliy va xorijiy axborotlar bilan muntazam to‘ldirib borish;

2) “Vatan tayanchi” otryadlari a’zolari va yoshlarda milliy g‘ururni uyg‘otishga qaratilgan media mahsulotlar va kontentlar tayyorlash (kompyuter o‘yinlari, mobil ilovalar va boshqalar);

3) xalqimizning, xususan, “Vatan tayanchi” otryadlari a’zolari va yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini o‘stirish, undagi har qanday axborotni tafakkur va tahlil qilib, so‘ng xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz zarur;

4) mamlakatimiz to‘g‘risida noto‘g‘ri, bir taraflama axborot tarqatuvchi har qanday xorijiy axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo‘yish, bu kabi axborotlari uchun ularning javobgarligini oshirish va tarqatilgan axborotlarning bir taraflama yoki noto‘g‘ri ekanligini mutaxassislar ishtirokida xalqimizga va yoshlarga o‘z vaqtida yetkazish;

5) umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar, Prezident va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta’minlash, xususan, axborot xurujlari, uning shakl va ko‘rinishlari, maqsadi va salbiy oqibatlari borasida maxsus kurslar o‘tilishini ta’minlash.

“Vatan tayanchi” otryadlari a’zolari va yoshlarimizni bugungi globallashuv davrida

turli zararli va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilmoqchi, “axborot xurujlari”ning salbiy oqibatlaridan asrab-avaylamoqchi ekanmiz ularda buyuk alloma va mutafakkirlarimizning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosini, yengilmas sarkarda bobolarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, axborot tushunchasi bugungi kunda har doimgidan ham kengroq ma’no va mazmun kasb etib bormoqda.

Bugun biz yashab turgan zamon va makonda bizga bog‘liq bo‘lmagan holda gohida oshkora, aksariyat hollarda pinhona tarzda harakat qiluvchi “axborot xuruji” atalmish qurol yuzaga keldiki, bu qurol vositasida endi inson ongiga egalik qilish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bu salbiy illatdan xalqimizni, xususan, yosh avlodni himoya qilish, ularda “axborot xuruji”ga qarshi immunitetni shakllantirish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Аннотация. В этой статье исследуются тсели и задачи, негативные последствия, формы проявления, актуалност и важност борбы с «информационной атакой,» которая сегодня становится все более популярной и направлена на овладение человеческим сознанием, мышлением и интеллектом. Также изложены практические предложения и соображения по предотвращению информационных атак со стороны членов отряда движения «Ватан таянчи,» состоящего из старшеклассной молодежи общеобразовательных школ, средних спетсиалных, профессионалных, Президентских и спетсиализированных образовательных учреждений.

Ключевые слова: движение «Ватан таянчи,» информация, информационные атаки, воспитание молодежи, информационная безопасност.

Abstract: This article examines the goals and objectives, negative consequences, forms of manifestation, relevance and importance of combating the «information attack,» which is becoming increasingly popular today and is aimed at mastering human consciousness, thinking, and intelligence. Also, practical suggestions and considerations were made to prevent information attacks by members of the «Vatan tayanchi» movement, consisting of high school students of general education schools, secondary specialized, vocational, presidential and specialized educational institutions.

Key words: “Vatan tayanchi” movement, information, information attacks, youth education, information security.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekistan”, 2017.

2. Karimov I.A. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. – Toshkent; “Ma’naviyat”, 2006.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 sonli “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

ISSN 3030-3230

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ 5G В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Вахабов Абдувохид Абдунаби угли,
самостоятельный соискатель

Развертывание сетей пятого поколения 5G - один из ключевых мировых трендов, формирующих глобальное цифровое развитие. В настоящее время 5G играет особо важную роль в секторах телекоммуникаций, транспорта, здравоохранения, промышленности и других, где необходимо высокоскоростное и надёжное соединение.

По данным китайской компании Huawei, в 2024 г. количество пользователей 5G в мире превысило 1,8 млрд. чел. Прогнозируется, что к 2028 г. число пользователей 5G достигнет 50% мирового населения или более 4 млрд. человек. [1]

Согласно исследованиям компании, 5G является наиболее быстрорастущей технологией мобильной связи, которая обеспечивает:

– высокую скорость передачи данных, превосходящую 4G в 10 раз;

– поддержку большого количества устройств, подключённых к сети одновременно, что важно для развития технологий Интернета средств (IoT), ИИ, телемедицины и автономных транспортных средств;

– экономию ресурсов, включая снижение энергопотребления на 20% и уменьшение нагрузки на сети на 30%;

– стимулирование экономического роста на уровне 5-7%;

– развитие «умных городов», улучшающих управление городской инфраструктурой и предоставление цифровых удобств населению.

По данным Всемирной ассоциации GSM (GSMA) объём мирового рынка 5G в 2023 г. достиг $350,6 млрд, а рынок 5G-сервисов $190,3 млрд, что показывает рост в 50% ежегодно. [2]

На сегодня по темпам внедрения 5G лидирует КНР (376 городов страны используют сеть 5G, 50% всего рынка), на 2-м месте находится США (284 города), за которыми следуют Филиппины (98), Южная Корея (85), Италия (65), Германия (58) и Саудовская Аравия (48).[3]

В мире внедрением технологий 5G занимаются более 230 крупных и малых компаний. При этом, более 80% всех выданных патентов на 5G приходится на 10 крупнейших телеком-корпораций.

Согласно данным исследовательских компаний Statista и IPlytics в 2023 г. лидером по патентам 5G являются китайские компании с общей долей 37% (доля Huawei 16% - 1-е место среди всех), на втором месте американские компании – 18,3% (Qualcomm – 11% и др.), далее Китай – 17% (ZTE– 9,8%), Южная Корея – 16,7% (Samsung – 9,7% и др.)? Финляндия – 9% (Nokia) и др.[4]

В Центральной Азии технологии 5G только начинают внедряться, все страны региона активно инвестируют в развитие телекоммуникационной инфраструктуры, с целью обеспечения высокого качества и широкого доступа к связи пятого поколения.

По данным консалтинговой компании Statista объём рынка телекоммуникаций в Центральной Азии в 2023 г. составил около $3,8 млрд. (рост на 11% по сравнению с 2022 г.) По прогнозам, этот рынок будет увеличиваться в среднем на 7% ежегодно до 2028 г.[5]

Внедрение технологий 5G в странах Центральной Азии является одним из важнейших направлений, способствующих устойчивому росту экономики и цифровой трансформации телеком рынка, где мобильная связь играет особую роль.

Узбекистан первым в Центральной Азии начал тестировать соединение последнего поколения 5G. Сегодня сеть пятого поколения покрывает районы Ташкента и Самарканда более чем на 1%. (мобильная связь покрывает 2G - 13%, 3G - 47%, 4G - 40%). В рамках принятых стратегий и программ цифровой трансформации, страна планирует довести к 2030 г. уровень проникновения 5G до 57%. [6]

Активными участниками внедрения технологий 5G в стране являются крупные компании Huawei, Beeline, Uzmobile, Ucell, Perfectum, Nokia, ZTE и др.

В Казахстане технологиями мобильной связи 5G в тестовом режиме покрыто 0,7% территории Астаны и Алматы. В рамках стратегии «Цифровой Казахстан» страна планирует охватить 50% покрытия технологиями 5G к 2030 г.

В 2023 г. по уровню покрытия территории мобильной связью в Казахстане 2G составили 5%, 3G - 33%, 4G - 62%.

В телеком сфере страны сегодня работают такие компании как Beeline, Kcell», Tele2, Ericsson и Huawei.

В Кыргызстане правительством поставлена задача по охвату 38% покрытия 5G к 2030 г., однако практических действий по внедрению технологий 5G в стране не наблюдается.

В 2023 г. по уровню покрытия территории мобильной связью в Кыргызстане варьируется 2G - 13%, 3G -48%, 4G -39%.

На сегодняшний день в Кыргызстане существуют три крупных мобильных оператора: Megacom, O! и Beeline.

В Таджикистане, при содействии китайской компании Huawei в тестовом режиме 0,3% территории Душанбе и Худжанда покрыто технологиями мобильной связи 5G.

К 2030 г. планируется довести данный показатель до 36% (мобильная связь покрывает 2G - 20%, 3G - 44%, 4G - 36%).

Проводимые реформы в Таджикистане также поддерживаются Международной финансовой корпорацией (IFC), которая предоставила компании Tcell кредит в размере $30 млн. для расширения сети и улучшения связи по всей стране, особенно в отдалённых горных районах страны.

Туркменистан имеет наименее развитую мобильную связь в регионе, отчасти из-за сильного госконтроля над большей частью экономической деятельности, включая телекоммуникации, что препятствует привлечению иностранных инвестиций в этот сектор.

Распространение технологий 5G является долгосрочным процессом, при этом на данный момент более 65% телекоммуникаций Туркменистана основаны на поколениях 2G и 3G.

Международный союз электросвязи дал Туркменистану общий балл 6,7 в 2023 г., что является вторым худшим показателем в мире после Джибути (Восток Африки). В стране действует только один оператор «Алтын Асыр». Отсутствие конкуренции негативно сказывается на зонах покрытий, доступности и качестве услуг.

Центральная Азия, как развивающийся регион, имеет значительное конкурентное преимущество в сфере телеком инфраструктуры. Среди его основных активов – стремительно растущее население, представленное главным образом молодёжью – самыми активными потребителями цифровых услуг.

Согласно расчётам Statista, число Интернет-пользователей в регионе к 2028 г. увеличится на 60 млн. чел. (+20%). При этом уровень регионального проникновения вырастет с 70 до 80%.

По мнению экспертов международной компании KPMG экономики региона не одинаковы по демографическому потенциалу. У Узбекистана самое многочисленное население, обеспечивающее почти половину регионального прироста.

На руку стране играет и её сравнительная густонаселённость. Плотность населения в Узбекистане составляет 82 чел./кв. км против 36,6 чел./кв. км в Кыргызстане, 72,3 чел./кв. км в Таджикистане, 12,9 чел./кв. км в Туркменистане и 7,3 чел./кв. км в Казахстане. [7]

Эксперты GSMA отмечают, что ещё одним стимулирующим компонентом роста технологий 5G в Центральной Азии является относительно низкие цены на мобильный Интернет.

Согласно рейтингу «Worldwide mobile data pricing», Кыргызстан занимает 8-е место среди 237 стран. Средняя стоимость 1 Гб мобильного Интернета в настоящее время достигает $0,17 (Узбекистан – 21-е место – $0,3, Казахстан – 35-е– $0,41, Таджикистан – 142-е – $1,65 и Туркменистан – 231-е место – $11,42). [8]

Помимо позитивных аспектов, эксперты выделяют также и отрицательные стороны внедрения технологии 5G, такие как:

1. Безопасность. Увеличение числа подключенных устройств и объёма передаваемых данных в сетях 5G может повысить уязвимость для кибератак. Это требует усиления мер кибербезопасности;

2. Защита данных. С увеличением количества данных, собираемых с помощью

ISSN 3030-3230

технологии 5G, возрастают и вопросы конфиденциальности. Важно обеспечить адекватную защиту личных данных пользователей и регулирование этих процессов;

3. Технологическая зависимость. Зависимость от одной компании, устанавливающей множество базовых станций и технологий 5G, может угрожать стране в будущем, включая утечку информации и влияние на политические решения.

Вместе с тем большинство экспертов считают, что на основе правильного регулирования, внедрения инноваций и мер безопасности можно управлять многими из вышеотмеченных негативных аспектов.

В этой связи, для Узбекистана представляется важным:

– разработка стратегии развития телекоммуникационной сферы до 2030 г., а также определение единого набора правил и стандартов для телекоммуникационной индустрии;

– изучение международного опыта (КНР, Южной Кореи, ЕС и Финляндии) по созданию благоприятных условий для ускоренного привлечения прямых иностранных инвестиций в проекты, предусматривающие внедрение технологий 5G;

– разработка комплексной программы по кибербезопасности и защите данных, а также принятие плана по усовершенствованию системы мониторинга кибератак и угроз в информационном пространстве;

– поддержка и развитие программ, направленных на обучение и подготовку кадров, связанных с телеком отраслью для создания базы высококвалифицированных специалистов на ИТ-рынке;

– сотрудничество со странами центральноазиатского региона по развитию информационно-коммуникационных технологий и консолидации усилий министерств и ведомств государств региона, ответственных за данную сферу.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. MWCS 2024: Huawei представляет решения для коммерческих сетей 5G-A в эпоху мобильного искусственного интеллекта/ URL:https://www.huawei.com/uz/news/2024/6/mwcs-advancing-the-intelligent-world#:~:text=Число%20пользователей%205G%20во%20всем,высокая%20скорость%20и%20малая%20задержка.

2. Отчет аналитического центра Tadviser - Развитие сетей 5G в мире/ URL: https://www.tadviser.ru/index.php//Статья:Развитие_сетей_5G_в_мире.

3. Журнал Бизнес-мир - 5G: какие страны лидируют по вводу связи пятого поколения?/ URL: https://businessmir.kz/2023/01/31/5g-kakie-strany-lidiruyut-po-vvodu-svyazi-pyatogo-pokoleniya/

4. Скуратовский Б. - Топ-10 мировых лидеров по внедрению технологий 5G-связи: кто они?/ URL: https://mediasat.info/ru/2022/12/14/top-10-kompanij-liderov-po-vnedreniyu-5g-svyazi/

5. Поляков С. - Что делает Узбекистан одним из самых перспективных телеком-рынков на постсоветском пространстве/ URL: https://uz.kursiv.media/2023-03-30/chto-delaet-uzbekistan-odnim-iz-samyh-perspektivnyh-telekom-rynkov-na-postsovetskom-prostranstve/

6. Кенечи Окелеке, Саяли Бороле – Преодоление цифрового разрыва в Центральной Азии и на Южном Кавказе/ URL:https://www.gsma.com/solutions-and-impact/connectivity-for-good/mobile-economy/wp-content/uploads/2023/06/ Clo sing-the-Digital-Divide-in-Central-Asia-and-the-South-Caucasus-2023-russian.pdf

7. Абдрахманова Г. - Особенности рождаемости в Центральной Азии/ URL: https://www.inform.kz/ru/naselenie-tsentralnoy-azii-rastet-kak-reshit-problemi-demograficheskih-perekosov-144458

8. Worldwide mobile data pricing - Рейтинг стран по стоимости мобильного Интернета/ URL: https://nonews.co/directory/lists/countries/average-price-mobile-internet

ZAMONAVIY YENGIL ZIRHLANGAN AVTOMOBILLAR BO‘YICHA HARBIY HAYDOVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharipov Doston Hasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida mavjud yengil zirhlangan avtomobillarning mo‘ljallanishi va texnik imkoniyatlari haqida bo‘lib, rivojlangan davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya)da foydalanilayotgan harbiy texnikalar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: harbiy haydovchi, kasbiy tayyorgarlik, yengil zirhlangan avtomobil, mo‘ljallanishi, texnik tavsifi.

So‘nggi yillarda o‘zgargan geosiyosiy vaziyat, sayyoramizning turli mintaqalarida mahalliy harbiy to‘qnashuvlarning tez-tez sodir bo‘lishi va xalqaro terrorizmga qarshi kurashish zarurati aksariyat davlatlar armiyasidan harbiy ta’limda urush va qurolli kuchlarning tashkiliy rivojlanish nazariyasining asosiy tamoyillari bo‘yicha o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. Harbiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishiga tezkor javob berish va ziddiyatlar manbasini bartaraf etishga ko‘maklashuvchi eng muhim omillardan biri, qo‘shinlarni keskinlik kuchaygan hududga o‘z vaqtida yetib borishga qodir bo‘lgan armiya va maxsus bo‘linmalarning yuqori harakatchanligidir.

Qo‘shinlarning yuqori harakatchanligini ta’minlash vositasi bu harbiy texnikalardir. Hozirgi kunda zamonaviy harbiy texnikalarning texnik imkoniyatlari ortishi, ulardan keng ko‘lamli vazifalarni bajarishda, shaxsiy tarkib va o‘q-dorilarni tashishda, quruqlikdagi qo‘shinlarda, boshqa huquqni muhofaza qilish organlarida qo‘llaniladigan ayrim turdagi qurollar uchun asosiy vosita sifatida foydalanishga imkon beradi. Ushbu harbiy texnikalardan xizmat va jangovar vazifalarni amalga oshirishda uning barcha texnik hamda jangovar imkoniyatlaridan xabardor bo‘lgan, undan samarali foydalana oladigan va ularga texnik xizmat ko‘rsatadigan harbiy haydovchilarni va ularning bo‘lajak komandirlarini tayyorlash kerak.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini yuqori taktik va texnik xususiyatlarga ega bo‘lgan chet davlatlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy harbiy texnikalarning g‘ildirakli yengil zirhlangan turlari (Tigr, Tayfun, Ejder Yalchin, Senator, RJ-33, M-ATV, Max pro Cat-I va boshqa) [1] bilan ta’minlash ishlari jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda yengil zirhlangan avtomobillarni ishlab chiqarish hamda qo‘shinlarni ushbu harbiy texnikalar bilan ta’minlash jarayonlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

Bu esa o‘z navbatida mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini jahon reytingida yuqori o‘rinlarda turishini, uning kuch-qudratini oshishi va qo‘shinlarning tezkorligini ta’minlash bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarning uzluksiz ta’lim olishlarini talab etadi. Xususan, harbiy haydovchilardan qo‘shinga qabul qilingan yangi harbiy texnikaning barcha qism va agregatlarini vazifasi, tuzilishini, texnik imkoniyatlarini, unlarni mohirlik bilan bosqarish ilmini egallashlari lozim bo‘ladi. Buning uchun harbiy haydovchi harbiy ta’lim muassasalarida aynan o‘z boshqaruvidagi markali yengil zirhlangan avtomobillar kurslarida tahsil olishlari talab etiladi. Ilmiy tadqiqot ishi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik bilim yurti, Jamoat xavfsizligi universiteti, Milliy Gvardiya Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi, Mudofaa Vazirligi kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi kabi oliy harbiy va harbiy ta’lim muassasalarida quyidagi yengil zirhlangan avtomobillarni o‘qitish masalasi o‘rganilganida, ushbu texnikalar bo‘yicha o‘qitish kurslari mavjud emasligi yoki boshqa ta’lim muassasalarida ham har bir texnika bo‘yicha kurslar to‘liq tashkil etilmasligi aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni SH.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan qo‘shinlarga chet eldan o‘ndan ortiq markali zamonaviy, yuqori taktik-texnik xususiyatlarga ega bo‘lgan yengil zirhlangan avtomobillar

ISSN 3030-3230

importi amalga oshirildi. Jumladan, vatanimiz harbiy sanoati yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan bir davrda, qo'shinlarimizni zamon talablariga javob beradigan milliy harbiy texnikalar bilan butlash jarayonlari ham yuqori darajada amalga oshirilmoqda.

Ushbu jarayonlar barcha harbiy xizmatchilarni xursand qilishi bilan bir qatorda, harbiy haydovchilarda quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- harbiy ta'lim muassasalarida yuqoridagi harbiy texnikalarni barcha turlari bo'yicha harbiy haydovchilarni o'qitish mavjud emasligi;
- harbiy haydovchilar o'z boshqaruvlaridagi harbiy texnikaning va shu turdagi boshqa harbiy texnikalar bilan qiyosiy-tahliliy ma'lumotga ega emasliklari;
- xizmat joylarida mustaqil o'rganishlari uchun adabiyotlar bilan yetarli ta'minlanmaganligi (o'quv kurslari davomida o'tkazilgan og'zaki so'rovnomalar asosida);
- harbiy ta'lim muassasalarida ushbu texnikalarni o'qitish kurslari yetarli darajada tashkil etilmaganligi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda harbiy haydovchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida qo'shinlarmizda mavjud bo'lgan yengil zirhlangan avtomobillar to'g'risida ma'lumotlarni va chet el armiyalarida foydalanib kelinayotgan zamonaviy harbiy texnikalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi, olingan natijalarni jadval ko'rinishida taqdim etildi.

Tigr yengil zirhlangan avtomobili

Rossiyaning Arzamaskiy zavodida ishlab chiqarilgan Tigr yengil zirhlangan avtomobili shaxsiy tarkibni olib yurish, kolonnani qo'riqlash va kuzatib borish, patrullik qilish, bo'linmalarni o't ochib qo'llab-quvvatlash shuningdek qidiruv qutqaruv maxsus operatsiya tadbirlarni o'tkazish davomida foydalanish uchun mo'ljallangan[3].

Qo'shinlarning tezkorlik bilan topshiriqlarini shakllantirishda:

- davlat chegaralarini qo'riqlashda;
- maxsus operatsiyalarni bajarishda;
- terroristik guruhlarning harakatlanishiga qarshilik ko'rsatishda;
- noqonuniy qurollangan bo'linmani yo'q qilishda va ularni tushkunlikka tushirishda;
- aholiga tabiiy ofatdan yordam ko'rsatishda;
- aholi punktlarida va joylarda, huquqiy tartibni o'rnatish va ushlash
- maxsus politsiya funksiyalarini bajarishda, hukumat inshootlarini va davlat ahamiyatidagi obyektlarini qo'riqlashni kuchaytirishda foydalaniladi.



1-rasm. Tigr yengil zirhlangan avtomobili

K-53949 "Tayfun" yengil zirhlangan avtomobili

Rossiyaning Kamaz avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan Tayfun yengil zirhlangan avtomobili shaxsiy tarkibni olib yurish, kolonnani qo'riqlash va kuzatib borish, patrullik qilish, bo'linmalarni o't ochib qo'llab-quvvatlash shuningdek qidiruv qutqaruv maxsus operatsiya tadbirlarni o'tkazish davomida foydalanish uchun mo'ljallangan[4].



2-rasm. Tayfun yengil zirhlangan avtomobili

Tigr yengil zirhlangan avtomobillarining texnik tavsifi

Ma'lumotlar	SBM Tigr	Tigr-M	Tigr-6A
1	2	3	4
g'ildirak formulasi.	4x4	4x4	4x4
jangovar hisob	2+7	2+7	2+3
uzunligi	5700 mm	5700 mm	5700 mm
eni	2400 mm	2400 mm	2400 mm
balandligi	2300 mm	2500 mm	2250 mm
baza	3300 mm	3300 mm	3300 mm
koleya old/orqa	1840/1840 mm	1840/1840 mm	1840/1840 mm
klirens	400 mm	400 mm	400 mm
to'liq og'irligi	7800 kg	7800 kg	8170 kg
dvigatel turi	To'rt taktli, suv bilan sovitiladigan turbodizel		
dvigatel quvvati	158 k.v, (215 o/k)	158 k.v (215 o/k)	158 k.v (215 o/k)
dvigatel markasi	YaMZ-5347-10	YaMZ-5347-10	YaMZ-5347-10
maksimal tezlik	125 km/s dan kam emas	125 km/s dan kam emas	125 km/s dan kam emas
100 km yoqilg'i sarfi	15 l	15 l	15 l
yurish zaxirasi	1000 km	1000 km	1000 km
qiyalab yurish burch.	20^0	20^0	20^0
tepalik ko'tar. burch.	30^0	30^0	30^0
xandak kengligi	0,5 m	0,5 m	0,5 m
suvli to'siqdan o'tish chuqurligi	1,2 m	1,2 m	1,2 m
devor balandligi	0,4 m	0,4 m	0,4 m

K-53949 "Tayfun" yengil zirhlangan avtomobillarining texnik tavsifi

g'ildirak formulasi.	4x4
jangovar hisob	10
uzunligi	7130 mm
eni	2550 mm
balandligi	3100 mm
klirens	433 mm
to'liq og'irligi	15700 kg
dvigatel quvvati	258 k.v (350 o/k)
dvigatel markasi	Cummins 6ISBe 350 P-6
maksimal tezlik	105 km/s dan kam emas
yurish zaxirasi	1000 km
Bak sig'imi, litr	360
qiyalab yurish burch.	25^0
tepalik ko'tar. burch.	31^0
xandak kengligi	0,5 m
suvli to'siqdan o'tish chuqurligi	1,5 m
devor balandligi	0,6 m

Ejder Yalçin yengil zirhlangan avtomobili

Turkiyada ishlab chiqarilgan Ejder Yalçin razvedka o'tkazishda, maxsus antiterroristik operatsiyalarda, favqulodda vaziyatlarda va boshqa jangovar vazifalarni bajarishda foydalanish uchun mo'ljallangan [2].

Ejder Yalçin broneavtomobilining texnik tavsifi

ISSN 3030-3230

g‘ildirak formulasi	4x4
jangovar hisob	2+9
uzunligi	5420 mm
eni	2480 mm
balandligi	2300 mm
baza	3100 mm
klirens	400 mm
to‘liq og‘irligi	14000 kg
dvigatel quvvati	300 k.v
dvigatel markasi	Cummins
yurish zaxirasi	600 km
maksimal tezlik	110 km/s
xandak kengligi	0,7 m
devor balandligi	0,5 m

Senator APS yengil zirhlangan avtomobili

Senator APC Kanadada Roshel kompaniyasida ishlab chiqarilgan bo‘lib, turli xil jangovar vaziyatlarda samarali xizmat ko‘rsatishga qodir. ushbu yuqori samarali ko‘p maqsadli zirhli transport vositasi maxsus bo‘linmalar, huquqni muhofaza qilish va chegara patruli xizmati uchun mo‘ljallangan [5].

Senator APS broneavtomobilining texnik tavsifi

g‘ildirak formulasi	4x4
jangovar hisob	2+10
uzunligi	5945 mm
eni	2340 mm
balandligi	2450 mm
baza	3683 mm
klirens	400 mm
to‘liq og‘irligi	8000 kg
dvigatel quvvati	330 k.v
dvigatel markasi	Power Stroke

M-ATV yengil zirhlangan avtomobili

AQShning “Oshkosh Truck” kompaniyasida ishlab chiqarilgan M-ATV zirhli avtomobili g‘ildirakli, jangovar, quruqlikdagi va dengiz piyoda qo‘shinlarining razvedka o‘tkazishda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Ekipaj va desantni yadroviy, biologik va kimyoviy zarar yetkazuvchi vositalardan va o‘qotar qurollar hamda portlovchi moddalarning portlash ta’siridan himoya qiluvchi zirhli mashina hisoblanadi [2].



3-rasm. Ejder Yalçin yengil zirhlangan avtomobili



4-rasm. Senator APS yengil zirhlangan avtomobili



5-rasm. M-ATV yengil zirhlangan avtomobili

M-ATV yengil zirhlangan avtomobilining texnik tavsifi

G‘ildirak formulasi	4x4
Jangovar hisob	1+4
Uzunligi	6270 mm
Eni	2910 mm
Balandligi	2700 mm
Klirens	350 mm
To‘liq og‘irligi	11300 kg
Dvigatel quvvati	370 ot kuchi
Dvigatel markasi	Caterpillar C7
Maksimal tezlik	105 km/s
Yurish zaxirasi	515 km

RJ-33 yengil zirhlangan avtomobili

AQSh da ishlab chiqarilgan RG-33 broneavtomobili jangovar, maxsus operatsiyalarni bajarishda foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qurol-aslaha va zirhli himoya bilan jihozlangan, ekipaj va desantni jangovar harakatlar bo‘layotgan hududga talofatsiz olib kirish uchun xizmat qiladi [2].



5-rasm. RJ-33 yengil zirhlangan avtomobili

RG-33 broneavtomobilining texnik tavsifi

g‘ildirak formulasi	4x4
jangovar hisob	2+8
uzunligi	8500 mm
eni	2500 mm
balandligi	2900 mm
klirens	350 mm
to‘liq og‘irligi	17300 kg
dvigatel quvvati	400 ot kuchi
dvigatel markasi	Cummins
yurish zaxirasi	600 km

Max pro Cat-I yengil zirhlangan avtomobili

AQSh da ishlab chiqarilgan Maxx Rro Cat I zirhli avtomobili jangovar, maxsus operatsiyalarni bajarishda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Qurol-aslaha va zirhli himoya bilan ta’minlangan bo‘lib, ekipajni pistirma va minalardan himoyalash uchun xizmat qiladi [2].



6-rasm. Maxx Pro Cat I yengil zirhlangan avtomobili

Maxx Pro Cat I yengil zirhlangan avtomobilining texnik tavsifi

g‘ildirak formulasi	4x4
jangovar hisob	3+5
uzunligi	7200 mm
eni	2500 mm
balandligi	3000 mm
klirens	350 mm
to‘liq og‘irligi	14000 kg
dvigatel quvvati	330 ot kuchi
dvigatel markasi	Maxx Force D9.3I6
yuqori tezlik	105 km/s
yurish zaxirasi	800 km

Rivojlangan mamlakatlar ichida zirhli texnikalarni ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi o‘rinni AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya, Isroil egallaydi. Yevropa kapitalistik mamlakatlari ichida zirhli-texnika va qurol-aslahalarni ishlab chiqarish bo‘yicha Germaniya birinchi o‘rinni egallaydi.

Chet el jangovar mashinalarining ko‘rsatkichlari [2]

ISSN 3030-3230

KO‘RSATKICHLAR	ABRAMS (AQSH)	CHELLENJER (ANGLIYA)	LEOPARD (FRG)
1. Jangovar og‘irligi, t.	14,5	12,5	14,5
2. Yuqori tezligi shosse-da.	75	95	70
3. Yurish zaxirasi, km.	500	600	600
4. Dvigatel quvvat, ot kuchi.	280	275	600
5. Uzunligi.	6,9	7,4	7,5
6. Balandligi	2,1	2,5	2,6
7. Eni	3,3	3,2	3,4
8. Qurollari:	-	25	20
- to‘p kalibr, mm	12,7	7,62	7,62
- pulemyot mm			

Xulosa qilib aytganda, harbiy to‘qnashuvlar va harbiy siyosiy nizolarning dinamikasi harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish tendensiyasini belgilab, hozirgi kun armiyasida harbiy haydovchilardan:

milliy armiyamizda mavjud boshqa davlatlarda ishlab chiqarilgan yengil zirhlangan avtomobillarni jangovar tavsiflarini bilish, dushmanni zirhli nishonlarini tor-mor qilish uslubi va turlarini qo‘llashda katta imkon yaratishni, zirhli texnikaning o‘lchamlarini (bo‘yi, balandligi enini) bilish orqali, uni mohirlik bilan ishonchli boshqarish imkonini yaratadi;

bizdagi va xorij yengil zirhlangan avtomobillar jangovar sifatlarini taqqoslaganimiz shuni ko‘rsatadiki, jangovar tavsiflari bo‘yicha bizning zirhli texnika qurol-aslahalarimiz g‘arbning ilg‘or mamlakatlari zirhli texnika qurol-aslahalari bilan bir qatorda, ba’zi bir ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa ustun ham turadi;

XXI asr professional harbiylarining jangdagi muvaffaqiyatlari, o‘z bo‘linmalaridagi texnika va qurol-aslahalarni qanchalik o‘zlashtirishiga va ulardan oqilona foydalana olishga bog‘liq. Bu bilan o‘tgan avlodlarimizning jangovar shon-shuhratini yanada mustahkamlashimiz, ularning an’analarini munosib davomchisi sifatida yanada boyitgan bo‘lamiz.

Ushbu maqola orqala quyidagilar taklif etiladi:

- oliy harbiy va harbiy ta’lim muassasalarida harbiy transport va shu kabi texnika fanlaridan kirish mashg‘ulotlarida yuqoridagi harbiy texnikalar bo‘yicha ma’lumotlarni berish orqali kursantlar va tinglovchilarda qo‘shinlarimizning mavjud imkoniyatlari, qudrati bo‘yicha ishonch ruhini shakllantirishga ma’lum bir darajada erishiladi;

- harbiy haydovchilarni joylarda nazariy bilimlarini yanada takomillashtirish maqsadida yuqorida ma’lumotlar asosida yon daftarcha shaklida tayyorlab berish (xizmat joylarida foydalanish uchun) orqali ularning kasbiy dunyoqarashini oshishiga ma’lum bir darajada erishiladi .

Аннотация. В статье представлена информация о назначении и технических возможностях легкой бронетехники в Вооруженных Силах Республики Узбекистан, сравнительный анализ военной техники, используемой в развитых странах (США, Великобритании и Германии).

Ключевые слова: военный водитель, профессиональная подготовка, легкая бронетехника, назначение, техническое описание.

Annotation: this article discusses the purpose and technical capabilities of light armored vehicles in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, and also provides a comparative analysis with military equipment used in developed countries (USA, Great Britain and Germany).

Key words: military driver, professional training, light armored vehicle, purpose, technical description.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Z.Fayzullayev. Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi. Darslik. “Zarqalam”, T-2005. 430 b.
2. Kuchkarov B.T. Zirhli texnikalarni yaratilish tarixi va rivojlanish istiqbollari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘RQKA. 2019. – 52 b.
3. М.Овсянников. Все о бронеавтомобиле «Тигр»: история создания и характеристики/ Autonews: Elektron resurs: https://www.autonews.ru. Murojaat qilingan sana: 07.10.24 y.
4. Бронированный автомобиль КамАЗ-53949 Тайфун/Перевозка 24. Elektron resurs: https://perevozka24.ru. Murojaat qilingan sana: 07.10.24 y.
5. Senator Armored Personnel Carrier. Elektron resurs: https://roshel.ca. Murojaat qilingan sana: 07.10.24 y.

SUN’IY INTELLEKT, QO‘LLANILISH SOHALARI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI OBYEKTLARNING XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH UCHUN IMKONIYATLARI

Achilov Farxod Bagodirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdulloyev D.A.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellektning turli sohalarda qo‘llaniladigan texnologiyalari ko‘rib chiqilgan, uning rivojlanish bosqichlari yoritilgan, sun’iy intellekt texnologiyalarining turlari taqdim etilgan, O‘zbekiston Respublikasidagi qo‘riqlanadigan obyektlarning xavfsizligini ta’minlashda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, sun’iy intellekt texnologiyalari, chuqur o‘rganish, mashinali o‘rganish, xavfsizlik.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab ko‘p yillar davomida faqatgina ilmiy-fantastika va filmlarda, xuddi tirik insonlar kabi fikrlash va ijod qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan robotlar va mashinalarning mavjudligi, hozirgi kunga kelib shunchaki afsona yoki fantastika hisoblanmaydi. Sun’iy intellekt ko‘plab universitetlar, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida ish olib boruvchi yirik kompaniyalari ilmiy faoliyatining predmetiga aylanmoqda.

Agar o‘tgan asrning eng muhim texnologiyalari sanoat va yangi ilmiy-tadqiqot sohalariga asos yaratgan antibiotiklar, yarim o‘tkazgichlar va samolyotlar hisoblangan bo‘lsa, hozirda nanotexnologiya, robototexnika va uch o‘lchamli bosib chiqarish [4] bo‘lmoqda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi esa yaqin kelajakda sun’iy intellekt muhim texnologiyalardan biriga aylanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Sun’iy intellekt tarixi ko‘p bosqichlarga bo‘lingan [7]. Uning asosiy davrlari quyidagicha: 1940-1950 yillar: Sun’iy intellekt konsepsiyasi paydo bo‘ldi. 1956-yilda Dartmut konferensiyasida “sun’iy intellekt” termini avvalgi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganildi. 1960-yillar: Eshitish va tabiiy tilni qayta ishlash bo‘yicha birinchi dasturlar ishlab chiqildi. Misol uchun, LISP programmalashtirish tili paydo bo‘ldi. 1970-yillar: Sun’iy intellektning “vosita davri” – ekspert sistemalar va algoritmlarning paydo bo‘lishi. 1980-yillar: Investitsiyalarning ko‘paya boradigan davri, ekspert sistemalarining ommalashishi. Logika va qaror qabul qilish algoritmlari rivojlandi. 1990-yillar: Mashinali o‘rganish va statistik metodlarning rivojlanishi. Internetning rivojlanishi bilan ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi. 2000-yillar: Neyron tarmoqlari, chuqur o‘rganish va sun’iy intellektning zamonaviy usullari keng joriy etildi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari to‘liq rivojlandi. 2010-yillar va keyin: Sun’iy intellektni kundalik hayotda qo‘llash: avtohaydovchi mashinalar, tavsiya tizimlari, tabiiy tildagi chat-botlar va boshqalar yaratildi. Neyron tarmoqlari va chuqur o‘rganishning yangi usullari rivojlandi.

Jahonda sun’iy intellekt texnologiyalariga sarmoyalar kiritish tendensiyasining sezilarli darajada ko‘payishi kuzatilmoqda (taxminlarga ko‘ra, 2025-yilga kelib, ular 50 milliard AQSH dollariga yetishishi mumkin [3]), ushbu texnologiyalarga berilgan patentlarning soni oshmoqda (masalan, 2016 yilda “IBM” kompaniyasi 8088 ta turli ixtirolarga patentlarni qo‘lga kiritib, ulardan 2700 dan ortig‘i sun’iy intellekt sohasidagi ixtirolarga to‘g‘ri kelgan [5]), sun’iy intellekt texnologiyalarining bozori oshib bormoqda.

ISSN 3030-3230

Mamlakatimizda ham sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1]. Bu borada sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tatbiq etish asosiy maqsadlar etib belgilangan [2].

Hozirda turli sohalarda sun'iy intellektning ko'plab texnologiyalari qo'llanilmoqda [6]. Xususan, 2022-yilda dolzarb bo'lib hisoblanayotgan sun'iy intellektning texnologiyalari ro'yxatining birinchi pozitsiyasini "Tabiiy til avlodi" egallab turibdi:

1. **Tabiiy til avlodi.** Mashinalar inson miyasidan boshqacha tarzda qayta ishlaydi va muloqot qiladi. Tabiiy tilni yaratish – bu tuzilgan ma'lumotlarni ona tiliga aylantiradigan zamonaviy texnologiya. Mashinalar ma'lumotlarni foydalanuvchiga kerakli bo'lgan formatga aylantirish uchun algoritmlar bilan dasturlashtirilgan. Tabiiy til – bu sun'iy intellektning kichik to'plami bo'lib, u kontentni ishlab chiquvchilarga kontentni avtomatlashtirish va kerakli formatda yetkazib berishga yordam beradi.

Ikkinchi o'rinda Nutqni tanib olish texnologiyasi joylashgan:

2. **Nutqni tanib olish.** Nutqni tanib olish – bu sun'iy intellektning yana bir muhim to'plami bo'lib, u inson nutqini kompyuterlar tomonidan foydali va tushunarli formatga aylantiradi. Nutqni aniqlash inson va kompyuterning o'zaro ta'siri o'rtasidagi ko'prikdir. Texnologiya inson nutqini bir necha tillarda taniydi va o'zgartiradi. Siri, Alisa kabi dasturlar nutqni aniqlashning klassik namunalari hisoblanadi.

Uchinchi o'rinesa hozirda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Virtual agent-texnologiyaga tegishli bo'ldi:

3. **Virtual agent.** Virtual agent – bu odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan kompyuter ilovasi. Veb-ilovalar va mobil ilovalar mijozlarga ular bilan hamkorlik qilish va savollariga javob berish uchun xizmat ko'rsatuvchi agentlar sifatida chat-botlarni taqdim etadi. Masalan, Google Assistant uchrashuvlarni tashkil etishga yordam beradi, Amazondan Aleksiya esa xaridlar amalga oshirilishini qulaylashtiradi. Virtual yordamchi, shuningdek, sizning tanlovingiz va xohishingiz bo'yicha maslahatlarni tanlaydigan til yordamchisi kabi ishlaydi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda ayniqsa yirik korxona va tashkilotlarda ehtiyoj mavjud bo'lgan Qarorlarni boshqarish texnologiyasi ro'yxatning to'rtinchi o'rnida joylashib turibdi:

4. **Qarorlarni boshqarish.** Zamonaviy tashkilotlar ma'lumotlarni bashoratli modellarga aylantirish va sharhlash uchun qarorlarni boshqarish tizimlarini joriy qilmoqdalar. Korxona darajasidagi ilovalar tashkiliy qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun biznes ma'lumotlarini tahlil qilishda dolzarb ma'lumotlarni olish maqsadida qarorlarni boshqarish tizimlarini amalga oshiradi. Qarorlarni boshqarish tezkor qarorlar qabul qilish, xatarlardan qochish va jarayonni avtomatlashtirishga yordam beradi. Qarorlarni boshqarish tizimi moliya sektori, sog'liqni saqlash sektori, savdo, sug'urta sektori, elektron tijorat va boshqalarda keng qo'llaniladi.

Ro'yxatning beshinchi pog'onasini esa Chuqur o'rganish texnologiyasi egallab turibdi:

5. **Chuqur o'rganish.** Sun'iy neyron tarmoqlarga asoslangan holda ishlaydigan sun'iy intellektning yana bir sohasi Chuqur o'rganish hisoblanadi. Ushbu uslub kompyuterlar va mashinalarni xuddi odamlar kabi o'rganishga o'rgatadi. "Chuqur" atamasi neyron tarmoqlarda yashirin qatlamlarga ega bo'lgani uchun yaratilgan. Odatda, neyron tarmoq 2-3 ta yashirin qatlamga ega va maksimal 150 ta yashirin qatlamga ega bo'lishi mumkin. Chuqur o'rganish model va grafik ishlov berish blokini o'rgatish uchun yirik ma'lumotlarda samarali hisoblanadi. Algoritmlar bashoratli tahlilni avtomatlashtirish iyerarxiyasida ishlaydi. Chuqur o'rganish yo'ldoshlardan obyektlarni aniqlash uchun aerokosmik va harbiy kabi ko'plab sohalarda muvaffaqiyat bilan qo'llanmoqda, ishchi mashinaga yaqinlashganda xavfli hodisalarni aniqlash orqali ishchilar xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi, saraton hujayralarini aniqlashga yordam beradi va hokazo.

Joriy yilning ahamiyatli texnologiyalaridan yana biri Mashinani o'rganish bo'lib, u ro'yxatning oltinchi pog'onasini egallagan.

6. **Mashinali o'rganish.** Mashinali o'rganish – bu sun'iy intellekt bo'limi bo'lib, u mashinaga dasturlashtirilmagan holda ma'lumotlar

to‘plamidan ma’no chiqarish imkonini beradi. Mashinali o‘rganish texnikasi korxonalarga algoritmlar va statistik modellar yordamida amalga oshiriladigan ma’lumotlar tahlili bilan ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Jarayonlarni robotlashtirilish yo‘li bilan avtomatlashtirish kabi sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir uslubi yettinchi o‘ringa sazovor bo‘lib turibdi:

7. **Jarayonlarni robotlashtirilish yo‘li bilan avtomatlashtirish.** Jarayonlarni robotlashtirilish yo‘li bilan avtomatlashtirish – bu robotni (dasturiy ta’minot ilovasi) ma’lumotlarni sharhlash, muloqot qilish va tahlil qilish uchun sozlaydigan sun’iy intellekt ilovasi. Sun’iy intellektning ushbu intizomi takrorlanadigan va qoidalarga asoslangan qisman yoki to‘liq qo‘lda bajariladigan operatsiyalarni avtomatlashtirishga yordam beradi.

Ro‘yxatimizdagi sakkizinchi o‘rinni Peer-to-peer network egallamoqda.

8. **Peer-to-peer tarmog‘i** server orqali ma’lumotlarni uzatmasdan ularni almashish uchun turli tizimlar va kompyuterlar o‘rtasida ulanishga yordam beradi. Peer-to-peer network eng murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega. Ushbu texnologiya kriptovalyutalarda qo‘llaniladi. Mazkur texnologiyadan foydalanish tejamkorlikni ta’minlaydi, chunki alohida kompyuterlar ulanadi, serverlar esa talab etilmaydi.

Va nihoyat ro‘yxatimizning so‘ngi pog‘onasidan Sun’iy intellekt uchun optimallashtirilgan apparat vositalari joy olgan.

9. **Sun’iy intellekt uchun optimallashtirilgan apparat vositalari.** Sun’iy intellekt dasturiy ta’minoti biznes olamida yuqori talabga ega. Dasturiy ta’minotga bo‘lgan e’tiborning ortishi bilan dasturiy ta’minotni qo‘llab-quvvatlaydigan apparatga ehtiyoj ham paydo bo‘ladi. An’anaviy chip sun’iy intellekt modellarini qo‘llab-quvvatlamaydi. Neyron tarmoqlar, chuqur o‘rganish va kompyuterni ko‘rish uchun yangi avlod sun’iy intellekt chiplari ishlab chiqilmoqda. Sun’iy intellekt apparati kengaytiriladigan ish yuklarini boshqarish uchun protsessorlarni, neyron tarmoqlar uchun maxsus maqsadli o‘rnatilgan kremniyni, neyromorfik chiplarni va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Nvidia, Qualcomm va AMD kabi yirik tashkilotlar murakkab sun’iy intellekt hisoblarini bajara oladigan chiplarni yaratmoqda.

Fikrimizcha, bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalaridan Milliy gvardiya hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning obyektlari xavfsizligini ta’minlashda foydalanish ham o‘ta dolzarb ahamiyatga ega. Qo‘riqlanadigan obyektlarning xavfsizlik tizimini sun’iy intellekt yordamida takomillashtirish samaradorlik va xavfsizlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bugungi kunda sun’iy intellekt qo‘riqlanadigan obyektlarda quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

1. **Normadan chiqib ketishni aniqlash:** sun’iy intellekt real vaqt rejimida videokameralardan keluvchi video-oqimlarni tahlili qilishi, odamlarning taqiqlangan hududlarda bo‘lishi yoki o‘zini shubhali tutishi kabi noodatiy xatti-harakatlarni aniqlashi mumkin.

2. **Yuzni fahmlash**: sun’iy intellekt asosidagi tizimlar video bo‘yicha odamlarni identifikatsiya qilishi mumkin bu esa qo‘riqlanadigan obyektlarga kirish-chiqishni kuzatish va sanksiyalanmagan kirishlarni aniqlash imkonini beradi.

3. **Bashoratli analitika:** sun’iy intellekt ma’lumotlarni katta hajmidan foydalangan holda, muayyan hududlardagi jinoyatchilik haqidagi oldingi ma’lumotlar va patternlarga asoslanib ehtimolli tahdidlarni bashorat qilishi mumkin.

4. **Aqlli datchiklar**: sun’iy intellektning turli datchiklar (harakat, harorat, yong‘in, tutun, qo‘riqlash va h.k.) bilan integratsiyasi tahdidlarga avtomatik ta’sirlanadigan kompleks xavfsizlik tizimlarini yaratish imkonini beradi.

5. **Avtomatlashtirilgan dronlar va robotlar:** hududlarda avtomatlashtirilgan patrullikni tashkil etish maqsadida sun’iy intellektga ega dronlar va robotlardan foydalanish. Ular turli tahdidlarni aniqlash, obyektlarni tekshirish va odam kirishi qiyin bo‘lgan joylarda xavfsizlikni ta’minlash kabi vazifalarni bajarishi mumkin.

6. **Boshqarish tizimlari bilan integratsiya:** sun’iy intellekt turli xavfsizlik tizimlari (videokuzatuv, signalizatsiya, kirish-chiqishni boshqarish) va markazlashgan boshqarish o‘rtasida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘lanishni yaxshilashi mumkin, bu esa turli tahdidlarga tezkor ta’sirlanish imkonini beradi.

ISSN 3030-3230

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan qo'riqlanadigan obyektlarda foydalanish nafaqat xavfsizlikning darajasini oshiradi, balki jismoniy kuchga sarf-xarajatlarni kamaytiradi va resurslarni boshqarish imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy intellekt intellektning hisoblash modellarini aks yetadi. Intellektni muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, tilni qayta ishlash va hokazolar uchun dasturlashtirilishi mumkin bo'lgan tuzilmalar, modellar va operatsion funksiyalar sifatida ta'riflash mumkin. Sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari ko'plab sohalarda allaqachon olingan. Sun'iy intellektning obyektiv va kelajakdagi maqsadlari insonning barcha murakkab faoliyatini avtomatlashtirish orqali mamlakatimizdagi qo'riqlanadigan obyektlarning xavfsizligini ta'minlashda ham xatolar va noto'g'ri qarorlarni qabul qilinishini oldini olish, ularning qo'riqlash ishonchliligini yuqori darajalarga ko'tarishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются технологии искусственного интеллекта, применяемые в различных областях, описан уровень и стадии его развития, представлены виды технологий искусственного интеллекта, изложены возможности применения искусственного интеллекта при обеспечении безопасности охраняемых объектов Республики Узбекистан.

Ключевые слова: искусственный интеллект, технологии искусственного интеллекта, глубокое обучение, машинное обучение, безопасность.

Abstract. This article examines artificial intelligence technologies used in various fields, describes the level and stages of its development, presents the types of artificial intelligence technologies, and outlines the possibilities of using artificial intelligence in ensuring the security of protected objects in the Republic of Uzbekistan.

Key words: artificial intelligence, artificial intelligence technologies, deep learning, machine learning, security.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021 y., 07/21/4996/0127-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021 y., 07/21/5234/0826-son; 23.08.2022 y., 06/22/194/0766-son.

3. Cowan P., Hinton J. Intellectual Property and Artificial Intelligence: What Does the Future Hold? // Intellectual Asset Management Magazine. 2018. N 88. P. 24.

4. World Intellectual Property Report 2015. Breakthrough Innovation and Economic Growth: WIPO Publication № 944E. Geneva, 2015. 143 p.

5.Elektron manba: https://www-03.ibm.com/press/us/en/pressrelease/

51353.wss (murojaat sanasi: 26.09.2024 y).

6. Elektron manba: https://ict.xabar.uz/uz/startap/suniy-intellektning-eng-yaxshi-texnologiyalari (murojaat sanasi 2.10.2024 y.).

7. Elektron manba: https://uz.vogueindustry.com/17217-development-of-artificial-intelligence-concept-definition-history-goals-and-objectives-development-prospects-and-new-developments (murojaat sanasi: 2.10.2024-y.).

HARBIY XIZMATCHI (XODIM)LARNI O‘Q OTISHGA PROFESSIONAL TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Gaipov Ravshan Abdujalilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi dotsenti, harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Ushbu maqolada harbiy xizmatchi (xodim)larni o‘q otishga professional tayyorlashning dolzarb masalalari yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar o‘rganilib tahlil qilingan. O‘rganishlar tahlillariga ko‘ra, bir qancha muammolarning yechimi sifatida ilmiy nazariy taklif va tavsiyalar berilgan. Ushbu takliflar amalda tajriba-sinov natijalari bilan asoslantirilgan.**

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, xodim, o‘q otish, tezkor o‘q otish, nishon, harakatlanuvchi nishon.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar Qurolli kuchlarida harbiy xizmatchi (xodim)larning professional tayyorgarligiga katta ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Ayniqsa, jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchi (xodim) larning mahorati o‘ta muhimdir. Harbiy xizmatchi (xodim)larning haqiqiy jangovar vaziyatlarda o‘q otishga tayyorlash, bir necha komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bular, psixologik, jismoniy, taktik, texnik va huquqiy tayyorgarlik.

Ushbu masalalar yuzasidan, rus tadqiqotchilari A.A. Popov, A.A. Rojkov, N.V. Jelezkinlar[1] xodimlarni o‘q otar qurolni ishlatish bilan, noqonuniy harakatlarni bartaraf etishga tayyor bo‘lishining tarkibiy modelini aniqlashgan. Ushbu model quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog‘liq vaziyatlarni qonuniy ravishda malakali tahlil qilish va baholashda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik qobiliyati (huquqiy komponent);

- qurolni ishlatish to‘g‘risida qaror qabul qilish tezligi va qabul qilingan qarorning bajarilishi (psixologik komponent);

- xodimlarning vaziyatni huquqiy tahlil qilishning to‘g‘riligiga va o‘qotar quroldan foydalanish to‘g‘risidagi qarorga ishonch (psixologik komponent);

- tezkor nishonni aniqlash va otishni o‘rganish uchun dastlabki sozlamalarni aniqlash (taktik komponent);

- o‘q otish aniqligi (texnik komponent);

- otish vaqtida qurol bilan mohirona harakatlar (texnik komponent);

- qabul qilingan qaror va amalga oshirilgan xatti-harakatlar to‘g‘risida qonuniy ravishda vakolatli bahslasha olish qobiliyati (huquqiy komponent).

Ushbu modelning barcha elementlari yagona tizimni tashkil etishi muhim hisoblanadi. Shuning uchun harbiy xizmatchi (xodim)larning o‘q otishga tayyorgarligiga taqdim etilgan modelning elementlari kasbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida mahorat darajasigacha shakllantirilishi kerak.

Harbiy xizmatchi (xodim)lar tomonidan o‘qotar qurollardan foydalanishning amaliy holatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlillariga ko‘ra I.A. Kalinichenko[2], A.S. Kalinnikov[3], T.S. Kupavtsev[4], V.G. Lupir[5], S.V. Naumenko[6], A.N. Sadkov[7], A.I. Ushakov[8], E.V. Flusovlar[9], huquqbuzarlar bilan o‘q otish vaqtidagi to‘qnashuvlar quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashga imkon berdi: 10 metrgacha qisqa masofada o‘q otish tez-tez sodir bo‘ladi, qarama-qarshi tomonlar orasida otish sur’ati yuqori darajada ajralib turadi, mo‘ljallashga vaqt yo‘q, yaqinlashayotgan o‘q otish chizig‘idan chiqib ketish bilan o‘q otishni birlashtirish kerak. Shunday qilib, harbiy xizmatchi (xodim)larni o‘qotar quroldan foydalanish taktikasiga o‘rgatishda asosan qisqa masofada samarali otish mahoratini shakllantirish o‘z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

cheklangan vaqt ichida, tezkor mo‘ljalga olib, qurolni darhol ko‘tara solib o‘q otish yoki mo‘ljallamasdan (intuitiv o‘q otish);

yaqinlashayotgan o‘q otish chizig‘idan tezda chiqib ketish joyidan (shu jumladan harakatlangandan keyin) va harakatda (shu jumladan, mashinadan);

statsionar, harakatlanuvchi, yakka yoki guruhiy nishonlarga;

cheklangan ko‘rinish sharoitida turli xil pozitsiyalar bilan (“tik turib”, “tizzadan”,

ISSN 3030-3230

“yotib”);

turli xil chalkash omillar ta’siri ostida;

magazinni o‘zgartirish bilan otish vaqtida kechikishlar paydo bo‘lishi bilan o‘q otish.

Yuqoridagi masala yuzasidan, tadqiqotchilar V.Yu. Dubrovskiy, Yu.V. Vetrova, A.I. Kudinovalar[10] o‘zlarining tadqiqot ishlarida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan “duel otish” mashqlaridan foydalanish imkoniyati muhokama qilingan va ushbu mashqlarning shartlari va tartibi, aniq o‘q otish uchun otuvchi oldida turgan vazifalari ochib berilgan. Mashqlarni bajarish jarayonida oltita harakatlanish bosqichini ajratib ko‘rsatganlar:

1. Tayyorgarlik bosqichi;

2. Reaksiya bosqichi;

3. Tezlanish bosqichi;

4. Tormozlanish bosqichi;

5. Tushish bosqichi;

6. Otilganidan keyin ushlab turish va nishonga olish va dastlabki holatga qaytish bosqichi.


tayyorlash masalalari yuzasidan o‘rganilgan ilmiy ishlar tahlillaridan bilishimiz mumkinki, bu borada bir necha muammoli vaziyatlar mavjud. Shunday ekan, harbiy xizmatchi (xodim)larni o‘q otishga professional tayyorlashda amaliy o‘q otish mashg‘ulotlarida bajariladigan mashqlar shartlari, yuqoridagi muammolarni yechishga qaratilishi lozim.

Shu maqsadda, amaliy o‘q otish mashg‘ulotlarida harakatlanuvchi nishonlarga qisqa masofalardan o‘q otish mashqlarini bajarish, harbiy xizmatchi (xodim)larni tezkorlik bilan o‘q otish ko‘nikmalarini oshirishga hamda ular bilan olib borilayotgan mashg‘ulotlarni real vaziyatga yaqinlashtirib olib borishga yordam berishi aniqlandi. Ushbu nazariy g‘oyani amaliyotda sinash maqsadida, bir guruh harbiy xizmatchi (xodim)lar bilan tajriba-sinov tarzida o‘quv o‘q otish mashg‘uloti o‘tkazildi. Mashg‘ulot amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan tashkillashtirildi va o‘q otish vaqtini aniqlash uchun o‘qchilar taymeridan foydalanildi.

Tajriba-sinov natijalari

1-jadval

Mashq nomi	Patronlar soni (har bir mashq uchun), dona	Otish uchun ketgan o‘rtacha vaqt, soniya
Qo‘zg‘almas nishonlarga qisqa masofalardan o‘q otish. (3,5,7 metr)	3	4,2
Harakatlanuvchi nishonlarga qisqa masofalardan o‘q otish. (3,5,7metr)	3	3,2



1-rasm. Qo‘zg‘almas va harakatlanuvchi nishonlarga bir xil shartlar bilan bajarilgan o‘q otish mashqlaridan olingan natijalarning yig‘indisi. (grafik ko‘rinishda)

Yuqoridagi bosqichlar bir-biriga ketma-ket o‘tib boradi va qurol tinch va nazorat ostida nishonga olinadigan joyga kiritiladi. Bu harakatlarning barchasini aniq va tez bajarilishi tez va aniq o‘q otishning kafolati hisoblanadi.

Harbiy xizmatchi (xodim)larning o‘q otishga

Tajriba-sinov natijalaridan ko‘rinib turibdiki, otuvchilar qo‘zg‘almas nishonlarga qarata mashq bajarish uchun, o‘rtacha 4,2 soniya vaqt sarflashdi. harakatlanuvchi nishonlarga qarata mashq bajarish uchun esa, o‘rtacha 3,2 soniya vaqt sarflashdi. (1-rasmga qarang)

Bundan ko‘rinadiki harakatlanuvchi nishonlarga mashq bajarish uchun taxminan 1 soniyacha vaqt kamroq sarflandi. Mashq bajarish uchun berilgan shartlarda vaqt chegaralanmadi. Shundan bizga ma’lum bo‘lmoqdaki, nishonning harakatlanishi otuvchini tezroq harakatlanishga majbur qiladi.

O‘rganilgan ilmiy ishlar tahlillari va tajriba-sinov natijalaridan xulosa qiladigan bo‘lsak, jangovar vaziyatlarda muvaffaqiyatli o‘q otish uchun, harbiy xizmatchi (xodim) larni ushbu yo‘nalishda tayyorlash uchun bir qancha muammo va o‘q otishda yaxshi natijaga erishishga ta’sir ko‘rsatuvchi bir nechta omillar mavjud. Ushbu muammolarni qisman bo‘lsa ham yechimi sifatida o‘q otish mashg‘ulotlarida “harakatlanuvchi nishonlarga qarata o‘q otish mashqlaridan” kengroq foydalanishni taklif etamiz.

Bu bilan, harbiy xizmatchi (xodim)larni taktik o‘q otish mahoratini oshirishga;

mashg‘ulotlarni real holatga yaqinlashtirib olib borishga;

dushman bilan to‘qnash kelgan vaqtda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatishga;

mashg‘ulotlarni turli jang yoki to‘qnashuvlar ssenariylari asosida olib borish yo‘li bilan, qurol qo‘llashning huquqiy jihatlarini tushuntirishga erishiladi.

Аннотация. В статье изучены и проанализированы научные исследования, проводимые по актуальным вопросам профессиональной подготовки военнослужащих (сотрудников) по стрельбе. По результатам анализа и практических экспериментов даны научно-теоретические предложения и рекомендации по решению ряда существующих проблем.

Ключевые слова: военнослужащие, личный состав, стрельба, скорострельность, мишень, движущаяся цель.

Annotation. This article examines and analyzes scientific research conducted on current issues of professional training of military personnel (employees) for shooting. Based on the results of the research analysis, scientific and theoretical proposals and recommendations for solving a number of problems were given. These proposals were substantiated by the results of practical experiments.

Key words: military personnel, personnel, shooting, rate of fire, target, moving target.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Попов А.А., Рожков А.А., Железкин Н.В. Особенности формирования готовности сотрудников полиции к пресечению противоправных действий с применением огнестрельного оружия / Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России № 1 (77) 2018, 174-178 с.

2. Калиниченко И.А. Методика обучения огневой подготовке сотрудников органов внутренних дел к действиям в экстремальных условиях: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Калиниченко Игорь Александрович.– М., 2004. – 170 с.

3. Калинников А.С. Методика обучения курсантов образовательных учреждений МВД России стрельбе из пистолета на коротких дистанциях: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Калинников Андрей Станиславо- вич. – М., 2003. – 189 с.

4. Купавцев Т.С., Моисеенко А.А., Никифоров П.В., Семёнов В.В. Огневая подготовка сотрудников органов внутренних дел: учебно-методическое пособие. – Барнаул: БЮИ МВД России, 2014. – 342 с.

5. Лупырь В.Г., Литвин Д.В., Филиппов О.Ю. Подготовка сотрудников полиции к действиям с табельным оружием при задержании лиц, совершивших преступления. – Омск: Омская академия МВД России, 2015. – 123 с.

6. Науменко С.В. Повышение качества огневой подготовленности курсантов и слушателей образовательных учреждений МВД России: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08/Науменко Станислав Васильевич. – СПб., 2008. – 183 с.

7. Садков А.Н. Стрелковая тренировка курсантов высших образовательных учреждений МВД России на основе моделирования условий и ситуаций оперативно-служебной деятельности: Дис. канд. пед. наук: 13.00.04 / Садков Алексей Николаевич. – Волгоград, 2010. – 168 с.

8. Ушаков А.И. Обучение курсантов и слушателей учебных заведений МВД РФ скоростной стрельбе из пистолета Макарова в условиях, приближенных к экстремальным ситуациям: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Ушаков Алексей Иванович. – Калининград, 1999. – 169 с.

9. Михеев П.П., Флусов Е.В. Комплексное применение физических упражнений в огневой подготовке курсантов и слушателей вузов МВД России: монография – Брянск: БФ ВИПК МВД России, 2015. – 147 с.

10. Дубровский В.Ю., Ветрова Ю.В., Кудинова А.И. Дуэльная стрельба как один из способов подготовки сотрудника органов внутренних дел в экстремальных условиях/Проблемы правоохранительной деятельности. 74-76 с

ISSN 3030-3230

OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISH VAQTIDA UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Iminov Abdujabbor Abduraxmon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi katta ofitseri

Annotatsiya: Maqolada xorijiy davlatlar armiyasida uchuvchisiz uchish apparatlarining qo‘llanilishi hamda uning samarasi haqida ma’lumotlar to‘planib, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davomida ularni samarali qo‘llashning afzalliklari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy davlatlar, zamonaviy informatsion texnologiyalar, uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA), ommaviy tadbirlar, jamoat xavfsizligini ta’minlash.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyev Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrifi chog‘ida zamonaviy axborot texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar haqida fikr bildirib: “Sizlar hozirgi islohatlarda bizning eng ishongan kuchimiz. Kelajakda sizdek mutaxassislarga ehtiyoj yanada oshadi. Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi”-deya ta’kidlab IT sohasi rivojlanishini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qator vazifalarni belgilab bergan edi [1].

XXI asr – Axborot texnologiyalari asri ekanligi barchamizga ma’lum. Zamonaviy texnologiyalar - jamiyatimizning barcha jabhalari singari Qurolli Kuchlarimiz harbiy salohiyatini yuksaltirish, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnologiyalar ham takomillashib bormoqda. Ushbu texnologiyalarning yaralish negiziga, uning maqsadiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bularning barchasi insonning turmush tarzi, yashash sharoitini yengillashtirayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda ommaviy tadbirlar o‘tazish vaqtida jamoat tartibini saqlash, omma to‘planadigan joylarda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, katta hajmdagi fuqarolarni o‘z ichiga oladigan tadbirlarni o‘tkazish va tadbir davomida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashda tadbirni xavfsiz o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxs tomonidan hududni yetarli darajada kuzatib tura olmasligi, o‘zining qo‘l ostidagi kuch va vositalarning to‘liq omma to‘plangan hududlarning o‘zgarish dinamikasiga qarab yo‘naltira olmasligi, kerakli vaqtda qo‘shimcha kuchlarni chaqirish uchun real vaziyatni bilmasligi, bir qancha muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun kun sayin rivojlanib borayotgan uchuvchisiz uchish apparatlari va ulardan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlashda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish foydadan holi bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari sohasida video kameralarga, dronlarga, uchuvchisiz uchish apparatlariga talab kuchaydi. Ushbu qurilmalarni insonlar o‘zlarining istaklaridan kelib chiqib, ko‘zlagan maqsadiga qarab foydalanishlari mumkin. Lekin, qurilmalardan foydalanishda xavfsizlik masalalarini ham e’tiborimizdan chetda qoldirmasligimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabr kunidagi 658-son “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ushbu masalalarga alohida to‘xtalib o‘tilgan [2].

Uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish imkoniyatlarini informatsion texnologiyalardan foydalanib kengaytirish va ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida jamoat xavfsizligini ta’minlashda ulardan foydalanish haqida fikr yuritar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda qaysi turdagi uchuvchisiz uchish apparatlari mavjud ekanligiga diqqatimizni qaratishni o‘rinli deb hisoblaymiz. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan kvadratkopterlarning kamerasi sifati, imkoniyatlari va texnik xususiyatlari ishlab chiqaruvchi kompaniya va modeliga qarab

farqlanadi:

1. DJI Phantom 4 Pro

- Kamera: 20 MP 1-inch CMOS sensor
- Video Qobiliyati: 4K @ 60fps
- Obyektiv: 24mm f/2.8, keng burchakli

Maxsus xususiyatlar: Rasmiy ajoyib tasvir sifati, 4K video yozish imkoniyati, yuqori aniqlikdagi suratga olish uchun 1 dyuymli sensor. Phantom 4 Pro maxsus tartibga solish va suratga olish jarayonlarini boshqarish uchun kengaytirilgan ilovalar bilan birga keladi.

2. DJI Mavic Air 2

- Kamera: 48 MP 1/2-inch CMOS sensor
- Video Qobiliyati: 4K @ 60fps, 8K Hyperlapse
- Obyektiv: 24mm f/2.8, keng burchakli
- Maxsus xususiyatlar: DJI Mavic Air 2 bir nechta video suratga olish rejimlari bilan jihozlangan, shuningdek, tasvir sifatini oshiradigan HDR videoni qo‘llab-quvvatlaydi. Kamera 48 MP fotosuratlar olishi mumkin, bu esa detallarni yuqori aniqlikda suratga olish imkonini beradi.

3. DJI Mavic 3

- Kamera: Dual-camera system (20 MP Hasselblad camera + 12 MP telephoto camera)
- Video Qobiliyati: 5.1K @ 50fps, 4K @ 120fps
- Obyektiv: 24mm f/2.8 (Hasselblad), 162mm f/4.4 (telephoto)
- Maxsus xususiyatlar: Mavic 3 modeli ilg‘or kamera tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib, u yuqori aniqlikdagi va tasvirning katta aniqligini ta’minlaydi. Dual kamera tizimi bir vaqtning o‘zida keng burchak va telefoto suratga olish imkonini beradi.

4. DJI Mini 3 Pro

- Kamera: 48 MP 1/1.3-inch CMOS sensor
- Video Qobiliyati: 4K @ 60fps
- Obyektiv: 24mm f/1.7, keng burchakli
- Maxsus xususiyatlar: DJI Mini 3 Pro kichik va yengil bo‘lishiga qaramay, 48 MP kamerasi va 4K video yozish imkoniyati bilan jihozlangan. Bu model O‘zbekiston sharoitida juda mashhur, chunki u ixcham va qulay bo‘lib, yuqori sifatli surat va video olishga imkon beradi.

5. Autel Robotics EVO Lite+

- Kamera: 50 MP 1-inch CMOS sensor
- Video Qobiliyati: 6K @ 30fps, 4K @ 60fps
- Obyektiv: 29mm f/2.8-f/11, o‘zgaruvchan diafragma
- Maxsus xususiyatlar: Autel EVO Lite+ yuqori aniqlikdagi 50 MP kamera bilan jihozlangan bo‘lib, o‘zgaruvchan diafragma va 6K video yozish qobiliyatiga ega. Bu dron ayniqsa professional suratga olish va videografiya uchun mos keladi.

6. Parrot Anafi

- Kamera: 21 MP 1/2.4-inch CMOS sensor
- Video Qobiliyati: 4K @ 30fps, HDR video
- Obyektiv: 23mm f/2.4, keng burchakli
- Maxsus xususiyatlar: Parrot Anafi modeli kichik va yengil, shuningdek, yuqori sifatli 4K video va HDR videoni suratga olish imkoniyatiga ega. Bu modelning o‘ziga xos tomoni - 180 daraja harakatlanuvchi kamera va 2.8x lossless zoom funksiyasiga ega bo‘lishidir [3].

Yuqorida nomlari keltirilgan UUA Respublikamizda mavjud bo‘lib, barcha sohalarda foydalanilmoqda.

Shu o‘rinda uchuvchisiz uchish apparatlari, dronlarni harbiy sohada, jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarida foydalanayotganligiga, ayniqsa, xorijiy tajribalarga diqqatimizni qaratishni o‘rinli. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, 1982-yilda Isroil Livanning Bekaa vodiysidagi Suriya qo‘shinlari va falastinlik jangarilarning pozitsiyalariga zarba berish uchun dronlardan foydalangan [4].

Yillar o‘tishi bilan sohadagi yangilanishlar natijasida uchuvchisiz uchish apparatlari ham takomillashib bordi. Har bir davlat o‘z xavfsizligini ta’minlash va harbiy salohiyatining qay darajada ekanligini namoyon qilish maqsadida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Masalan, keyingi yillarda AQSh butun dunyo bo‘ylab terrorchilarni ovlash uchun dronlardan foydalanishni boshladi. 2010-yildan 2020-yilgacha Qo‘shma Shtatlar 14 mingdan

ISSN 3030-3230

ortiq shunday hujumlarni amalga oshirdi [5]. Qo‘shma Shtatlarda, yaqin vaqtgacha, UAVlar yaqin kelajakda kuchli havo mudofaa tizimlariga ega qo‘shinlarga qarshi kurashda samarali bo‘lishi mumkinligiga ishonilmagan - ammo ular yengil qurollangan raqiblarga qarshi operatsiyalarning xususiyatlariga juda mos edi.

Bundan tashqari uchuvchisiz uchish apparatlari ya’ni dronlar iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lgan ob’yektlarga zarar yetkazish maqsadida ham qo‘llanilgan. 2018-yilda Suriyadagi Rossiya harbiy bazalariga birinchi marta portlovchi moddalar yuklangan dronlar tomonidan hujum qilindi. Qatlamli havo mudofaa tizimi mavjudligiga qaramay, dronlar bir nechta rus samolyotlarini yo‘q qildi yoki shikastladi.

2019-yilda Yamanning husiy isyonchilari Saudiya Arabistonidagi neftni qayta ishlash zavodiga hujum qilish uchun qanotli raketalar va Eronda ishlab chiqarilgan 18 ta kamikadze dronlardan foydalangan. Dronlar juda past balandlikda uchgan, shuning uchun ular Saudiya havo mudofaa tizimlari tomonidan aniqlanmagan. Hujum natijasida Saudiya Arabistoni neft qazib olishni taxminan yarmiga qisqartirdi va iqtisodiy zarar yuzlab million dollarni tashkil etdi [3].

Yaqin yillarga kelib Rossiya Federatsiyasida ham dronlarga, uchuvchisiz uchish apparatlariga bo‘lgan talab kuchaydi. Sababi, Rossiya tomonidan o‘tkazilayotgan harbiy amaliyotlarda zamonaviy harbiy qurol aslahalardan IT texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Qishloq xo‘jaligida foydalanilgan uchuvchisiz uchish apparatlari ham hozirgi kunda harbiy amaliyotlarda foydalanilmoqda. 2013-yilda Rossiya Mudofaa vazirligi tarkibida Rossiya Qurolli Kuchlari Bosh shtabining uchuvchisiz uchish apparatlarini qo‘llash tizimini qurish va rivojlantirish direksiyasi paydo bo‘ldi. 2021-yil oxirida Rossiya Mudofaa vazirligi dunyodagi eng katta uchuvchisiz flotga ega ekanligini e’lon qildi - 2 mingtagacha turli modeldagi dron mavjudligini ma’lum qilgan.

2022-yil Rossiya Qurolli Kuchlari razvedka va yong‘inni sozlash uchun dronlardan foydalanishni afzal ko‘rdi (shu jumladan, boshqa dronlar): ular nishonni aniqladilar, o‘t o‘chirishni boshqarish markaziga xabar berishdi va artilleriya yoki raketa zarbasidan so‘ng Rossiyaga yetkazilgan zararni qayd etishdi. Rossiya ommaviy axborot vositalari 2023-yilning fevral oyida rus tanklari Ukrainadagi bilvosita pozitsiyalardan uchuvchisiz samolyotlar yordamida o‘q uzganini xabar qildi [3].

Ukraina Qurolli Kuchlarining strategik zaif tomonlaridan biri uzoq masofaga mo‘ljallangan qurollarning, masalan, aviatsiya, ballistik va qanotli raketalarning surunkali yetishmasligi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Buning natijasida Rossiya Qurolli Kuchlari Ukraina hududiga chuqur zarbalar berishga qodir. Bundan tashqari, 2021-yilda Ukraina Qurolli Kuchlarida aniq qurollar deyarli yo‘q edi. Ushbu ehtiyoj G‘arb ittifoqchilari tomonidan faqat qisman qoplandi [3].

Shu o‘rinda uchuvchisiz uchish apparatlari qaysi davlatlarda va qay maqsadda o‘ylab topilgan degan savolga javob izlashimiz o‘rinli deb o‘ylaymiz. Dastlab UUA Xitoyda tijorat maqsadida yaratilgan. Keyinchalik Turkiya, Rossiya va boshqa davlatlarda ushbu qurilmalar yaratilmoqda.

Yuqoridagi misollardan biz, dronlardan qaysi o‘rinlarda foydalanilayotganligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Mamlakatimizda esa dronlar asosan, davlat tadbirlarida, badiiy tadbirlarda tasvirga olish ishlarida foydalanilishi ma’lum bo‘ldi.

Shu bilan birga, 2022-yilning 1-2-iyul kunlarida Nukus shahrida yuz bergan ommaviy tartibsizliklar paytida ham dronlardan Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘mondonligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Matbuot bo‘limi xodimlari tomonidan foydalanilgan. Hozirgi kunga kelib, Nukus shahrining barcha ko‘chalari va mahallariga videokuzatuv kameralari o‘rnatilmagan. Bu holat ham yuz berishi mumkin bo‘lgan kriminogen vaziyatlarning oldini olishda qiyinchilik tug‘dirishi aniq. Videokuzatuv kameralari asosan Nukus shahrining Do‘stlik alleyasi, Do‘stlik kanallari bo‘ylariga joylashgan. 2022-yil 1-2-iyulda Nukus shahrida yuz bergan ommaviy tartibsizliklarda videokuzatuv kameralari ham pand bergan. [6]. Birinchidan, fuqarolar tomonidan kameralar urib sindirilgan, ikkinchidan ommaviy tartibsizliklar bo‘layotgan paytida tartibsizlik sodir etayotgan fuqarolarning aniq sonini bilish, ular qanday qurollar bilan yoki talofat yetkazuvchi buyumlar bilan qurollanganini tahmin qilish qiyin edi. Ko‘ngilsiz hodisa yuz berayotgan paytda foydalanilgan dronlar soni kam bo‘lgan va tahlil qilib, vaziyatni yumshatish uchun lozim bo‘lgan qarorlarni qabul qilish ham qiyin kechgan.

Natijada harbiy xizmatchi va xodimlarning harbiy qurol aslahalari, aloqa vositalariga turli darajadagi zararlar yetkazilgan. Agarda ushbu ko‘ngilsiz hodisalar yuz bergan o‘rinda dronlar foydalanilganda edi. Aniq va to‘g‘ri qarorlar qabul qilingan bo‘lar edi.

Aynan Nukus voqealariga o‘xshash voqealar sodir bo‘lgan vaqtda yoki ommaviy fuqarolar yig‘iladigan har xil turdagi ommaviy tadbirlar, futbol va konsertlarni, xalq sayllarini o‘tkazish vaqtida UUAlardan foydalanish imkoniyarlarini kengaytirish uchun quyidagi biz foydalanilagan UUA o‘zida quyidagi faktorlarni mujassan etishi lozim:

Yuqori sifatli tasvir uzata olish imkoniyatiga ega bo‘lgan kamera video va foto tasvilar sifat Full HD yoki 4K dan yuqori bo‘lishi kerak;

Biz foydalanmoqchi bo‘lgan UUA maxsus maydonni o‘lchash sensorlarini qo‘yishimiz lozim. Chunki ommaviy tadbirlar vaqtida olamon oqimini nazorat qilish uchun bevosita u joylashgan maydonni, olamon zichligini bilishimiz lozim.

Ushbu ikki ma’lumotni tahlil qilish uchun maxsus algoritm ishlab chiqish va tasvirga olingan rasm va maydonni tahlil qilish imkoniyatini berdigan dastur ishlab chiqishimiz lozim.

Yuqorida biz O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan Full HD yoki 4K sifatda tasvilar olish imkoniyatiga ega bo‘lgan UUAlar haqida ma’lumot berdik. Bu ma’lumotlarga maxsus dastur yordamida ishlov berish uchun biz tasvirni yuqorida kamera olgan sifati bo‘yicha qabul qilib olishimiz lozim. Buning uchun biz UUAga tasvirni Full HD yoki 4K sifatda uzatish imkonini beradiga Wi-fi rotor o‘rnatishimiz va ushbu ma’lumotni o‘sha sifatda qabul qilish imkonini beradigan Windows operatsion tizimda ishlaydigan maxsus UUAni boshqarish pultini olishimiz lozim.

Maydonni yuqoridan turib o‘lchash uchun maxsus hozirgi kunda kadastr tizimida foydalanib kelinayotgan maxsus masofadan maydon o‘lchash sensorlarini o‘rnatishimiz lozim. Ushbu sensorlar bizga ommaviy tadbirlar o‘tkazish vaqtida olamon joylasgan maydonni kattaligini aniqlash imkonini berad. Shu o‘rinda olamon joylashgan maydon biz uchun nima sababdan kerakligini tushunturib o‘tishni lozim deb bildim. Ingliz olimi J. Fruinning olamon haqidagi nazariyaga to‘xtalib o‘tamiz.:

f (p) = p*v(p)


Bu yerda

f (p)-olamon oqimi tezligi
p- olamon zichlik
v (p)- olamon tezligi.

Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turubdiki, olamon oqimini tezligini aniqlash uchun olamon zichligini olamon tezligiga ko‘paytirishimiz lozim. Shuningdek, u o‘zi olib borgan tadqiqoti doirasida o‘rtacha odamlarning o‘lchamlari, 1 metr kvadrat maydonga maksimal darajada joylashadigan olamon, ularning 1metr kvadrat maydonga sig‘ish soniga qarab tariflar bergan.

Kvadrat metrga ikki kishi
Kvadrat metrga uch kishi
Kvadrat metrga to‘rt kishi
Kvadrat metrga besh kishi
Kvadrat metrga besh kishi (qadamda yurish)
Kvadrat metrga olti kishi
Zichlikka qarshi oqim


Ushbu tasvirlarda u insonning gabarit o‘lchamlarini va dunyodagi xalqlarning o‘rtacha gavda o‘lchamlarini ko‘rsatib o‘tgan.



Population	Breath (cm)	Depth (cm)	Area (m2)
British Males	51.00	32.50	0.26
British Females	43.50	30.50	0.21
Polish Males	47.50	27.50	0.21
Polish Females	41.00	28.50	0.18
Japanese Males	41.00	28.50	0.18
Japanese Females	42.50	23.50	0.16
Hong Kong Males	47.00	23.50	0.17
Hong Kong Females	43.50	27.00	0.18
Elderly Males	48.00	29.00	0.22
Elderly Females	41.50	30.50	0.20
USA Males	51.50	29.00	0.23
USA Females	44.00	30.00	0.21
French Males	51.50	28.00	0.23
French Females	47.00	29.50	0.22
Swedish Males	51.00	25.50	0.20
Swedish Females	42.50	30.00	0.20
Swiss Males	47.50	29.50	0.22
Swiss Females	45.50	32.50	0.23
Indian Males	45.50	23.50	0.17
Indian Females	39.00	25.50	0.16
Average	45.58	28.20	0.20
Maximum	51.50	32.50	0.26

1-rasm. Qo‘zg‘almas va harakatlanuvchi nishonlarga bir xil shartlar bilan bajarilgan o‘q otish mashqlaridan olingan natijalarning yig‘indisi. (grafik ko‘rinishda)

ISSN 3030-3230



2-rasm. 1 metr kvadratga odamning joylashishi hamda ayol va erkaklarning o‘rtacha gabarit o‘lchamlari

Bu suratlarda esa insonning 1 m^2 maydonda yuqoridan qanday o‘lchamda ko‘rinishi va insonlarning o‘rtacha gabarit o‘lchamlari haqida yoritib o‘tgan [7].

Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib biz olamonning sensorlar yordamida o‘lchangan maydondagi holatini monitoring qilishimiz mumkin.

Keltirilib o‘tilgan misollar, Respublikamizda IT sohasini yanada isloh qilish, yaratilgan zamonaviy texnologiyalarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Sababi, dunyoning rivojlangan davlatlari hududida yuz berayotgan hodisalardan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish foydadan holi bo‘lmaydi. Shu bilan birga ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minash uchun aynan uchuvchishiz uchish apparatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu apparatlar yordamida yuqori sifatli tasvirlarni olish, ushbu tasvilarga axborot texnilogiyalardan foydalanib raqamli ishlov berish, u yerda joylashgan fuqarolarning sonini, ular joylashgan maydonni aniqlash va o‘zimizda mavjud bo‘lgan kuch va vositalarni fuqarolar to‘plangan hududga yo‘naltirish, kerak bo‘lsa qo‘shimcha kuchlarni jalb etish bo‘yicha tadbir o‘tkazilishi uchun mas’ul bo‘lgan rahbarga takliflar bera oladigan dasturiy ta’minot ishlab chiqish shart va zarur.

Аннотация: В статье собрана информация о применении беспилотных летательных аппаратов в армиях иностранных государств и их эффективности, приведены преимущества их эффективного применения при проведении массовых мероприятий и обеспечении общественной безопасности в нашей стране.
Ключевые слова: зарубежные страны, современные информационные технологии, беспилотные летательные аппараты (БПЛА), обеспечение общественной безопасности.
Annotation. The article collects information about the use of unmanned aerial vehicles in the army of foreign countries and its effectiveness, citing the advantages of ensuring public safety in our country and their effective use during the holding of mass events.
Key words: foreign countries, modern Informational Technologies, unmanned aerial vehicles (UUA), ensuring public safety.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://president.uz/oz/lists/view/6937 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Raqamli texnologiyalar sohasidagi natijalar va rejalar bilan tanishdi.
2. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabr kunidagi 658-son “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
3. www.wikipedia.org Uchuvchisiz uchish apparatlari haqida ma’lumot
4. www.wikipedia.org Dronlar haqida ma’lumot
5. www.google.ru AQSHdagi uchuvchisiz uchish apparatlari
6. 2022-yil 1-2-iyul kunlari Nukus shahrida yuz bergan ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar bilan suhbatlar.
7. https://www.gkstill.com./CV/PhD/chapter.html

UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA O‘QUVLARNI TASHKIL ETISH

Jo‘rayev Abdurauf Aliyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi

Аннотация. **Mazkur maqolada bugungi kunda dunyoda harbiy harakatlarda qo‘llanilayotgan harbiy taktika va strategiyalar maktab yoshidan boshlab fuqarolarni uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishga o‘qitishni, kelajakda fuqarolik va harbiy sohalarda dron bo‘yicha muhandis va mutaxassislarga bo‘lgan talab keskin o‘sishini inobatga olgan holda, ta’limning boshlang‘ich davrlarida dronlarni o‘rgatish orqali yoshlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog‘langan holda ongini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.**

Kalit so‘zlar: Maktab, UUA, dron, o‘quvchilar, yoshlar, harbiy soha, uchuvchisiz aviatsiya tizimi, o‘quv dasturi, operator.

Bugungi kunda dunyoda harbiy harakatlarda qo‘llanilayotgan harbiy taktika va strategiyalar maktab yoshidan boshlab fuqarolarni uchuvchisiz uchish apparatlaridan (keyingi o‘rinlarda dron) foydalanishga o‘qitishni talab qilmoqda.

Kelajakda fuqarolik va harbiy sohalarda dron bo‘yicha muhandis va mutaxassislarga bo‘lgan talab keskin o‘sishini inobatga olgan holda, ta’limning boshlang‘ich davrlarida dronlarni o‘rgatish orqali yoshlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog‘langan holda ongini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

2016 yildan boshlab Koreya Respublikasi maktablarida **dronlarni boshqarishga oid yangi fan** joriy etilib, o‘quvchilarga **Byrobot Drone Fighter** dronlaridan (33 gramm) 7 yoshdan boshlab foydalanishga ruxsat berilgan [1].

E’tibor qaratish lozimki, hozirda maktablarda dronlar bo‘yicha ta’lim berayotgan mamlakatlar soni **50 dan** ortiq bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

AQSh Mehnat statistikasi byurosi, Federal fuqarolik aviatsiyasi, Milliy ta’lim statistikasi markazi tadqiqotiga ko‘ra, kelgusi **10 yil**da jahonda dron mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj **11 foizga** ortishi prognoz qilingan.

AQSh mehnat bozoriga zarur bo‘lgan mutaxassislarni **maktab yoshidan boshlab tayyorlashni** moliyalashtirish va ushbu jarayonda ishtirok etayotganlarni rag‘batlantirish maqsadida hukumat va xususiy sektorlar hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan, shuningdek, Federal fuqarolik aviatsiyasi va AQSh Ta’lim vazirligi bilan idoralararo qo‘mita tuzilib, muntazam maslahatlashuvlar o‘tkazib kelinadi.

Amerikada dronlarni maktab o‘quv dasturlariga integratsiyalash loyihasi Federal fuqarolik aviatsiyasi tomonidan taqdim etilib, **9-12-sinflar** uchun “Technical Studiyes” (Mehnat darsi) faniga kiritilgan [2].

Oliy o‘quv yurtlari va kollejlarda dronlar haqidagi fanlar **“Texnik kurslar”**ga, Ijtimoiy fanlar dasturiga esa **“Axborot etikasi”** fani kiritilgan.

AQShda “Youth Drone Camps” dasturi orqali **8-11 va 12-17 yoshdagi** o‘quvchilar dronni boshqarish, dron poygasi, fotosurat va videografiya, hududlarni belgilash kabi bilimlarga ega bo‘ladi.

Ilmiy eksperimental havo tadqiqotlari (SEAR) dasturi o‘rta maktab o‘quvchilari uchun dronlardan foydalangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni o‘rgatadi. “**Years Drone Program**” (MYdrone) dasturi orqali **7-9-sinf** o‘quvchilari dron texnologiyasi asoslarini va turli sohalarda dronlardan qanday foydalanishni o‘rgatadi.

“**Drones in the Classroom**” dasturi o‘qituvchilarga o‘quv dasturlariga dronlarni kiritish uchun zarur bo‘lgan bilim va strategiyalarni beradi. Bularning barchasi AQSh federal aviatsiya ma’muriyati bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

AQSh Federal aviatsiya ma’muriyati (Federal Aviation Administration) universitetlar, kollejlar va texnik maktablar uchun ishlab chiqilgan dron tizimlarini o‘qitish tashabbusi (UAS-CTI) dasturi asosida ishlarni tashkil etadi.

Dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning

ISSN 3030-3230

keskinlashuvi, ayniqsa Rossiya va Ukraina konflikti natijasida jangovar harakatlar bo‘layotgan va chegara hududlardagi mamlakatlar o‘z xavfsizligini ta’minlashning strategik yechimi sifatida maktab yoshidan boshlab harbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirishga asosiy e’tiborni qaratmoqda.

Xususan, **Rossiya**ning 2023 yildagi **“Uchuvchisiz aviatsiyaning 2030 yilgacha va istiqboldagi 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasi”** ga muvofiq, maktablarda dronlarni boshqarishni o‘rgatish mantiqiy to‘g‘riligi va zaruratdan kelib chiqib, o‘qitish va professional kadrlarni tayyorlash bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimi joriy etilgan.

Rossiyaning Federal davlat ta’lim standartiga muvofiq **5-9 sinf** o‘quvchilari **“Mehnat (texnologiya)”** fani doirasida **34 soat** dronlardan foydalanish va yig‘ishga o‘qitiladi [3]. **10-11-sinflar** uchun boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturiga dronlardan foydalanish asoslarini o‘rgatish kiritilib, bunda **“Vatan xavfsizligi va mudofaasi asoslari”** fani doirasida maktab o‘quvchilariga **56 soat** dronlardan jangovar foydalanish usullari va razvedka ishlari o‘rgatiladi. Shuningdek, ularga dushmanning uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi turish, razvedka ishlarini olib borish va ulardan jang maydonida foydalanish usullari o‘rgatiladi.

Bu borada, ta’lim muassasalarini dronlar bilan ta’minlash, o‘quv parvoz uchun kerakli joylar, ixtisoslashtirilgan sinf xonalari, ta’mirlash stansiyalari va 3D bosib chiqarish uskunalari bilan jihozlangan. **2030** yilga qadar **4 872 ta** maktab va **370 ta** kollejni dronlar bilan jihozlash rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Rossiyada maktab o‘quvchilarini dronlar bilan ishlashga tayyorlaydigan turli davlat va xususiy tashkilotlarning kurslari hamda to‘garaklari mavjud.

Xususan, 2024 yilning yangi o‘quv mavsumidan boshlab **523 ta** maktab va **30 ta** kollejlarda dronlarni boshqarishni o‘rgatishga ixtisoslashgan to‘garaklar tashkil etilgan [4].

Voronej davlat texnika universiteti negizida 10 tadan ortiq to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Sevastopolda mahalliy Mudofaa ishlar bo‘linmalari mutaxassislari tomonidan “**Yosh UUA operatori**” kurslari amalga oshiriladi. Kursning davomiyligi **uch oy.**

Uxta shahrida “**UUA operatorlari maktabi**” loyihasi tasdiqlanib, bu erda **5-11 sinf** o‘quvchilari uchun **68 soat** (haftasiga *2* soat) hajmida mashg‘ulot va treninglar o‘tkaziladi. Mazkur o‘quv maktabining yakunida namunaviy o‘quv sertifikati beriladi [5].

Rossiyada dron operatorlarini tayyorlashni **kasbiy va oliy ta’lim muassasalarida** amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur kurslar **9 va 11-sinf bitiruvchilari** uchun mo‘ljallangan, elektron va masofaviy ta’lim usullaridan foydalanish imkoniyati bilan kunduzgi ta’limni o‘z ichiga oladi.

Amaliy mashg‘ulotlar kursning muhim qismi bo‘lib, kamida **900 soatni** tashkil etadi, bu talabalarga ushbu sohada ishlash uchun zarur ko‘nikmalarni beradi.

Ta’lim davomiyligi **11-sinf** bitiruvchilari uchun – **2 yil 10 oy, 9-sinf** bitiruvchilari uchun – **3 yil 10 oy** etib belgilangan.

O‘qishni tugatgandan so‘ng o‘quvchilar yakuniy attestatsiyasidan o‘tadi va diplom taqdim etiladi.

Xalqaro yetakchi tahlil markazlari 2025 yilga kelib jahon dron bozori **43 mlrd** AQSh dollarga yetishini va bu esa ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlash muhimligini ta’kidlaydi.

Dronlarni o‘qitish bo‘yicha pedagoglarni tayyorlash Rossiya uchun birlamchi ahamiyat kasb etadi, chunki unga qarshi davlatlarda bu borada asosan Yevropa va AQSh mutaxassislarining faol yordami orqali amalga oshirilmoqda.

Shu bois, Moskva davlat universitetida “**Pedagogik kadrlar uchun uchuvchisiz aviatsiya tizimlarini boshqarish asoslari**” bo‘yicha maxsus dastur asosida tayyorlanib, ularga bolalar uchun boshlang‘ich, o‘rta, umumiy ta’lim tizim doirasida ta’lim berishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rgatiladi.

Shuningdek, har yili Rossiyada **“Uchuvchisiz aviatsiya tizimlari uchun kadrlar” federal loyihasi** doirasida **2 500 maktab** va **523 kollejdan 30 nafardan o‘qituvchilarga** dronlarni boshqarish, demontaj qilish va yig‘ish o‘rgatiladi. O‘quv dasturi **268 soat.** Mazkur dastur asosida tayyorlangan pedagoglar o‘quvchilarga dars berishi mumkin.

Federal loyiha doirasida 2030 yilga qadar **1 mln.** maktab va kollej o‘qituvchilarini tayyorlash belgilangan.

2024 yil sentyabr oyida Federal loyiha doirasida Rossiyada "Mehnat" darsining robototexnika modulida dronlarni o‘rganish bo‘yicha **birinchi darslik** taqdim etildi. Bu 8-9-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan [6].

Shuningdek, dronlarni maktab o‘quvchilariga o‘rgatish va bu sohaga keng jalb etishning yana bir yo‘li sifatida sport tanlanib, Rossiyada dronlar poygasi sporti keng qamrovda o‘tkazilib kelinadi. Sportchilar yetkazib berishda "**Rossiya dron poygalari federatsiyasi**" yetakchi bo‘lib yoshlarni keng jalb etilishini ta’minlaydi. Rossiyada "Dron poygasi" sport turi 2023 yilda butunrossiya sport reestriga kiritilgan.

So‘nggi ikki yilda Ukrainadagi konflikt dronlar zamonaviy jang maydonini tubdan o‘zgartirganini ko‘rsatdi. Bu borada Ukraina kichik o‘lchamli dronlarni (FPV) boshqarish, demontaj qilish, yig‘ish bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘ldi.

Bunga Ukrainadagi 35 ta o‘quv maktabi va 500 dan ortiq dron ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Ukrainadagi yana bir eng ilg‘or loyihalardan biri "Xalq droni" loyihasi bo‘lib [7], unda har bir ukrainalik uyida dronlarni yig‘ishi, boshqarishi, sotish uchun shartnomalar tuzishi mumkin.

Shu bilan birga, Ukraina dunyoda yagona "Dron qo‘shin" turi tuzildi. Unda **20 000 nafar** dron operatori xizmat olib boradi, shuningdek, dunyodagi eng yirik **uchuvchisiz aviatsiya flotini** tashkil etdi.

Bu o‘z navbatida, dronlarni boshqarish bo‘yicha mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Shu bois, **2023 yil** sentabr oyidan boshlab Ukraina maktablarida "**Ukrainani himoya qilish**" fanining yangilangan dasturi asosida dronlarni boshqarish bo‘yicha darslar o‘tilmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarining dastlabki davrlaridan boshlab harbiy kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratila boshlandi va og‘ir davrlarda birinchi navbatda sohadagi qonun hujjatlarini tartibga solishga alohida urg‘u berildi. Bu borada bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, eng asosiysi kadrlar bilan butlash tizimi, moddiy texnik bazaning yomon ahvolga kelib qolgani hamda harbiy xizmatchilarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimidagi hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan.

1992-yil 10-yanvardagi Prezident qarori asosida SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlarining O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan qo‘shilmalari, alohida qismlari va bo‘linmalari O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasiga olinib respublika Ichki ishlar vazirligi qaramog‘iga o‘tkazildi va ularning negizida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlari qo‘shilmasi tashkil etildi [2]. Shu bilan birga SSSR Ichki ishlar vazirligining Toshkentdagi oliy maktabi (hozirgi IIV Akademiyasi) va SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlarining Toshkentdagi oliy harbiy-texnika bilim yurti (hozirgi Jamoat xavfsizligi universiteti) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qaramog‘iga o‘tkazildi.

Qayd etish lozimki bu orqali bugungi kunda mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tizimiga professional kadrlar tayyorlab kelinayotgan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi hamda Jamoat xavfsizligi universitetining tarixiy faoliyatidagi yangi davr boshlandi va mazkur muassasalardagi oliy harbiy tizim yillar davomida turli huquqiy hujjatlar asosida takomillashtirib borildi.

Ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, mazkur muassasalar faoliyati tuzilmaviy bo‘ysunuvidagi turli o‘zgarishlarga qaramasdan, ularning kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va umumiy spektri birinchi navbatda ichki xavfsizlikni ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlashdan iborat bo‘lib qoldi.

Bundan tashqari o‘tgan yillar mobaynida Qurolli Kuchlar tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilib, ularning huquqiy asoslari muntazam ravishda takomillashtirib borildi. Xususan, 1993-

yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun texnik mutaxassislar tayyorlash to‘g‘risida” Qarori qabul qilinib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 1993-1994-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi mudofaaga yordam beruvchi “Vatanparvar” tashkiloti maktablarida va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining hunar-texnika o‘quv yurtlarida Qurolli Kuchlar uchun texnik mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi [3].

Mazkur hujjat “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq va Qurolli Kuchlarni texnik ixtisoslarni egallagan harbiy burchli kishilar bilan ta’minlash zaruriyati yuzasidan ishlab chiqilgan bo‘lib, dastlabki yillarda Ittifoq respublikalariga ketgan kadrlarni o‘rnini to‘ldirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sababli vujudga kelgan. Shu jihatdan mas’ul tashkilotlar tegishli muddatlarda mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash ustidan nazoratni kuchaytirish, o‘quv yurtlarini zarur harbiy texnika, aslaha-anjom va mol-mulk bilan ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatish hamda moddiy-texnika bazasini zarur darajada rivojlantirishga alohida urg‘u berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, o‘quv muassasalari tinglovchilari hamda kursantlariga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, o‘quv muassasalari tinglovchilari hamda kursantlariga tibbiy xizmat ko‘rsatishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy-davolash muassasalariga IIV, FVV, Milliy gvardiya va DXX harbiy xizmatchilarini, katta ofitserlarining oila a’zolarini, o‘quv muassasalari tinglovchilari hamda kursantlarini belgilangan tartibda tuziladigan shartnomalarga asosan statsionar davolash vazifasi yuklandi [4].

Mazkur qaror harbiy xizmatchilar, shu jumladan, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursant va tinglovchilari hamda ularning oila a’zolarining salomatligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy-davolash muassasalari tomonidan tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda IIV, FVV va Milliy gvardiya ovqatlanish, kommunal xizmatlar, hammom-kirxona xizmati, dori vositalari va tibbiyot buyumlari uchun qilingan xarajatlarni Mudofaa vazirligiga qoplab berishi, ushbu mablag‘lar keyinchalik Mudofaa vazirligining moddiy-texnik bazasini takomillashtirishga yo‘naltirilishini ko‘zda tutgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ma’lum bir vaqt davomida harbiy xizmatchilarga tibbiy xizmat ko‘rsatish, chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘riklar va davolash markazlashtirilgan holda Mudofaa vazirligining Markaziy gospitalida amalga oshirib kelingan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi 1996-yil 1-yanvardagi holatiga ko‘ra shtatdagi 127 nafar xodimlari bilan ichki qo‘shinlarning garnizon gospitalini (Navoiy sh.) belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi balansiga berilgan. Shu bilan birga IIV, FVV, Milliy gvardiya va DXX smetasida harbiy xizmatchilarini davolash uchun har yilgi mablag‘larni ajratish ham ko‘zda tutilgan.

Keyinchalik esa, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi ayrim tuzilmalarning alohida tibbiyot muassasalari tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchi va xodimlar hamda ularning oila a’zolariga tibbiy yordam berish yo‘lga qo‘yildi va mazkur muassasalar faoliyati bugungi kunda ham tobora takomillashib bormoqda.

Yana bir muhim yo‘nalishlardan biri oliy harbiy ta’lim muassasalarida kadrlarni tanlash va tayyorlash tizimi doimiy darajada tanqidiy tahlil qilinib, sohadagi tartiblarni yanada mustahkamlashga urg‘u berib borilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlashning faol tizimini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan muntazam ishlar amalga oshirilib, tinglovchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy fanlarni o‘qitish sifatini, professor-o‘qituvchilar tarkibining kasb mahoratini oshirish, Akademiyaga kirish uchun nomzodlarni tanlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan monitoring va attestatsiya ishlari amalga oshirilgan.

Yuqoridagi masalalarning huquqiy asosi sifatida 1999-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida o‘quv-tarbiya jarayonini tekshirishni hamda uning rahbar va professor-o‘qituvchilar tarkibini attestatsiyadan o‘tkazishni tashkil qilish

ISSN 3030-3230

to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilingan [5].

Muhim jihati shundaki, mazkur muassasada ta’limning ilg‘or usullari sust joriy etilgani, o‘quv rejalari va dasturlari saviyasi zamon talablariga mos kelmasligi, armiyaning katta komandirlar tarkibini kasb jihatidan qayta tayyorlash tashkil qilinmaganligidan kelib chiqqan holda harbiy islohotning, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning eng dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan muhim hamda amaliy tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish jiddiy yaxshilanishi talab qilingan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mazkur akademiya respublika harbiy bilim yurtlari va umumfuqaroviy oliy o‘quv yurtlari harbiy kafedralari ilmiy-o‘quv va uslubiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy, eng samarali shakl hamda usullarini o‘rganish va joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarning tegishli oliy o‘quv yurtlari, akademik institutlari hamda boshqa tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish zaruriyati mavjud edi.

Shu tariqa muassasa faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqish, pedagog hamda rahbar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, ularning kasb mahoratini oshirish maqsadida, akademiyaning o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy bazasi, tinglovchilarning vatanparvarligini, o‘z Vataniga, harbiy burchiga mehr-muhabbati va sadoqatini hamda ma’naviy-irodaviy fazilatlarini oshirishga qaratilgan harbiy-tarbiya ishlari, Qurolli Kuchlarni isloh qilishning dolzarb muammolarini hal etishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, nomzodlarni o‘rganish va tanlash tartibi hamda o‘qituvchi va ofitser kadrlar bilan ta’minlash, ularning malakasini oshirish tizimini o‘rganish masalasi doimiy tusga kirgan va mazkur amaliyot hozirgi kunga qadar davom etmoqda.

Umuman olganda oliy harbiy ta’lim muassasalarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi (xodim) yoki yollangan tartibda xizmat qilayotgan professor-o‘qituvchilarning attestatsiyadan o‘tkizish tartibi amal qilib, asosiy maqsad ta’lim sifatini yaxshilash, zamon talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv dasturlarini takomillashtirib borish, kursant va tinglovchilarning harbiy intizomini yaxshilash hamda jangovar shayligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar doimiy ravishda monitoring qilish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat bo‘lgan.

Harbiy kadrlar tayyorlash yo‘nalishidagi islohotlar jamoat xavfsizligi tizimiga kadrlar tayyorlash yo‘nalishida ham amalga oshirilib, ayniqsa so‘nggi yillarda bu borada huquqiy asoslar tubdan takomillashtirilib, oliy harbiy ta’lim muassasalari faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xususan, ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilinib, IIV Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etildi [6].

Mazkur qaror asosida akademiyadagi ta’lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilib, birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o‘qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda olib borilishi, bakalavriat dasturi bo‘yicha o‘qitish kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida tashkil etilishi, shuningdek, ularga o‘qishga qabul qilish ichki ishlar vazirining o‘rinbosari raisligida tashkil etiladigan maxsus kasbiy tanlov va ochiqlik mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali amalga oshirilishi belgilandi. 8 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, 3 ta magistratura, 7 ta kasbiy tayyorgarlik mutaxassislari bo‘yicha kadrlar tayyorlash tartiblari tasdiqlandi. Shuningdek, ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o‘quv-karyera jarayonida safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibining malakasini oshirish yuzasidan muhim o‘zgarishlar amalga oshirilishi aniq belgilab qo‘yildi.

Shu bilan birga mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarning kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash

sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tashkil etildi hamda malakali kadrlarni maqsadli tayyorlashni amalga oshiruvchi bazaviy oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi [7].

Ahamiyatli jihati universitetda IIV va Milliy gvardiya uchun jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining tegishincha jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi va pasport tizimi talablarini amalga oshirish yo‘nalishlarida kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Muassasada 15 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kursant, talaba va tinglovchilarni o‘qitish, 8 ta mutaxassislik bo‘yicha magistrant tinglovchilarni tayyorlash hamda sirtqi ta’lim shaklida o‘qitish va talabalarni umumfuqaroviy asosda tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga vatanparvar, mard, jasur va professional kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga egadir Zero, zamonaviy sharoitlarda barcha talablarga to‘laqonli javob bera oladigan kadrlar milliy armiyaning mustahkam tayanchi, Vatanimiz xavfsizligining barqaror qo‘rg‘oni bo‘lib xizmat qiladilar.

Аннотация. В статье на основе исторического анализа освещены правовые основы подготовки профессиональных кадров для Вооруженных Сил Республики Узбекистан и системы правоохранительных органов в годы независимости. Представлена информация о подготовке кадров для системы поддержания общественного порядка и безопасности при реформировании системы высшего военного образования.

Ключевые слова: общественная безопасность, военнослужащие, военный патриотизм, военное образование, общественный порядок, военная медицина, военная дисциплина, обороноспособность, профессиональное военное образование.

Annotation. This article, based on historical analysis, highlights the legal basis for training professional personnel for the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and the law enforcement system in the years of independence. Information was also provided on training personnel for the public order and security system and reforming the system of higher military education.

Key words: public safety, military personnel, military patriotism, military education, public order, military medicine, military discipline, defense capability, professional military education.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. president.uz/uz/lists/view/5821.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari va o‘quv yurtlari to‘g‘risida. 1992-yil 10-yanvar, PF-318-son. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 2-son, 101-modda). https://lex.uz/acts/148222

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 06.09.1993.
444-son. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun texnik mutaxassislar tayyorlash to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/631439

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 27.09.1996.
336-son. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, o‘quv muassasalari tinglovchilari hamda kursantlariga tibbiy xizmat ko‘rsatishni tartibga solish to‘g‘risida https://lex.uz/docs/476070

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida o‘quv-tarbiya jarayonini tekshirishni hamda uning rahbar va professor-o‘qituvchilar tarkibini attestatsiyadan o‘tkazishni tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoyishi. 02.02.1999. F-951-son. https://nrm.uz/contentf?doc=456634

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida 15.04.2021. PQ-5076-son. https://lex.uz/docs/5377619

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 15.04.2021. PQ-5077-son. https://lex.uz/docs/5377545

ISSN 3030-3230

MERGANLIK - JANGOVAR TAYYORGARLIK HARBIY SAN'ATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Saminjanov Mashrab Abdugaparovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus taktik tayyorgarligi va jangovar qo'llash kafedrasi o'qituvchisi

Mamarasulov Davron Xasanovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
fakultet boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Maqolada tarixda jangovar tayyorgarlikni rivojlanishi, harbiy san'atning rivojlanishi, qadimgi zamonda jangovar tayyorgarlikning roli, jangovar tarkib, zarba beruvchi va uloqtiruvchi qo'rollarning shuningdek, snaperning paydo bo'lishi masalalari va uni o'rganishning ahamiyati yoritilgan.**

Kalit so'zlar: jangovar taktika, jangovar tayyorgarlik, harbiy san'at, strategiya, taktika va operatsiyani paydo bo'lishi, manyovr, jang olib borish qo'rollari, snayper.

Jangovar tayyorgarlik armiya qudrati, uning janglarga tayyorlik darajasi, ya'ni jangovar shayligini belgilovchi, demakki, jangda va boshqa vazifalarni bajarish chog'ida natijani, g'alabani ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, jangovar tayyorgarlik kabi ko'p tomonlama jarayonni boshqarish muammosi muntazam armiya paydo bo'lishi bilan ayniqsa keskinlashgani ayon bo'ladi. Qo'shinlarni tayyorlashning ichki tizimi, qoida tariqasida, ma'lum bir moslashuvchanlik, armiyaga qo'yiladigan yangi talablarga javob berish qobiliyati, uning kasbiy tayyorgarligi bilan ajralib turardi.

Bu borada Prezidentimiz quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadilar: "Shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo'shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g'alaba qozongani haqida misollar ko'p. Albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonida taktika va strategiyalari – bu alohida mavzu. Lekin bu ulug' sarkardalarning o'z askarlari qalbiga chinakam vatanparvarlikni, jangovor ruhni singdira olgani biz uchun bugun ham ibratlidir" [1. 134 b].

Jangovar tayyorgarlikni rivojlantirish, takomillashtirish masalasi haqida so'z ketganda, dastavval, insoniyat tarixida ilk yuzaga kelgan armiyalardan boshlab, tarix davomida yirik natijalar, yirik g'alabalarga erishgan armiyalar, bu armiyalarni boshqargan qo'mondonlar tajribasini, ishonchli manbalarda yozib qoldirilgan janglar tarixiga doir ma'lumotlarni chuqur o'rganish lozim bo'ladi.

Quldorlik jamiyatining harbiy san'atiga (eramizdan avvalgi VI a. va - V a.) nazar tashlaydigan bo'lsak harbiy san'at qadim zamonlardan XX asr boshlarigacha strategiya va taktika tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan. Strategiyani shakllanib borishi Qadimgi Sharq qo'shinlarining harbiy yurishlari vaqti bilan bog'lash mumkin. Ommaviy qo'shinlar paydo bo'lishidan oldin jangga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish masalalari strategik, keyinroq esa taktik darajadagi harbiy rahbarlar tomonidan hal qilingan. Ular yurishni tashkil etish, jangovar qo'riqlash va razvedka qilish, jang olib borish joyini tanlash, u yoki bu jangovar tarkibni tanlash bilan shug'ullangan. Feodalizm davrida, ayniqsa, urush san'atining ajralmas qismi bo'lgan o'qotar qurollarning paydo bo'lish bosqichida taktika oldinga sezilarli qadam tashladi. Yangi turdagi qurollar va harbiy texnika bilan jihozlangan ommaviy burjua qo'shinlarining urushlarida ishtirok etishida bu, harbiy harakatlar maqsadi, joyi va vaqti bo'yicha muvofiqlashtirilgan va o'zaro bog'langan qo'shinlar majmui sifatida operatsiya tushunchasining paydo bo'lishiga yordam berdi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda harbiy san'at uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: strategiya, operativ san'at va taktika. Harbiy san'at Qadimgi Sharqning quldorlik davlatlarida paydo bo'lgan, ular orasida eng yiriklari Qadimgi Bobil va Ossuriya, Qadimgi Misr, Urartu davlati, Xettlar davlati, Suriya, Fors, Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoydir. Armiya piyoda va otliqlardan iborat edi. Bu davrda

asosiy qurollar qilich, nayza va qalqon edi. Otish qurollari ham ishlatilgan bular, o‘qli kamon va tosh otish uchun moslama [2].

Qo‘shinlar jangovar tayyorgarligi, zamonaviy xususiyatlarini inobatga olganda, XX asrda hozirgi ko‘rinishga keldi.

Rossiyalik tadqiqotchi D.S.Mirgorodskiy Qurolli Kuchlar jangovar tayyorgarligi tarixi haqida fikr bildirar ekan, uzoq tarixdan misollar keltirib, sovuq qurol davrida jangchilar tayyorgarligida asosiy e’tibor ularning jismoniy chidamliligi, ham zarbali, ham uloqtiriladigan qurol bilan muomala qila olish mahorati, jamlangan jangovar tartibda jang qila olish mahorati kabilarga qaratilganligini, shuningdek, o‘q otar qurollar paydo bo‘lishi tayyorgarlikda katta o‘zgarishlarga olib kelganligini, mo‘ljalli o‘t ochish, qurolni tez o‘qlash, safda jipslanib harakatlanish kabi mahoratlar birinchi o‘ringa chiqarilganligini, zamonaviy jang qilish vositalari paydo bo‘lishi bilan harbiy xizmatchilarning bilim, ko‘nikma va mahorati hajmiga talablar anchayin oshganligini, zamonaviy harbiy fan yutuqlarini amalda qo‘llash uchun yuqori malakali harbiy kadrlar, uyg‘unlashgan bo‘linmalarga ehtiyoj yuzaga kelganligini, jangovar va operativ tayyorgarlik shu maqsadlarga yo‘nalganligini ta’kidlaydi [3. 69-78 s].

Demak, jangovar tayyorgarlik hozirgi ko‘rinishida birdaniga paydo bo‘lib qolmagan. Uning hozirgi darajaga yetishida, bir tarafdan, insoniyat tarixida yuz bergan urush va janglarda orttirilgan tajribalar, ikkinchi tarafdan, jang olib borish vositalarining rivojlanish tendensiyasi o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

O‘rta asrlardagi milliy tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Amir Temur tuzuklari” Amir Temur siyosatining barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, harbiy fan nuqtai nazaridan qaralganda, uning armiyasining tuzilishi, tarkibi, jangovar tayyorgarligi, jang olib borish usullari, taktik va strategik rejalari, o‘ziga xos harbiy qonunchiligi haqidagi qimmatli manbadir. Jumladan, “Tuzuklar”da jangga tayyorgarlik ko‘rish haqida quyidagi qoida bu borada yaxlit tasavvur beradi: “Amr etdimki, mening zafaru baxt keltiruvchi o‘tovimni [lashkar] boshiga olib chiqishgach, o‘n ikkita sipohiy favj tayinlasinlar. Ularning har biriga ulusot amirlaridan biri favj amiri etib belgilansin. U men tuzgan saf tizish, [g‘anim] sipohi favjlari safini buzish, jang maydoniga kirish va chiqish yo‘llari haqidagi o‘n ikki tuzukni doim nazarda tutishi lozim”[4. 102 b].

Amir Temurning harbiy san’at borasidagi tengsiz qobiliyati va tajribasi, ilg‘or va original armiya tuzganligi uning ulkan saltanat barpo etishdagi muvaffaqiyatiga xizmat qilgan. Jumladan, X.V.Dadaboyev ta’kidlaganidek, u o‘z ichiga tog‘li hududlarda jang olib borishga qodir bo‘lgan piyodalarni olgan maxsus harbiy qismlar tuzgan. Harbiy san’at tarixida birinchi bo‘lib, Amir Temur qo‘shinlarni maydonda yetti qismga bo‘lish usulini qo‘llagan [5. 27-28 s].

Amir Temur lashkarlarining urush va janglarga tayyorgarligining o‘ziga xosligi shundaki, umumiy strategik va taktik rejalar mavjud bo‘lgani holda, u har bir urushga alohida yondashuv asosida tayyorgarlik ko‘rgan.

Bu borada tarixchi olim Azamat Ziyoning quyidagi fikrlari e’tiborga loyiq: “Bir so‘z bilan aytganda, uning lashkardan, lashkarning esa undan ko‘ngli to‘q bo‘lgan holda janglarga kirishilgan. Amir Temur jang sur’atini ham oldindan rejalashtirib qo‘ygani ma’lum. Chunonchi, u joriy qilgan tartibga ko‘ra, agar g‘anim lashkari o‘n ikki mingdan ortiq, lekin qirq mingga yetmasa, lashkarboshilik shahzodalardan biriga yuklatilgan. Agar g‘anim qo‘shini qirq mingdan oshiq bo‘lsa, u holda Sohibqironning o‘zi lashkarga boshchilik qilgan [6. 190 b].

Sharoitga qarab Amir Temur lashkarning saf tortishi, jangga kirish tartibini o‘zgartirib turgan”. Amir Temur harbiy yurishlarni nihoyatda puxtalik va ortiqcha shov-shuvsiz tayyorlashga harakat qilgan. Shuning uchun ham uning qo‘shinlari g‘anim uchun kutilmagan vaqt va yerda paydo bo‘lib, qo‘qqisdan xamla qilib qolishi hech ran emasdi. Sohibqironning har bir yirik harbiy yurishdan oldin kengash o‘tkazishi odat tusiga kirgan. Kengashda u barcha yig‘ilganlarning fikrini tinglab, mazkur sharoitda eng maqbul yo‘lni tanlashga harakat qilgan” [7. 39 b].

Jangovar tayyorgarlik tarixi bo‘yicha Rossiya tajribasini A.V.Suvorov bilan bog‘lash mumkin. 1799 yilda A.V.Suvorov “Tog‘larda harbiy operatsiyalarni o‘tkazish qoidalari”ni ishlab chiqdi, o‘z askarlarini “har qanday vaqtda” (tinch va harbiy) o‘qitishni boshladi, qo‘shinlarni tayyorlashda o‘z prinsipini qat’iyat bilan amalga oshirdi. U “O‘qishda oson bo‘lsa – urishda qiyin bo‘ladi, o‘qishda qiyin bo‘lsa – urishda oson bo‘ladi”. Deb bejiz aytmagan edi. Jangovar tayyorgarlikda u “hujumlar orqali”, ya’ni ikki tomonlama armiya manyovrlarini joriy qildi. Ular hujum, mudofaa va boshqa janglarni har xil

ISSN 3030-3230

sharoitlarda mashq qilib bordilar. A.V.Suvorov armiyasining jangovar tayyorgarligini oshirish uchun yig‘inlar o‘tkazgan. Yig‘inlar ikki bosqichdan iborat edi: polk yig‘inlari va barcha turdagi qo‘shin bo‘linmalarining yig‘inlari. Piyoda bo‘linmalarida polklarni tayyorlash jarayonida o‘quv vazifalarni bajarishda rota, batalyon va polk miqyosida amalga oshirildi. Lager yig‘inlarini tashkil etish vaqti va joyi “Qo‘shinlarni yig‘ini jadvali”da aks ettirilib, mashg‘ulotlar tashkil etilgan [8. 2 s].

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak qadimgi davrda harbiy san’atga e’tibor katta bo‘lganligi, jangchilarni muntazam ravishda jang san’atiga tayyorlab borganligini ko‘rishimiz mumkin. Har bir jangchiga alohida nayza, qilich, xanjar, arbalet, kamon va boshqa qo‘rollar bilan ta’minlanib, ularning jangovar tayyorgarligiga alohida etibor qaratilgan. Shuningdek, harbiy yurishlar davrida qanday jangovar tarkibda harakatlanishlari ham mashq qilingan.

Tarixga nazar solib «mergan» so‘ziga ta’rifi beradigan bo‘lsak, «mergan» so‘zi birinchi marotaba XVIII asrda ingliz armiyasida paydo bo‘lgan. Bu inglizcha snipe - «bekas « deb nomlangan qushdan kelib chiqqan. Bu kichik va chaqqon qush bo‘lib, uning parvoz yo‘nalishini deyarli oldindan aytib bo‘lmaydi, shuning uchun uni otish ‘‘taxminiy’’ amalga oshirilishi kerak bo‘lgan. “Snaypdan otish” atamasi asta-sekin qisqaroq “mergan” (snayping) atamasiga qisqardi. XVIII asrning oxiriga kelib, ‘‘mergan’’ so‘zi Hindistonda xizmat qilgan ingliz ofitserlarining xatlarida ham aks etirilgan.

Rus olimi A.A. Patapov o‘zining “Iskustvo snaypera” kitobida merganlarga, bur o‘qchilari «snayper» deb nomlangan. Buning sabablari bor edi. Burlar uzoq masofali miltiqlari bilan inglizlarni kunning istalgan vaqtida va eng xavfsiz joylarda bo‘lsa ham o‘qqa tutishgan [9. 8 b].

Shuningdek, A.A. Patapov o‘zining “Iskustvo snaypera” kitobida, finlar 1939 yilgi qishki kampaniya (jang) paytida ruslarga shafqatsiz saboq berishganligini, Finlandiya qo‘mondonligi urushga juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rgani va tom ma’noda hamma narsani, shu jumladan aniqlikka otishlarning imkoniyatlarini hisobga olganligini yozib o‘tgan. Sovet qo‘mondonlari tushunarsiz va dahshatli hodisaga kuku-snayperlariga duch keligan. Kuku-snayperlarining jangovar taktikasi o‘zining g‘ayrioddiyligi, noqonuniyligi va hiyla-nayranglari bilan tushunarsiz ekanligini ta’kidlab o‘tkan [9. 9 b].

Fin snayperlari ‘‘kuku’’ nomini dastlab, daraxtlardan o‘q uzgani va qushlarning ovozlari bilan gaplashgani uchun olgan. Qadimgi qarag‘ayning qudratli shoxlariga qulay tarzda joylashib, finn nishonning ko‘rinishini yaxshiroq kutib, uni ‘‘olib tashladi’’. Snayper uyasi joylashgan daraxtga ruslar barcha magistrallardan bo‘ronli olovni ochishdi, ammo u erda snayper yo‘q edi. Ayyor finn arqonda darhol qalin qarag‘ay tanasi qopqog‘i ostida oldindan qazilgan burg‘ulashga tushdi va u erda o‘q otishni kutdi. Ba’zan, vaziyatga ko‘ra, dushmanni tinchlantirish uchun finn arqonni tortib olib, snayper uyasidan mushalatdagi to‘ldirilgan hayvonni miltiq bilan tortib olardi, u juda chiroyli yiqilib, shoxdan shoxga o‘tib, ba’zan hatto eng g‘ayritabiiy holatda novdalar orasiga yopishib qolgan. O‘q otishdan so‘ng, snayper blindajdan chiqib, daraxtga chiqdi va yana o‘z ishini boshladi [9. 16 b].

NATO mamlakatlari tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, jangovar tayyorgarlik, ushbu alyansning Birlashgan qurolli kuchlari tomonidan amalga oshiriladigan jangovar tayyorgarlik bilan bir qatorda, alyansga a’zo har bir davlatning o‘z qurolli kuchlari tomonidan amalga oshiriladigan jangovar tayyorgarlik tadbirlari mavjud.

NATO mamlakatlarida qo‘shinlar (kuchlar) ning jangovar tayyorgarligi asosan, Birlashgan qurolli kuchlar qo‘mondonligining talablariga qat’iy rioya qilgan holda, milliy rejalarga asosan, qo‘mondonlik – shtab, taktik va maxsus o‘quv mashqlari shaklida o‘tkaziladi. Shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi sikli to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: boshlang‘ich (tayanch); mutaxassislik bo‘yicha; ekipaj (raschyot), bo‘linma, vzvod tarkibida; rota (batalyon) tarkibida. Asosiy e’tibor shaxsiy tarkibni mutaxassislik bo‘yicha o‘qitishga sarflanadi. Boshlang‘ich (tayanch) tayyorgarlik va mutaxassislik bo‘yicha ta’lim qurolli kuchlar (qo‘shin turlari)ning o‘quv qismlari, bo‘linmalari va maxsus o‘quv markazlarida o‘tkaziladi. Harbiy xizmatchilar ta’lim-tayyorgarligini rivojlantirish va bo‘linmalar jipsligi muntazam qismlarda, mutaxassislar malakasini oshirish esa – tegishli kurslar va yig‘inlarda amalga oshiriladi [10. – 4 s].

Jangovar tayyorgarlik va harbiy san’at tarixiga oid manbalar tahlili shuni ko‘rsatmoqda-ki, hozirgi kundagi qo‘shinlar, bo‘linmalar jangovar tayyorgarli turli hududlarda o‘z xususiyatlariga ega va bir-biridan farq qiladi

va bu jangovar tayyorgarlikning xilma-xilligi ham hududlarda yuz bergan janglarda orttirilgan va qo‘llanilgan harbiy san’at tajribasiga borib taqaladi.

Qadimgi davrdan hozirga vaqtgacha harbiy san’atga katta e’tibor qaratilmoqda. Harbiy yurishlar va maxsus operatsiyalar strategik va taktik jihatdan puxta rejalashtirilib olib bormoqda. Qadimgi zamondan bugungi kunga qadar har bir jangchi qurol va anjomlar bilan ta’minlangan, ularning jangovar tayyorgarligiga alohida etibor qaratilgan. Merganlarning paydo bo‘lishiga 2 asir bo‘lganiga qaramay ularning qurollari, optik moslamalari, anjomlariga shuningdek, tayyorgarligiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. O‘zining imkoniyati va jangovar vazifasidan kelib chiqib, har bir kuch tuzilmalarning bo‘linmalarida merganlar shtati mavjud bo‘lib, ular bo‘linmaning vazifasida kelib chiqib, jangovar ko‘nikmalarini oshirib boradilar .

Аннотация. В статье дана информация о развитии боевой подготовки в истории, представлены этапы развития военного искусства и роль боевой подготовки в древние времена, описан боевой порядок, а также метательное и ударное оружие, рассказано о появлении снайперов.

Ключевые слова: боевая тактика, боевая подготовка, военное искусство, стратегия, тактика, операция, манёвр, оружие, ведение боя (войны), снайпер.

Annotation. The article provides information about the development of combat training in history, the development of military art, the role of combat training in ancient times, order of battle, throwing and percussion weapons, and also, the appearance of a sniper.

Key words: combat tactics, combat training, military art, the emergence of a strategy, tactics and operations, maneuver, weapons waging a battle, the sniper.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020..2. http://old.ivo.unn.ru/vi/project/HTMLs/obych/tem_1/z1(1).htm

3. Миргородский Д.С. Исторический опыт создания и развития системы боевой подготовки Ракетных войск стратегического назначения в 1959-1965 годах // Военная мысль. – 2007. – № 6.

4. Темур тузуклари. // Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж; Б.Аҳмедов таҳрир. остида/. – Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

5. Дадабоев Х. Военное искусство Амира Темура // Тезисы Международной научной конференции «Амир Темур и его место в мировой истории». – Ташкент: Издательство «Ўзбекистон», 1996.

6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) // Mas’ul muharrir: B.Ahmedov/. T.: “Sharq”, 2001.

7. Rustambayev M.X. “Temur tuzuklari” asari bo‘yicha amaliy qo‘llanma. O‘R MG Harbiy-texnik instituti. 2019.

8. Тажиев А.К. Формирование морально-боевых качеств военнослужащих русской армии в ходе боевой подготовки (кон. XVIII – нач. XIX в.) // Армия и общество. – 2008. – № 4.

9. Потапов А.А. Искусство снайпера. Издательство: Фаир-Пресс, 2005 г. Твердый переплет, 544 стр. ISBN 5-8183-0360-8, 5-8183-0872-3.

10. Голубов Н. Оперативная и боевая подготовка ОВС НАТО // Зарубежное военное обозрение. – 1996. – №1.

ISSN 3030-3230

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL MEXANIZMLARI

Kadirov Mirsulton Batirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya: Maqolada davlat va jamiyat munosabatlarini tadqiq etganda fuqarolik jamiyatini davlatning sohadagi ta’siridan tashqari, mustaqil demokratik jamiyat doirasida rivojlanishi mumkin bo‘lgan munosabatlar majmui sifatida qarash masalaning mohiyatini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda aytish mumkinki, mazkur masalalar chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan maqolamizda ayni shu kabi ilmiy muammolar ko‘tarilgan bo‘lib, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini o‘zaro hamkorlik modellari va ular o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni strukturaviy-funksional uyg‘unlashtirish mexanizmlari hamda davlat organlari va jamoat birlashmalarining o‘zaro hamkorligining tashkiliy shakllari chuqur tahlili ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, lobbistlar, OAV, fuqarolik jamiyati ijtimoiy zarur illuziya, globallashuv paradigma, fuqarolik jamiyat institutlari

Fuqarolik jamiyati davlatdan nisbatan mustaqil bo‘lgan shaxslar hamda guruhlar o‘z manfaatlari, qadriyatlari yo‘lida hamkorlik qiladigan ijtimoiy sohadir. Bozor o‘z-o‘zidan uyushgan tizimdir, lekin bu davlat ushbu mexanizmni takomillashtirishda ishtirok eta olmaydi, degani emas. U raqobatdosh subyektlar o‘rtasida manfaatlar muvozanatini yaratishi va muvozanatlashi kerak. Davlat bozor munosabatlarini shakllantirish va himoya qilishning muhim omilidir. Shuning uchun ham 2022 — 2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish»[6] kabi vazifalar belgilab o‘tilgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyati tuzilmalarini yanada mustahkamlash va ularni rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi. Bu sohada davlatning barcha majburiyatlarini bajaradi.

Fuqarolarning davlat ishlaridagi ishtiroki haqida gapirganda, biz ko‘pincha «fuqarolik jamiyati» tushunchasiga duch kelamiz. Zamonaviy ijtimoiy - siyosiy voqelikni hisobga olgan holda, ushbu konsepsiya ostida tushuniladigan ikkita alohida, ammo bir - birini to‘ldiruvchi hodisani ajratib ko‘rsatish kerak. Siyosiy adabiyotlarda bu tushuncha keng ma’noda ma’lum siyosiy - huquqiy, ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlarga va munosabatlar tizimiga ega bo‘lgan butun jamiyatni tavsiflash uchun ishlatiladi. Shu boisdan ham SH.U.Yakubov «Umuman, zamonaviy taraqqiyot bosqichida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorligining shakllarini chuqur tahlil qilish ularning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirishda eng maqbul yo‘nalishlarni aniqlashga imkon beradi»[10] degan xulosaga keladi.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari fuqarolarning birlashish, davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqi inson huquqlari va erkinliklarining muhim qismi bo‘lib, mamlakat qonunlari bilan belgilanadi. Fuqarolar ushbu va boshqa huquqlardan foydalangan holda jamiyat hayotida turli shakllarda ishtirok etishlari va unga ta’sir o‘tkazishlari mumkin.

Fuqarolik jamiyati - bu davlat va xususiy sektordan tashqari turli darajadagi fuqarolarning mustaqil birlashmalari majmuasidir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunday uyushmalar an’anaviy ravishda diniy birlashmalar, siyosiy partiyalar, fuqarolik harakatlaridir. Savdo va kasbiy uyushmalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va boshqa barcha fuqarolik birlashmalari Ya’ni jamiyatning davlat va tadbirkorlik sohalariga kirmaydigan barcha bunday birlashmalari yig‘indisi xalqaro

amaliyotda fuqarolik jamiyati tashkilotlari deb ataladi. Ushbu uyushmalarning o‘ziga xosligi shundaki, ular davlat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan farqli o‘laroq, ommaviy hokimiyat yoki rasmiy vakolatlarga ega emas, qoida tariqasida, ular o‘zlarining ichki qoidalari asosida tashkil etilgan va faoliyat yuritadilar. Garchi bu uyushmalar hokimiyatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etmasa ham, turli vositalar orqali hukumatga ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega.

Odamlar qanday fuqarolik jamiyati tashkilotlariga qo‘shilish va o‘z xohish - istaklari va maqsadlariga muvofiq faoliyat yuritish to‘g‘risida qaror qabul qilishda erkin va mustaqildir. Biroq, ushbu muassasalarning soni, ko‘lami, faoliyati, moliyalashtirish manbalari va boshqa masalalar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun ma’lumot olish qiyin.

Fuqarolik jamiyati chegaralarini nodavlat tashkilotlar bilan cheklab bo‘lmaydi. Ular fuqarolik jamiyatining muhim qismi bo‘lib, fuqarolarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish, siyosatdagi ishtirokini rivojlantirishga, shuningdek, rasmiy siyosatni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Ta’sir jihatidan muhim, ba’zan esa yetakchi rol o‘ynaydi. Shu ma’noda fuqarolik jamiyatining o‘rni haqida so‘z borar ekan, shakl va tashabbuslar xilma - xilligi bilan ajralib turadigan NNTlarni misol qilib keltirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi fuqarolik birlashmalarining quyidagi shakllarini tan oladi: siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy birlashmalar, NNTlar, siyosiy partiyalar siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lgan kishilar uchun mexanizm vazifasini bajaradi. «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»[8] gi qonun. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan fuqarolari o‘z g‘oyalari va siyosiy qarashlariga mos keladigan har qanday siyosiy partiyaga a’zo bo‘lish orqali siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqiga ega. Siyosiy partiyalarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar mavjud.

O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosatining asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, uni amalga oshirish bosqichlari O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasida[7] o‘z ifodasini topgan.

U korrupsiyaga qarshi siyosat samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga qarshi kurashga butun jamiyatni jalb qilishga. Hamda O‘zbekistonda korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, axborot xarakteridagi korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Uning kirish qismida Strategiyada foydalaniladigan maqsadli ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat: davlat xizmatlari sifati, aholining davlat hokimiyati institutlariga ishonchi, aholining huquqiy madaniyati darajasi, mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirish va tegishli xalqaro reytinglarni, shu jumladan Transparency International[2] xalqaro tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksidagi O‘zbekiston reytingini yaxshilash.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlari yetakchi rol o‘ynamoqda. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlari korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining mazkur subyektlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari bilan o‘zaro manfaatli shartlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi faoliyatidan kelib chiqadi:

- fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ixtisoslashgan maslahatchilar yoki ekspert organlari ishida ishtirok etishi;

-korrupsiyaga qarshi ekspertiza, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari monitoringi, korrupsiyaga qarshi ta’lim, tashviqot va boshqalar;

-korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirishning borishi va natijalari monitoringini amalga oshirishda, shu jumladan davlat organlarining axborotdan foydalanishini monitoring qilishda, budjet mablag‘larini rejalashtirish va ulardan samarali foydalanish monitoringini olib borishda birgalikda ishtirok etish;

- korrupsiya holati va korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi to‘g‘risida ma’lumot almashish.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash xizmatida korrupsiyaga qarshi siyosatning amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun fuqarolik sektori vakillarini birlashtirgan turli platformalar

ISSN 3030-3230

mavjud. Sh.U.Yakubov fikricha, «Jamoatchilik nazoratining mohiyati jamiyat bilan davlat o‘rtasidagi aloqani ta’minlashda, davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan noqonuniy qarorlar qabul qilinishining oldini olishda o‘z ifodasini topadi»[10].

Ular orasida: korrupsiyaga qarshi strategiyaning amalga oshirilishini tashqi tahlil qilish va baholash bo‘yicha maxsus monitoring guruhlari, axborot-ma’rifiy shtablar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurash xizmati ommaviy axborot vositalari bilan faol ish olib bormoqda. Sababi, ommaviy axborot vositalari nafaqat aholining xabardorligini oshirish, balki korrupsiyaga oid tekshiruvlar ham olib borilmoqda. Shuning uchun ham SH.U.Yakubov «Nodavlat sektoriga axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali yangi yo‘nalishlar, Ya’ni nodavlat notijorat tashkilotlarining filantropiya va fandrayzing faoliyatini rivojlantirish ta’kidlanadi. Ularni jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy muammolarni aniqlash, ularni hal etish jarayonlariga homiylar mablag‘ini yo‘naltirish ishlarini samarali tashkil etish nodavlat notijorat tashkilotlari reytingining yuksalishida muhim ko‘rsatkich sifatida baholanadi»[10] deb yozadi.

Bugungi kunda samarali ommaviy axborot vositalari korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki jurnalistlarda «huquqbuzarliklarni tekshirish va aniqlashga intilish kuchli»[3]. Bu jarayonda fuqaro faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqaro faolligi - bu subyektiv ravishda aniqlangan umumiy manfaatlar uchun odamlarning ixtiyoriy, asosan jamoaviy faoliyati, moddiy e’tiborga qaratilmagan faoliyatdir. Bu atama klassik atama sifatida faxriy lavozimni ham o‘z ichiga oladi, lekin uni umumiy ma’noda siyosiy komponent bilan to‘ldiradi. Shu nuqtai nazardan, bu atama umumiy kosmopolitizm ma’nosida fuqaro tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. «Fuqaroviy faollik o‘z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o‘zgartirishga qodirlik hissini yaqqol namoyon bo‘lishi bilan vujudga keladi. Fuqaroviy faollik – insonlarni faol va ko‘ngilli jamoat ishlarida ixtiyoriy ishtirok etishga, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida faollik ko‘rsatishga undaydi[4]. Germaniyalik olim Syuzanna Hutning fikricha, fuqaroviy faollikning muhimligi shundaki, u odamlarda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvga intilishni uyg‘otadi»[1].

O‘z manfaatlari bilan bog‘liqlik (masalan, ota-ona, qo‘shnilar va boshqalar) bu majburiyatni tubdan pasaytirmaydi. Ijtimoiy faollik asosiy qonunimizda ham o‘zining huquqiy asosini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69 – moddasida, Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Shuningdek, 72 – moddasida, Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi[5]. Har bir jamiyat o‘z a’zolarining ishtirokini talab qiladi. Bunday ishtirokni ta’minlash fuqarolik jamiyatining eng muhim vazifasidir.

Har bir jamiyat a’zolarining u bilan ijobiy munosabatda bo‘lishi va uning shakllanishida ishtirok etishi bilan yashaydi. Ikkalasi ham juda boshqacha shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Jamiyatni konsensus va ishtiroksiz tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan har qanday urinish o‘rta muddatli istiqbolda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Fuqarolik jamiyatining imidji shu yerda paydo bo‘ladi. Ularning faol vakillari jamiyat rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijodkorlik va ixtirochilikni keltirib chiqaradi. Ikkinchi tomondan, ular o‘z faoliyatidan hech qanday moddiy foyda kutmaydilar. Bu hech qanday holatda boshqa arenalarning yondashuvlarining qonuniyligini shubha ostiga qo‘ymaydi. Biroq, bularni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, faol fuqarolik jamiyati jamiyatning barcha a’zolarining shaxsiy mas’uliyati va umumiy mas’uliyatidagi ishtirokining ifodasidir. Fuqarolik jamiyati davlat va bozor bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy kapitalni o‘zlari ishlab chiqara

olmagan holda ishlab chiqaradi. Va nihoyat, faol fuqarolik jamiyati ijtimoiy hamjihatlikka yordam beradi va ijtimoiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadi.

Shu sababli, davlat tomonidan nazorat qilinadigan fuqarolik jamiyatini barpo etishga urinishlar uzoq muddatda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin emas. Fuqarolik jamiyati uchun qo‘shimcha qiymat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: inkluziya, integratsiya, obro‘-e’tibor, ishtirok etish, ijtimoiy kapital, ijtimoiy o‘zgarishlarga qo‘shgan hissasi, ijtimoiy hamjihatlikni rag‘batlantirish, subsidiarlik – shaxsiy javobgarlik, shaffoflik fuqarolik jamiyati harakatining vakillik qobiliyatining yo‘qligi uchun mutlaqo zaruriy kompensatsiyani taklif qiladi.

Oshkoralik har bir fuqarolik jamiyati tashkilotining manfaatdor tomonlari uchun zarur axborot bazasini va zarur himoyani ta’minlaydi. Shaffoflik korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi va zarur ilmiy monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. Bu begonalar, xususan, siyosiy qarorlar qabul qiluvchilar, ma’muriyatlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan noto‘g‘ri xulosalar va noto‘g‘ri mulohazalarning oldini olishga yordam beradi. Hamda butun fuqarolik jamiyati va alohida subyektlar faoliyati to‘g‘risida asosli munozaralar olib borish imkonini beradi. Va nihoyat, oshkoralik siyosiy-ma’muriy tartibga solish uchun zarur empirik asos yaratadi va fuqarolik jamiyatining demokratiyani mustahkamlash va ochiq jamiyatni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini hujjatlashtiradi.

Ichki ma’noda shaffoflik birinchi darajali nazorat vositasi bo‘lib, boshqaruvni yaxshilashga yordam beradi. Qolaversa, u fuqarolik jamiyatini yanada kengroq tanishtirishga va uning ahamiyatini jamoatchilikka yetkazishga salmoqli hissa qo‘shadi, noto‘g‘ri qarashlarni yo‘q qiladi. R.Hakimovning ta’kidlashicha, «Jamoatchilik nazorati kuchli fuqarolik jamiyatining ajralmas belgilaridan bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari, keng jamoatchilik tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslar faoliyatini qonunga muvofiqlik nuqtai nazaridan muntazam nazorat qilishni anglatadi»[9]. Fuqarolik jamiyatiga analitik ta’rif berish uni me’yoriy baholashdan olib tashlashni anglatmaydi.

Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проведен анализ существующих экологических проблем в области водопользования, описаны причины возникновения проблем, тенденции их развития, раскрыты пути решения данных проблем с точки зрения стратегий «Нового Узбекистана».

Ключевые слова: экологические проблемы, экологическая безопасность, климатообразующий элемент, совместные действия, архитектура экологической безопасности.

В условиях продолжающейся глобализации и трансформации системы международных отношений военно-политическая обстановка в регионе Центральной Азии характеризуется усилением геополитического противостояния в контексте использования водных ресурсов, истощением запасов углеводородного сырья, природными и техногенными катастрофами, стремительным ростом населения, а также безработицей.

Модернизация времен Советского Союза сильно отразилась на экологической обстановке региона. Однако экологические проблемы – это не только издержки модернизации того периода, но и побочный результат сильного упадка экономики.

В регионе существуют экологические проблемы различного характера. С ними тесно взаимосвязаны демографические проблемы, сильно влияющие на другие звенья экологической безопасности региона (например, рост населения, влекущий за собой нерациональное использование земель под строительство и сельское хозяйство, дефицит продовольствия и др.). На сегодняшний день население региона составляет более, чем 75 млн. чел.

Основной процент приходится на долю населения Узбекистана, динамика воспроизводства которого по оценкам международных экспертов возрастает, тогда как в Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане – незначительно уменьшается. За последние 100 лет население Узбекистана возросло в 8 раз, и если темпы роста населения останутся такими же, то к 2030 году в Узбекистане будет проживать не менее 40 млн. человек.

Экологические проблемы в ЦА представлены:

- **высыханием Аральского моря (Казахстан, Узбекистан);**
- **возможным прорывом дамбы в Сарезском озере (Таджикистан);**
- **убытием вод через Куштепинский канал (Афганистан);**
- **проблемами, связанными в прошлом с ядерными и атомными испытаниями, переработками и отходами (Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Узбекистан);**
- **нерациональным использованием и управлением водными ресурсами;**
- **воздействием искусственных водохранилищ и плотин, гидроэлектростанций на окружающую среду (Кыргызстан, Таджикистан) [1].**

Аральское море является, по единодушному мнению экологов, климатообразующим элементом в ЦАР. К началу 90-х годов оно потеряло около 50% своих водных ресурсов и уже в 1995 году около трех четвертей воды, а берег отодвинулся на 100-150 километров. Это способствовало появлению засушливых районов, которые становились местом образования новой пустыни. Начался процесс, который был сопряжен, с одной стороны, с увеличением площади пустыни, засолением и заболачиванием почв, с другой стороны – с ухудшением климата. Существует и еще одна проблема, связанная с островом Возрождения, который находится в акватории Аральского моря. Еще во времена СССР на этом острове создавалось и испытывалось бактериальное оружие, а после осушения Аральского моря появилась двойная угроза: распространение опасных для человеческого организма вирусов и увеличение радиуса их действия.

Высыхание Арала приводит к усилению ветровой эрозии поверхности высохшего дна Аральского моря и к общему увеличению запыленности воздушного бассейна Среднеазиатского региона. Часть поднятой

в воздух пыли может достигать больших высот и распространяться на значительные расстояния. Оседание этой пыли на поверхности ледников Памира и Тянь-Шаня приводит к их загрязнению, что вызывает более интенсивное таяние льда. Это опасный процесс для засушливого региона, так как в ЦА горные ледники являются единственными вековыми кладовыми запасов пресной воды и основным местом конденсации атмосферной влаги в регионе. При дальнейшем увеличении «чехла» собственных моренных отложений, они перестанут быть конденсаторами влаги и начнется резкое уменьшение стока рек Амударьи и Сырдарьи».

Сегодня последствия Аральской проблемы испытывают на себе более 35 миллионов человек, проживающих в бассейне Аральского моря.

Данная проблема до сих пор не может найти своего решения в силу различных взглядов на эту проблему. Толчком к частичному решению этой проблемы послужила встреча глав государств ЦА в г. Кызыл-Орде в марте 1993 г., на которой было подписано Соглашение о совместных действиях по решению кризиса Аральского моря и созданы специальный межгосударственный Исполком и Международный фонд спасения Арала (МФСА). Каждый год государства ЦА отчисляют 0,1 % от своего ВВП в МФСА.

Еще одной глобальной проблемой для стран региона может стать Сарезское озеро, расположенное (в Горно-Бадахшанской области Республики Таджикистан) между хребтами Северо-Аличурским и Музкол, на высоте 3239 м.

Эксперты считают, что в случае прорыва вод возникнет катастрофический паводок в долинах рек Бартанга, Пянджа и Амударьи. Согласно расчетам, катастрофа может охватить территорию около 69 тыс. кв. км, с населением около 6 млн. человек в Таджикистане, Узбекистане, Туркмении и Афганистане. В случае прорыва такой объем воды, доходя до низовьев (разница высот около 3000 м), создаст мощный поток, обладающий огромной скоростью, который будет способен разрушить все на своем пути. Прорыв Сарезского озера, повлечет за собой разрушение множества сооружений различного характера - мостов, автомобильных дорог, линий электропередач, объектов промышленного и гражданского строительства, не считая уже огромных человеческих жертв [3].

Внутрирегиональные факторы представлены, в первую очередь водноэнергетическими и приграничными проблемами, а также уровнем и характером взаимоотношений между государствами региона, вплоть до риска возникновения приграницных инцидентов.

Немаловажным для стран Центральноазиатского региона остаются ядерные отходы ядерных испытаний прошлых лет. Так на момент обретения независимости на территории Казахстана было 1040 ядерных боеголовок и 370 ядерных бомб на борту стратегических бомбардировщиков. В Советский период Семипалатинский регион Казахстана являлся местом проведения 500 испытаний ядерного оружия, из которых 116 проводились на поверхности земли. Последствия этих испытаний оказались катастрофическими для Семипалатинской области Казахстана. Местное население проживало на загрязненной после испытаний земле, подвергаясь тем самым воздействию высоких доз радиации. Испытания привели к загрязнению сельскохозяйственных земель и пастбищ, питьевой воды, опустыниванию региона, серьезным заболеваниям, включая многие формы рака, болезни сердечно-сосудистой системы, органов пищеварения, дыхания, а также к высокой вероятности отклонений в развитии новорожденных. В 1997 г. Генеральная Ассамблея ООН приняла резолюцию 52/159 М, призывающую международное сообщество оказать помощь правительству Казахстана в ликвидации последствий ядерных испытаний на полигоне.

Другие экологические проблемы, связанные с хранилищами, расположенными в местечке Майлы Суу (Кыргызской Республики) и в левобережье реки Зарафшан (отходы Навоийского горно-металлургического комбината - Узбекистан); отходы, захороненные недалеко от городов Янгиабад (общим объемом 500 тыс. куб. м. и площадью 50 кв. км.) и Красногорск (в Узбекистане); с переработкой радиоактивных материалов в Чкаловске и Табошаре (Согдская обл. Таджикистана) и Сузакском районе (Чимкентской обл. Казахстана). Еще в 80-90-е годы в Кыргызстане были захоронены урановые отходы в местечке Майлы Суу нынешней Джалал Абадской области Кыргызстана. Проблема по масштабу имеет региональный характер и заключается в том, что весной с систематическими наводнениями, селями и лавинами в этой гористой части региона, имеется вероятность их попадания в реки Майлуу-Суу, Карадарьи и Сырдарьи, направляемых к низовьям Ферганской долины. Сегодня в этом районе располагается

ISSN 3030-3230

23 свалки и 13 мест захоронения, в которых скопилось уже около 3 млн. тонн кубометров радиоактивных материалов и которые могут угрожать большой экологической катастрофой 10 миллионному населению Ферганской долины [4].

Отдельно следует подчеркнуть общую водную проблему в Центральной Азии. Страны Центральной Азии в силу своего географического положения водных истоков, обладают разными возможностями обеспечения водой своих потребностей. Так, Таджикистан и Кыргызстан в отношении к водным ресурсам находятся в значительной мере в аналогичных условиях. Обе страны находятся в зоне формирования стока рек всего региона. Из ежегодно накапливаемой воды в водохранилищах Кыргызстана (23 куб. км), только 7 % потребляет сама республика, а остальное регулярно подается в Узбекистан, Казахстан и Таджикистан. Туркменистан и Узбекистан зависят от водных источников, расположенных вне их территорий. Большие трудности существуют и по вопросам обеспечения водой Казахстана.

Между государствами региона существуют определенные разногласия и расхождения в трактовке тех или иных проблем водопользования, и наблюдается в некоторой степени возрастание напряженности на этой почве во взаимоотношениях вышеперечисленных стран [5].

В Центральной Азии уже имели место локальные внутригосударственные и межнациональные конфликты из-за воды, завершившиеся столкновениями и повлекшие за собой человеческие жертвы. Водные споры, в последнее время, в районах приграничья приобретают вызывающий характер. Более того, обстановка в области водопользования и вододеления все больше политизируется. В отношении стран, располагающих более богатыми водными ресурсами, со стороны пользователей применяются в качестве рычагов давления в таких сферах, как транзитный проезд по территории автотранспорта и пассажиров, ужесточение тотального контроля над процессом въезда и выезда граждан и др. Как считают отдельные исследователи, в этом кроется самая большая угроза безопасности региона [6].

Скудные средства, которыми обладают государства, используются на содержание ирригационной сети и искусственных резервов, необходимых в первую очередь соседним государствам. По этой причине некоторые круги в странах, расположенных у истоков воды, выступают за то, чтобы межгосударственные водные отношения в Центральной Азии строились на экономической основе, и считают необходимым участие водопотребляющих стран в строительстве, содержании и эксплуатации гидротехнических объектов в зонах формирования стока.

При этом маловодные и безводные пространства занимают в регионе территориально большую часть. Это говорит о том, что для государств региона водная проблема имеет не только хозяйственное, но и военно-стратегическое значение. Именно по этой причине всякий раз при усилении межгосударственных противоречий, поднимаются вопросы функционирования водно-речных и водо-сберегающих систем в Кыргызстане и Таджикистане, которые систематически выражают недовольство в связи с большими расходами, связанными с собственными водохранилищами и аккумуляцией воды в них, которая регулируется в аграрных целях Узбекистана, Казахстана и Туркменистана и требуют финансового содействия им в этом отношении.

В условиях нынешнего этапа межрегионального сотрудничества перед государствами Центральной Азии стоит важная стратегическая задача – обеспечить глубокую интеграцию региона в глобальные экономические, транспортные и транзитные коридоры для обеспечения стабильного положения на внешних границах. Решение данных задач позволит повысить безопасность государств Центральноазиатского региона и послужит импульсом дальнейшего их развития.

Решение проблем водопользования является ключом интеграции региона в перспективном будущем роста на глобальном уровне.

Руководством страны, в частности Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Миромоновичем Мирзиёевым, личнопринимавшимучастиевурегулировании целого ряда сложных региональных проблем, отраженных в предложении по распределению объемов водопользования, окончательно был решен вопрос делимитации и демаркации границ, в ходе визита в 2018 году в Душанбе Республики Таджикистан.

Узбекистан активно участвует в обеспечении экологической безопасности и стабильности в регионе, путём выработки новых подходов к процессам обеспечения

экологической безопасности в регионе через распределение водных ресурсов. На саммитах с участием глав государств региона не раз поднимался вопрос Сарезского озера, расположенного в Горно-Бадахшанской области Республики Таджикистан. Правильное и целенаправленное использование его воды способно обеспечить территорию с населением около 6 млн. человек в Таджикистане, Узбекистане, Туркмении и Афганистане.

Однако для решения экологических проблем, в частности в сфере водопользования, в Центральноазиатском регионе усилий одной только Республики Узбекистан мало. Имеется острая необходимость выработки новых механизмов взаимодействия по построению устойчивой системы водопользования в регионе Центральной Азии. Для этого требуется консолидация усилий государств региона по решению взаимных экологических проблем путем конструктивного диалога на уровне всех глав государств региона, направленных на восстановление благоприятных климатических условий, разработке и ратификации всеобъемлющего договора, соответствующим международным конвенциям водопользования.

Лишь объединив усилия, с уважением к международному праву, свободе и демократии, сохраняя общечеловеческие ценности, обычаи и индивидуальность народов, эффективно взаимодействуя на основе сотрудничества, взаимного согласия и справедливости, можно сформировать новую архитектуру экологической безопасности.

Следует отметить, что являясь экологической проблемой, водный дефицит принимает все больше социально-политический характер. Организация Тюркских государств обладает потенциалом решения вышеперечисленных проблем путём организации конструктивного диалога между государствами региона. По итогам саммита Организации тюркских государств, прошедшего в городе Бишкек 6-7 ноября 2024 года Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Миромоновичем Мирзиёевым было предложено создать единую систему цифрового мониторинга водных ресурсов, позволяющего наладить баланс водопользования и поддерживать безопасный уровень вод в имеющихся водоёмах региона. Данное решение позволит решить не только экологические проблемы, но и предотвратить прорыв Сарезского озера, представляющий как наивысшую опасность, так и решение проблем осушения.

Annotatsiya. Maqolada suvdan foydalanish sohasidagi mavjud ekologik muammolar tahlil qilindi, muammoning sabablari, uning rivojlanish tendentsiyasi tavsiflandi, ushbu muammolarni “yangi O‘zbekiston”prizmasi orqali hal etish yo‘llari ochib berildi.

Kalit so‘zlar: ekologik muammolar, ekologik xavfsizlik, iqlimni shakllantirish elementi, birgalikdagi harakatlar, ekologik xavfsizlik arxitekturasi.

Annotation. The article analyzed the existing environmental problems in the field of water use, described the causes of the problem, the trend of its development, revealed ways to solve these problems through the prism of “New Uzbekistan”.

Key words: environmental problems, environmental safety, climate formation element, Joint Action, environmental safety architecture.

Использованная литература:

1. Зайнутдинова Д.П. Основные проблемы экологии в Узбекистане и приоритеты экологической политики / Д.П. Зайнутдинова, Р.К. Мурзаханов // Бюллетень НПО «Армон» - 2022 – С.31-43.
2. Аральское море: XXI век: неофициальный сайт: URL: http://aral21.narod.ru/klimat.htm
3. Макиевский, П.Т. Таджикистан: Сарезское озеро: геодинамические, технические и социальные аспекты [Электронный ресурс] П.Т. Макиевский CA & CC Press – 1999 URL: http://www.ca-c.org/journal/cac-03-1999/st_24_makievsk.shtml (Дата обращения 04.11.2024 г.)
4. Калиниченко, Л.Н. Экономика Казахстана: крупные проблемы крупной страны., Постсоветская Центральная Азия. Потери и обретения / Л.Н. Калиниченко, Н. Н. Семенова // Сборн. – М.: Изд. Фирма «Восточная литература» РАН, 2023. - с. 78-79.
5. Сотиболдиев, Т.К. Экологические проблемы и угрозы Центральной Азии в контексте национальной безопасности Республики Узбекистан / Т.К. Сотиболдиев // Бюллетень НПО «Армон» - 2023 – С.43-46.
6. Васильев, А.М. Россия и Центральная Азия / Васильев, А.М. // Постсоветская Центральная Азия. Потери и обретения. М.: Изд. Фирма «Восточная литература» РАН, 2023, - с. 25

ISSN 3030-3230

ELEKTRON SHARTNOMANI MILLIY VA XALQARO DARAJADA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Ubaydullayeva Zarifa Muxiddin qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

Аннотация. **Butun dunyoda elektron tijoratning o‘sishi, tadbirkorlik subyektlari uchun keng imkoniyatlarning yaratilayotganligi, raqamlashtirish va texnologiyadagi inqilobiy o‘zgarishlar, elektron shartnomalar va biznes yuritishdagi yangi shakllarning vujudga kelishi aynan ushbu mavzuni tadqiq etishga ehtiyoj tug‘dirmoqda. Texnologiya sohasidagi inqilobiy kashfiyotlardan oldin, tadbirkorlar o‘rtasidagi tranzaksiyalar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki elektron bo‘lmagan boshqa shakllarda amalga oshirilgan, shuningdek bitimlarning ham og‘zaki va yozma shakllari mavjud edi. Texnologiyasining jadal rivojlanishi tufayli ijtimoiy munosabatlarda ko‘plab qulayliklar va tejamkorlikni hisobga olgan holda elektron tranzaktsiyalar keng qo‘llanila boshladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tranzaksiyalarda bo‘lgani kabi, tadbirkorlik munosabatlarida elektron shartnomalar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ushbu maqolada elektron shartnoma tushunchasi, belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari, boshqa shartnomalardan farqli jihatlari, shuningdek milliy va xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinishi yoritib berilgan. Elektron shartnomalar tuzishda qonunchilikdagi to‘siqlar va xatarlar, firibgarlik xavfi, elektron imzo texnologiyasiga bog‘liq muammolar aytib o‘tilgan va ularning samarali yechimlari taklif qilingan.**

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron imzo, UNCITRAL Model qonuni, ma’lumotlar xabari(data messages), shartnomaning yuridik kuchi

2024-yilda chakana elektron tijorat savdosi butun dunyo bo‘ylab 4,1 trillion AQSh dollaridan oshib ketishi taxmin qilinmoqda. Jahon chakana savdosining umumiy hajmidagi elektron tijorat ulushi 20,1%ni tashkil etadi. Butun dunyo bo‘ylab chakana elektron tijorat daromadi 4,12 trln AQSh dollarga yetdi.[1] Ushbu raqamlar bir tarafdan elektron tijoratning yildan-yilga o‘sib borayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tarafdan elektron tijorat bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarning holati, qonunlarning qay darajada amaliyotga tatbiq etilayotganini o‘rganishga ishora qilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi va raqamli iqtisodiyotning kengayishi natijasida elektron shartnomalar iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Barcha turdagi tijorat, xizmatlar ko‘rsatish va tovar ayirboshlash jarayonlari tobora onlayn muhitga ko‘chib bormoqda. Bu esa, elektron shartnomalar huquqiy tartibga solinishi zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining tezkor rivoji elektron shartnomalar bo‘yicha yangi huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, bunday shartnomalarning haqiqiyligini tasdiqlash, ularni bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash va muammoli holatlarni sud tartibida hal qilish huquqiy tizimlar uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, elektron shartnomalar amaliyotining huquqiy tartibga solinishi global miqyosda turli xil yondashuvlarni talab qiladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida raqamli shartnomalar uchun huquqiy infratuzilma yaratilgan bo‘lsa-da, ko‘pgina davlatlarda bu borada qonunchilik hanuz to‘liq shakllanmagan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida elektron shartnomalarni tartibga solish bo‘yicha milliy qonunchilik hali rivojlanish bosqichida. Shu sababli, xalqaro tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikka integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi elektron shartnomalarni huquqiy tartibga solish masalalarini milliy va xalqaro qonunchilik amaliyoti nuqtai nazaridan o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni tahlil qilishdir. Shu asosda, elektron shartnomalar bo‘yicha huquqiy bazani takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Elektron shartnomalarni huquqiy

tartibga solish borasidagi muammo shundaki, an'anaviy shartnomalar bilan solishtirganda, ular elektron shaklda tuzilishi jarayonida turli texnik va huquqiy to'siqlarga duch keladi. Bu to'siqlar shartnoma ishtirokchilarining shaxsini identifikatsiyalash, elektron imzo qo'yish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklarni sudda hal qilish kabi masalalarni qamrab oladi. Shu sababli, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali ushbu muammolarni hal qilish muhimdir.

Material va metodlar

Milliy va xorijiy olimlar tomonidan ushbu sohada turli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Ro'zinazarov Sh. N. elektron tijorat huquqi bo'yicha, Rahmonqulov Hoji-Akbar – majburiyat huquqi bo'yicha, Raximov D.B shartnomaviy majburiyatlar bo'yicha, Koryog'diyev B. bitimlar bo'yicha , Imamova D.I. – Raqamlashtirishning shartnomaviy munosabatlarga ta'siri, Allayarova N. elektron hujjat aylanishi bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan. Lekin ularning tadqiqotlarida elektron shartnoma tuzish, elektron shartnomaning yuridik kuchi masalalari ochiq qolgan.

Ushbu tadqiqot ishida analiz, sintez, qiyosiy-huquqiy, normativ-huquqiy kabi metodlar qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari: Shartnoma huquqida elektron shakl tushunchasi 1996-yilda UNCITRALning Elektron tijorat to'g'risidagi Model qonunida kiritilgan elektron shartnomalarning tuzilishi bilan kirib kelgan. [2] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) doirasidagi muhokamalarda "elektron shartnoma" atamasining keng qo'llanilishiga va uning takrorlanishiga qaramay, uning aniq ta'rifi mavjud emas. "Elektron shartnoma" atamasi odatda ma'lumotlar xabarlari kabi elektron aloqalar orqali shartnoma tuzishni anglatadi. Ushbu konsepsiya UNCITRALning 1996-yildagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi namunaviy qonunining 2-moddasida yoritilgan bo'lib, unda "ma'lumotlar xabari" elektron, optik yoki shunga o'xshash vositalar orqali yaratilgan, yuborilgan, qabul qilingan yoki saqlanadigan ma'lumotni ifodalaydi.[3] Ushbu qonunda belgilanganidek, elektron shartnoma - bu shunday shartnoma bo'lib, unda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi niyat ifodasi 2-moddaning (a) va (b) bandlarida ko'rsatilgan vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi, ular:

• kompyuterlar o'rtasida ma'lumotlarni o'zaro kelishilgan standart bo'yicha uzatish.

• Umumiy yoki standartlashtirilgan protokollar asosida elektron xabarlar almashish.

• Internet yoki teleks va faks kabi boshqa texnologiyalar orqali matnlarni elektron tarzda uzatish.

Ushbu Xalqaro qonunning 11-moddasi aynan shartnomaning shakli va haqiqiyligi masalasiga bag'ishlangan.

(1) Shartnoma tuzish jarayonida, agar tomonlar boshqacha kelishuvga erishmagan bo'lsa, oferta va aksept ma'lumotlar xabarlari orqali ifodalanishi mumkin. Shartnoma tuzishda ma'lumotlar xabaridan foydalanilganda, ushbu ma'lumot xabari shu maqsadda ishlatilganligi sababli shartnomaning haqiqiyligi yoki ijro etilishi rad etilmaydi.

11-modda shartnomalar tuzish to'g'risidagi qonunga aralashishga emas, balki xalqaro savdoni rivojlantirishga va elektron vositalar orqali shartnomalar tuzishda huquqiy ishonchni oshirishga qaratilgan. Bu nafaqat shartnoma tuzish masalasi, balki oferta va akseptning shakliga ham aloqadordir.Shu bilan birga, shartnomalarni elektron vositalar yordamida qonuniy ravishda tuzish mumkinmi yoki yo'qmi, ko'pgina mamlakatlarning shartnoma huquqi tizimidagi noaniqliklarni hisobga olgan holda ushbu qoida zarur. Bunday noaniqliklar, ba'zi hollarda, oferta va akseptni ifodalovchi ma'lumotlar xabarlari bevosita inson aralashuvisiz kompyuterlar tomonidan yaratilganligi va shu bilan tomonlarning niyatlarini ifodalashiga shubha tug'dirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday noaniqliklarning yana bir sababi aloqa rejimiga xosdir va qog'oz hujjatning yo'qligidan kelib chiqadi.

Elektron shartnoma - bu elektron tizimdan foydalanish orqali tuzilgan shartnomadir. Ma'lumki, shartnoma yoki bitim ikki yoki undan ortiq shaxslarning majburiyatlarni bajarishga yoki bajarmaslikka bo'lgan qonuniy harakatlaridir. Elektron shartnoma - bu shunday shartnomaki, uning harakatlari «elektron operatsiyalar» shaklida real harakatlar bilan amalga oshiriladi. [4]

Elektron shartnomalar umumiy majburiyat nazariyasida bayon qilingan an'anaviy shartnomalarning tuzilishi qoidalariga amal qiladi. Elektron shartnoma-bu vaqt va makon bo'yicha cheklanmagan, sertifikatlar asosida elektron imzolar va shifrlash orqali osonlashtiriladigan

ISSN 3030-3230

shartnomalarni onlayn tarzda yaratish, imzolash, boshqarish va saqlashdir. [5]

Ba'zi huquqshunos olimlarning ta'kidlashicha, UNCITRALning Elektron tijorat to'g'risidagi Model qonunida elektron shartnoma aniq belgilanmagan bo'lsa-da, u bunday shartnomalarni tuzishda qo'llaniladigan usullarni belgilaydi. [6]

1997-yil 20-mayda Yevropa Parlamenti tomonidan qabul qilingan 97/7/EC direktivasi masofaviy shartnomalar va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu qonun masofaviy shartnomani "yetkazib beruvchi tomonidan boshqariladigan masofaviy sotish yoki xizmatlar ko'rsatish sxemasi bo'yicha yetkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasida tuzilgan tovarlar yoki xizmatlarga oid har qanday shartnoma", deb ta'riflaydi.[7] Ushbu direktiva masofaviy shartnomalar doirasidagi elektron shartnomalarni o'z ichiga oladi va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarni elektron tartibga solinadigan shartnomalarga to'sqinlik qilmaslikka va ularni odamlarning to'g'ridan-to'g'ri aloqasini talab qilmasdan tuzishga yordam berishga chaqiradi.

Elektron shartnomaning ta'rifi ishtirokchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning tabiatidan kelib chiqishi mumkin. Ba'zi ekspertlar uni texnik yoki texnologik jihatdan aniqlab, uni aqlli agent deb atashadi. Ushbu agent elektron tijorat operatsiyalarining murakkabligiga moslashish va boshqarish uchun yuqori darajadagi intellektual qobiliyatni namoyish etadi. Bundan tashqari, u keng ko'lamli, ko'p vaqt talab qiladigan shartnomalarni soddalashtirilgan elektron tranzaktsiyalarga samarali tarzda qisqartiradi, shartnoma davomida yetkazilgan va amalga oshirilgan barcha muzokaralarning to'liq rekordini saqlaydi. [8]

Tovarlar va xizmatlar bo'yicha takliflarning bir nechta yurisdiksiyalar bo'ylab jismoniy shaxslar tomonidan qabul qilinishi bilan shartnomalarning tuzilishi turli texnologik vositalar, shu jumladan global internet tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Maqsad elektron shartnoma doirasida ko'pincha «aqlli shartnomalar» deb ataladigan kelishuvlarni rasmiylashtirishdir. Shu nuqtai nazardan, elektron shartnoma shartnoma majburiyatlarini o'rnatish uchun elektron ma'lumotlar almashinuvidan foydalangan holda Internetning keng qamrovi orqali taklif va qabul qilishning yakuniy nuqtasi sifatida paydo bo'ladi. [9]

Ushbu shartnomalar odatda elektron tijorat shartnomalari deb ataladi, chunki ularning tabiati, xususan, onlayn domenda, elektron tijorat faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Elektron tijorat konsepsiyasi bilvosita Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining (UNCITRAL) Elektron tijorat to'g'risidagi Model qonuni 1-moddasida bilvosita ta'riflangan bo'lib, u elektron vositalar yoki shunga o'xshash usullar orqali amalga oshiriladigan, yuborilgan yoki qabul qilinadigan barcha tijorat faoliyatiga oid masalalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi keng va xilma-xildir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida: "Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnomamajburiyatlarivao'zgamajburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishi belgilab qo'yilgan.

Elektron shartnomalarni o'rganishdan oldin, shartnomalarning umumiy tushunchasini bilish muhimdir. Shartnomalar tomonlar, odatda kreditor va qarzdor o'rtasidagi majburiyatlarni belgilovchi huquqiy kelishuvlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga ko'ra, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. Shartnomani bir tomon taklif qilsa, ikkinchi tomon qabul qiladigan, ikki tarafning roziligi asosida o'zaro majburiyatlarni o'rnatadigan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Elektron tijoratga asoslangan biznes faoliyatida ko'pincha web-saytlar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali taklif qilinadigan tovarlar oldi-sotdisini amalga oshirish uchun shartnomalardan foydalanadi. Shartnoma elektron shakldagi ko'rishiga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan tasdiqlangan Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalarida elektron shartnoma tushunchasiga huquqiy ta'rif berilgan. Unga ko'ra, elektron shartnoma —

tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda sotuvchi va xaridor o‘rtasida tuziladigan shartnoma.

Elektron tijorat sohasiga kiradigan shartnomalar oddiy tijorat va fuqarolik-huquqiy shartnomalardan iborat. O‘zbekiston qonunchiligida Internetda fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzishning maxsus huquqiy reglamenti mavjud emas. Internetda tuzilgan shartnomalar shartnomalar tuzish tartibi to‘g‘risidagi umumiy qoidalarga bo‘ysunadi.[10]

Elektron tijorat subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solish hamda elektron tijorat subyektlari tomonidan bitimlar tuzish tartibini, elektron tijoratda qo‘llaniladigan elektron hujjatlar va xabarlarni saqlash tartibini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 iyundagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 185-sonli qarori qabul qilindi . Mazkur qaror bilan “Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari” 1-ilovaga muvofiq va “Shartnomalarni tuzishda elektron raqamli imzolarni qo‘llash va elektron hujjatlarni hamda elektron tijoratda qo‘llaniladigan elektron xabarlardagi mavjud axborotni saqlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 249-son qaroriga 2-ILOVA sifatida Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni elektron ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom qabul qilingan. Unda tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni Yagona elektron shartnomalar axborot portalida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi belgilangan va bu nizom tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuziladigan barcha shartnomalarga nisbatan tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi PF–5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasining I-bo‘limi 5-bandida Fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga to‘sqinlik qiluvchi fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy bo‘shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etish nazarda tutilgan. Ushbu Konsepsiyaning III-bo‘limi 3-bandida shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning sifat jihatdan yangi mexanizmlarini joriy qilish, shu jumladan shartnoma tuzish erkinligini kengaytirish, shartnomaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash, shartnomaviy munosabatlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni tartibga solish nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini zamon talablariga mos ravishda yangi tahrirda ishlab chiqish uchun harakatlar boshlab yuborilgan.

Fuqarolik kodeksining 107-moddasi to‘rtinchi qismiga asosan, Xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasining mazmunini ifodalaydigan boshqa hujjatlarni o‘zaro ayirboshlash, agar qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi. Ushbu qoida, elektron shaklda tuzilgan shartnomani yozma shartnomaga teng ekanligiga ishora qiladi.

Bugungi kunda bitim zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tuzilishi mumkinligini inobatga olgan holda, Fuqarolik kodeksiga bitimlar og‘zaki yoki yozma(oddiy yoki notarial tasdiqlangan), shu jumladan raqamli shaklda tuzilishi mumkinligi, shuningdek, axborot saqlovchi moddiy jismda bitim mazmunini o‘zgarishsiz ifodalash imkonini beradigan elektron yoki boshqa texnik vositalar yordamida tuzilgan bitim yozma shaklga rioya qilgan holda tuzilgan hisoblanishi haqidagi qoida kiritish taklif etilmoqda. Bunda o‘z hohish-irodasini ifodalagan shaxsni ishonchli aniqlash imkonini beradigan har qanday usuldan foydalanilgan bo‘lsa imzoning mavjud bo‘lishi to‘g‘risidagi talab bajarilgan hisoblanadi. Qonun va taraflarning kelishuvi bilan xohish-irodani ifodalagan shaxsni ishonchli aniqlashning maxsus usullari nazarda tutilishi mumkin.

Elektron shartnomalarni tuzishni takomillashtirish, ular bo‘yicha huquqiy munosabatlarni mustahkamlash va tadbirkorlik hamda tijorat faoliyatida foydalanishni kengaytirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Elektron imzo tizimini takomillashtirish va ommalashtirish. Elektron imzo elektron shartnomalarning asosiy komponenti hisoblanadi. Elektron shartnomalarni to‘liq qonuniy kuchga ega qilish uchun ishonchli va xavfsiz elektron imzo tizimi talab qilinadi. Shuning uchun, O‘zbekistonda elektron imzo xizmatlari

ISSN 3030-3230

provayderlari sonini ko‘paytirish va raqamli imzolarni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Elektron imzo qo‘yish jarayonini soddalashtirish va uni barcha foydalanuvchilar uchun osonlashtirish maqsadida mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali elektron imzo qo‘yish imkoniyatlarini kengaytirish lozim

Elektron shartnomani tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish. Milliy qonunchilikda, Fuqarolik kodeksiga elektron shartnomalar uchun maxsus normalarni ishlab chiqish va ular bo‘yicha huquqiy rejimni belgilash muhimdir. Bu shartnomalarning yuridik kuchi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi kafolatlanishi kerak.

Internetda elektron shartnomalarni tuzishdagi tushunmovchiliklar va muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini elektron shartnomalarni tuzish bilan bog‘liq quyidagi qoidalar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

- Tomonlarning joylashgan joyini ko‘rsatish majburiyatini, ayniqsa mamlakat domen nomi va kontragent joylashgan mamlakat o‘rtasida tafovut mavjud bo‘lganda;
- Elektron shartnoma matnining saqlanishini ta’minlash majburiyati;
- Shartnoma tuzish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘ldirgandan so‘ng texnik xatolarni tuzatish uchun texnik imkoniyat bilan ta’minlash;
- Bir nechta shartnoma qoidalari variantlarini tanlash imkoniyati;
- Shartnomani bajarish joyini ko‘rsatish majburiyati;
- Qarama-qarshiliklar yuzaga kelganda shartnomalarni bajarish bo‘yicha kelishmovchiliklar va sud vakolatlarini ko‘rsatish majburiyati.

Аннотация. Рост электронной коммерции во всем мире, создание широких возможностей для субъектов предпринимательства, революционные изменения в цифровизации и технологиях, появление электронных контрактов и новых форм ведения бизнеса-все это порождает необходимость исследования данной темы. До революционных открытий в области технологий транзакции между предпринимателями совершались в других формах, которые не были прямыми или электронными, а также существовали как устные, так и письменные формы транзакций. В связи с быстрым развитием технологий электронных транзакций, учитывая множество удобств и экономичности в социальных отношениях, стали широко использоваться. Как и в случае с прямыми транзакциями, электронные контракты стали приобретать все большее значение в деловых отношениях. В данной статье рассматривается понятие, признаки и особенности электронного договора, его отличия от других договоров, а также регламентация нормами национального и международного права. Были упомянуты законодательные препятствия и риски при заключении электронных контрактов, риски мошенничества, проблемы, связанные с технологией электронной подписи, и предложены эффективные решения.

Ключевые слова: электронная коммерция, электронный контракт, электронная подпись, модельное право UNCITRAL, сообщение данных(сообщения данных), юридическая сила контракта.

Annotation. The growth of e-commerce all over the world, the creation of a wide range of opportunities for business entities, revolutionary changes in digitization and technology, the emergence of new forms in electronic contracts and business conduct, is precisely what creates the need for research on this topic. Before the revolutionary discoveries in the field of technology, transactions between entrepreneurs were carried out in other forms, direct or non-electronic, and there were also oral and written forms of transactions. Due to the rapid development of its technology, electronic transactions began to be widely used in social relations, taking into account many amenities and savings. As with direct transactions, electronic contracts began to play an important role in entrepreneurial relations. This article covers the concept, signs and specifics of an electronic contract, aspects different from other contracts, as well as its regulation by the norms of national and international law. In the conclusion of electronic contracts, legislative barriers and risks, fraud risks, problems related to electronic signature technology were mentioned, and effective solutions were proposed.

Key words: e-commerce, electronic contract, electronic signature, UNCITRAL Model Law, data message (data messages), legal force of contract.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Электронная коммерция во всем мире — статистика и факты | Statista https://www.statista.com/topics/871/online shopping/#topicOverview

2. «Типовой закон об электронной торговле» (“Model Law on Electronic Commerce”), принятый Комиссией Организации Объединенных Наций по праву международной торговли (ЮНСИТРАЛ) и «Руководство по принятию //http://www.uncitral.org/uncitral/ru/uncitral_texts/electronic_commerce/1996Model.html//

3. Sadual, M. K. (2021). Electronic Contracts: Legal Issues and Challenges. International Journal of Reserach and Analytical Review, 8(3), 793-798. https://www. ijrar.org/papers/IJRAR21C2209.pdf

4. Parmitasari, I. (2021). IMPLEMENTATION OF ELECTRONIC CONTRACTS IN ELECTRONIC TRANSACTIONS. Proceedings of the National Seminar on Research Results and Community Service, 253–266.

5. Kim, J.-N., & Park, J.-R. (2014). Study on the Electronic Contract. Journal of The Korea Society of Computer and Information, 19(6),129-138.https://doi.org/10.9708/jksci.2014.19.6.129

6. Khan, B., & Kishore, K. (2023). Mandatory Uncitral Model Laws: An Anlysis. In Policies, Practices, and Protocols for International Commercial Arbitration (pp. 91-100). IGI Global. https://doi.org/10.4018/978-1-6684-4040-004

7. Steennot, R. (2013). Consumer protection with regard to distance contracts after the transposition of the Consumer Rights Directive in Belgium and France. European Consumer Law Journal, (3-4), 415-458.

8. Ko lvart, M., Poola, M., & Rull, A. (2016). Smart Contracts. In T. Kerikma e & A. Rull (Eds.), The Future of Law and eTechnologies (pp. 133-147). Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-319-26896-5_7

9. Wang, X., & Xu, F. (2023). The value of smart contract in trade finance. Manufacturing & Service Operations Management, 25(6),2056-2073.https://doi.org/10.1287/msom.2022.1126

10. Ixtiyor Xolov. INTERNET TARMOG‘IDA SHARTNOMALARNI TUZISH MEXANIZMLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH. https://buxoro-ma’muriy.sud.uz/internet-tarmogida-shartnomalarni-tuzish-mexanizmlarini-huquqiy-tartibga-solishni-takomillashtirish/

ISSN 3030-3230

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INSON HUQUQLARIGA RIOYA QILGAN HOLDA MAXSUS VOSITALARNI QO‘LLASHNING HUQUQIY MASALALARI

Yunusov Davronbek Bekmirza o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

Annotatsiya. **Mazkur maqolada mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson huquqlariga rioya qilgan holda maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy masalalari tahlil qilinib, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.**

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, maxsus vositalar, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, kuch ishlatish bosqichlari, oxirgi zarurat, zaruriy mudofaa.

“Hozirgi vaqtda dunyoda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish, demokratiya va qonun ustuvorligini ta’minlash markaziy o‘rinni egallamoqda”
Sh.M. Mirziyoyev

Bugungi kunda dunyoda jamoat xavfsizligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson huquqlariga rioya qilgan holda maxsus vositalarning qo‘llanilishi bu masalaning markazida turadi.

Mamlakatimizda ham jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Biroq, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda maxsus vositalarni qo‘llash jarayonida inson huquqlarini hurmat qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Shuning uchun ham, inson huquqlarini ta’minlash barcha huquqiy davlatlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlarini ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan maxsus vositalarni qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamoat xavfsizligi va inson huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni topish ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, davlat o‘z fuqarolarining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashi, jinoyatchilikka qarshi kurashishi lozim. Boshqa tomondan esa, u inson huquqlarini cheklashda qonuniylik, zaruriylik va mutanosiblik tamoyillariga rioya qilishi kerak.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijasida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi va unga muvofiq insonlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi etib belgilandi. Konstitutsiyamizning 21-moddasi: “Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonlarning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibi ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin[1] – deb belgilanganligi ham fikrimizning isbotidir.

Dastavval inson huquqlari tushunchasi ta’rifiga e’tibor qaratsak: “Inson huquqlari deganda, insonning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari

va majburiyatlarini belgilovchi va tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi” deb tushuniladi [2].

Haqiqatdan ham, inson huquqlari har bir insonning tug‘ilishidan boshlab ega bo‘lgan asosiy huquq va erkinliklari bo‘lib, ular insonning qadr-qimmati, erkinligi va tengligini ta’minlaydi. Bu huquqlar universal, ajralmas va o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni himoya qilish va ta’minlash demokratik jamiyatlarning asosiy vazifalaridan biridir. Inson huquqlari tushunchasi va huquqiy asoslari uzoq tarixga ega bo‘lib, u yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan.

Inson huquqlari tushunchasi 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”[3]da o‘z aksini topgan. Bu hujjat dunyodagi barcha insonlarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilab beradi va keyinchalik qabul qilingan ko‘plab xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va milliy qonunchiliklar uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan inson huquqlari bo‘yicha asosiy huquqiy hujjatdir. Deklaratsiyada insonlarning yashash, erkinlik va daxlsizlik huquqini himoya qilishda Huquqni muhofaza qiluvchi organ mansabdor shaxslari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinib turibdiki, xalqaro normativ huquqiy hujjatlarda ham insonlarning huquq va erkinliklarni ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan zarur hollarda oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqmagan holda maxsus vositalarni qo‘llash mumkinligi asoslantirilgan.

Bir qator tadqiqotchilar ham Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kuch ishlatish vaqtida ayniqsa maxsus vositalarni qo‘llashda inson huquqlarini ta’minlash zarurligi bo‘yicha fikrlar ilgari surgan. Masalan tadqiqotchi Anneke Osse o‘z ijodida “Politsiya faoliyati bilan inson huquqlari bir-biriga zid emas, aksincha, ular bir-birini to‘ldiradi. Politsiyaning asosiy vazifasi - inson huquqlarini himoya qilishdir”[4] deb ta’kidlagan.

Yana bir tadqiqotchi David H. Bayley[5] “Politsiya faoliyatining asosiy maqsadi - inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Politsiya faoliyati va inson huquqlari bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini taqozo etadi” deb fikrlarini ilgari surgan. Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlariga qo‘shilgan holda haqiqatdan ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining asosini inson huquqlari hamda jamoat xavfsizligini ta’minlashdan iboratdir.

Shuningdek, 1990-yilda BMTning Gavanada o‘tkazilgan 8-kongressdagi “Huquq tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o‘qotar qurol ishlatishining asosiy prinsiplari” qabul qilingan[6]. Ushbu hujjat 26 ta prinsipdan iborat bo‘lib, maxsus vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq quyidagi asosiy prinsiplarni o‘z ichiga oladi:

- **Zaruriyat prinsipi;**
- **Mutanosiblik prinsipi;**
- **Qonuniylik prinsipi;**
- **Hisobdorlik prinsipi.**

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 20-moddasida[7] ham “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” deb belgilangan yangi normalarning kiritilganligi xalqaro standartlarni qonunchiligimizga joriy etilganligini ko‘rsatadi. Biroq jamoat xavfsizligini ta’minlashda maxsus vositalarni qo‘llanilishi ustidan jamoatchilik nazoratini hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hisobdorligini oshirish zarur. Shuning uchun ham harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlashda maxsus vositalarni qo‘llashi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish zarur hisoblanadi.

Yurtimizda harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy asoslari, shartlari va tartibi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi”[8], “Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi”[9], “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi”[10], “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risidagi”[11], “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi”[12], “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi”[13] Qonunlarda maxsus vositalarni qo‘llash sharti, tartibi va chegaralari qonuniy mustahkamlab qo‘yilgan.

Ko‘pgina mamlakatlar o‘z milliy qonunchiligida ham maxsus vositalarni qo‘llash tartibini belgilagan. Masalan, Germaniyada “Polizeiliche Zwangsanwendung” qonuni[14] maxsus vositalarni qo‘llash tartibini belgilaydi.

AQShda esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kuch ishlatishni tartibga solishda “Force Continuum” modeli qo‘llaniladi[15], bu model AQSH politsiya xodimlariga vaziyatga qarab kuchni bosqichma-bosqich qo‘llash imkonini beradi.

“Force Continuum” (Kuch qo‘llash bosqichlari) modeli - bu huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan kuch ishlatishning bosqichma-bosqich tizimidir. Bu model 1980-yillarda AQShda rivojlana boshlagan, politsiya xodimlariga vaziyatga qarab mos darajadagi kuchni tanlash va qo‘llash imkonini beradi.

ISSN 3030-3230

Shuningdek, “Force Continuum” (Kuch qo‘llash bosqichlari) modelining bosqichlari:

1. Politsiya xodimining xizmat joyida faoliyat yuritishi, vaziyatni kuzatishi va baholash bosqichi;

2. Og‘zaki muloqot bosqichi: (bunda xodim tomonidan aniq va qat’iy og‘zaki tushuntirishlar bilan vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etishi lozim);

3. Yengil jismoniy kuch ishlatish bosqichi: (ushbu bosqichda xodim tomonidan huquqbuzarni qo‘lidan ushlashi, joyidan siljitishi, to‘xtatishi, yengil kuch ishlatishidan iborat bo‘ladi);

4. Faol jismoniy kuch ishlatish bosqichi: (huquqbuzarni qo‘llarini orqaga qayirishi, yerga yotqizishi, qo‘l jangi usullarini qo‘llashdan iborat bo‘ladi);

6. Maxsus vositalarni qo‘llash bosqichi: (huquqbuzarlarga nisbatan faol maxsus vositalar (maxsus tayoqlar, elektroshoker va boshqa vositalarni) qo‘llash);

7. O‘qotar qurollarni qo‘llash bosqichi: (huquqbuzarga nisbatan faqat eng so‘nggi chora sifatida o‘qotar qurol qo‘llashdan iborat) [16].

Ushbu modelni O‘zbekiston qonunchiligiga moslashtirilgan variantini ishlab chiqish va dastlab ma’lum bir hududda amaliyotda qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu model O‘zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirib, inson huquqlarini himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlashda maxsus vositalarni qo‘llashda shaffoflikni hamda ochiqlikni ta’minlash maqsadida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ga harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlashda maxsus vositalardan qo‘llashi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vakolatini beruvchi normani qonunchilikka kiritishni taklif etamiz.

Ikkinchidan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari tomonidan maxsus vositalarni qo‘llash holatlari bo‘yicha majburiy hisobot berish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” Qonunning 28-moddasiga “Jismoniy kuch ishlatilgan, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilgan har bir holat to‘g‘risida Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisi (xodimi) bevosita komandiriga (boshlig‘iga) darhol og‘zaki axborot berishi shart. Hodisa sodir bo‘lgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, yozma ravishda, batafsil hisobot taqdim etishi shart. Harbiy xizmatchi (xodim) taqdim etgan hisobot bevosita komandiri (boshlig‘i) tomonidan 24 soat ichida o‘rganib chiqilishi va tegishli xulosalar rasmiylashtirilishi lozim. Hisobotlar majburiy ravishda ro‘yxatga olinishi, tahlil qilinishi va nazorat qilinishi lozim” deb kiritishni taklif etamiz.

Uchinchidan, AQShda singari kuch ishlatishni tartibga solishda “Force Continuum” (Kuch ishlatish bosqichlari) modelini O‘zbekiston qonunchiligiga moslashtirilgan varianti ishlab chiqib, joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilish o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Davlat siyosati va amaliyoti ana shu ikki muhim vazifani uyg‘un ravishda hal etishga qaratilishi kerak. Maxsus vositalarni qo‘llash tizimini isloh qilish va takomillashtirish ham xuddi shu tamoyilga asoslanishi lozim. Faqat shundagina mazkur tizim xalqchil va adolatli bo‘ladi, fuqarolarning ishonchini qozonadi, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati poydevoriga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье проанализированы правовые вопросы применения специальных средств для обеспечения общественной безопасности в нашей стране с соблюдением прав человека, а также разработаны предложения и рекомендации по выявлению существующих проблем и путей их решения.

Ключевые слова: права человека, специальные средства, общественная безопасность, общественный порядок, этапы применения силы, крайняя необходимость, необходимая оборона.

Annotation. This article analyzes the legal issues of the use of special means to ensure public safety in our country in compliance with human rights, and offers and recommendations for identifying existing problems and ways to solve them were developed.

Key words: human rights, special means, public safety, public order, stages of use of force, last necessity, necessary defense.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston. T.: 2023 // https://lex.uz. 21-modda 10-bet
2. M.X. Rustambayev va boshqalar. Inson huquqlari darslik. “Yuridik adabiyotlar publish” T.: 2023 17-bet
3. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr. BMT 217 A (III)-sonli rezolutsiyasi // https://constitution.uz.
4. A.Osse. Understanding Policing: A Resource for Human Rights Activists. Amnesty International. 2006-yil, 33-bet. https://policehumanrightsresources.org/understanding-policing-resource-human-rights-activists
5. David H. Bayley Changing the Guard: Developing Democratic Police Abroad 2005-yil 24-noyabr 18-bet https://academic.oup.com/book/50180
6. Basic Principles on the Use of Force and Firearms by Law Enforcement Officials. Eighth United Nations Congress. Havana. Cuba. 27 August to 7 September 1990.
7. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston. T.: 2023 // https://lex.uz. 20-modda 10-bet.
8. 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ – 647-sonli Qonuni https://lex.uz.
9. 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ – 407-sonli Qonuni https://lex.uz.
10. 2018-yil 05-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ – 471-sonli Qonuni https://lex.uz
11. 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ – 502-sonli Qonuni https://lex.uz
12. 2022-yil 15-iyundagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ – 778-sonli Qonuni https://lex.uz
13. 2021-yil 06-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ – 700-sonli Qonuni https://lex.uz
14. Deutsches Polizeigesetz. (2018). Polizeiliche Zwangsanwendung. Retrieved from https://www.gesetze-im-internet.de/bzwg/
15. National Institute of Justice. (2009). 3 avg. The Use-of-Force Continuum. Retrieved from https://nij.ojp.gov/topics/articles/use-force-continuum
16. National Institute of Justice. (2009). 3 avg. The Use-of-Force Continuum. Retrieved from https://nij.ojp.gov/topics/articles/use-force-continuum.

ISSN 3030-3230

ODAM O‘G‘IRLASH JINOYATINING BOSHQA O‘XSHASH TARKIBLI JINOYATLARDAN FARQLANISHI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Ortiqov Abror Nemat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada odam o‘g‘irlash va garovga olish jinoyatlari yuzasidan bir qancha mamlakatlarning huquq normalari, huquqshunoslarining keng qamrovli fikrlari atroflicha yoritilgan. Xorijiy davlatlarda odam o‘g‘irlash va garovga olish jinoyatlari aybdorlariga uning qilmishiga yarasha jazo tayinlanishi muammolari muhokama qilinib, jinoiy jazolarni qo‘llanilishi, og‘irlik darajalari taqqoslanib o‘rganilgan. Inson huquqlarini ta’minlash, jumladan shaxs erkinligi va uni o‘g‘irlashning jinoiy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, odam o‘g‘irlash oqibatida murakkab aybli jinoyatlarning yuzaga kelishi mumkinligi o‘rganilgan. AQSH, Xitoy, Yevropa davlatlarida ushbu jinoyatlarga nisbatan jazoning tayinlanishi va uni kvalifikatsiya qilinishi qisqacha tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: Erkinlik, odam o‘g‘irlash, jinoyat tarkibi, yomon niyat, hibsga olish, garovga olish, erkinlikka tajovuz qilish, ozodlikdan mahrum qilish, zo‘ravonlik ishlatish.

XXI asrning o‘tgan chorak davri davomida ilm-fan, texnika va yangi axborot texnologiyalari rivojlanishi, jadallashuvi yuz berdi, lekin, Inson huquq va manfaatlarini ta’minlash dolzarb muammoligicha qolmoqda. So‘ngi yillarda ayniqsa, insonning shaxsiy daxlsizligi tajovuz qilish O‘zbekiston Respublikasida ham, butun dunyoda ham fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzish sohasida o‘ta salbiy hodisalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. 2022-2023 yillarda Odam o‘g‘irlash jinoyatlari (O‘z. Res. JK 137-modda) 99 ta holatda, Zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ozodlikdan mahrum qilish jinoyatlari (O‘z. Res. JK 138-modda) 156 ta holatda sodir etilganligi [1] shaxs erkinligiga qarshi jinoyatlar ham soni va salmog‘i jihatdan o‘sib borayotganligini ko‘rsatadi. Shaxs ozodligiga qarshi jinoyatlar bir-biridan asosan qilmishning obyektiv va subyektiv tomoni belgilariga ko‘ra farqlanadi. Zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish normalari raqobati sifatida odam o‘g‘irlash jinoyatining tarkibi bilan o‘zaro bevosita nisbatga kirishadi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-huquqiy qonunchiligida odam o‘g‘irlash jinoyatini kvalifikatsiya qilish, uni shaxs erkinligiga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlardan ajratish masalalari hali ham o‘zining to‘liq yechimini topganicha yo‘q. Sud amaliyoti va tergov jarayonlarida ko‘plab holatlarda zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va odam o‘g‘irlash bilan bog‘liq jinoyatlarni bir-biridan farqlashda muammolar yuzaga kelishi ayni shu bilan bog‘liq.

Odamni o‘g‘irlash va tutqunlikda saqlash jinoyatlari esa inson huquq va manfaatlarining qo‘pol tarzda buzilishidan dalolat beradi. Shuning uchun Shaxsni garov sifatida ushlab tutqunlikka olish va Odam o‘g‘irlash jinoyatlariga qarshi kurash yuzasidan xorij tajribasini o‘rganish, qonunchilik normalarini qayta ko‘rib chiqish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir. Jinoyat subyekti 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin. Jinoyatchilar 16 yoshga to‘lmagan, ammo shaxsni garovga olgan holatlarda ularning harakatini boshqa moddalar bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim [2]. Odam o‘g‘irlash jinoyati xususida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida aniq ta’rif berilmagan, Jinoyat kodeksi 137-moddasida “Ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lmagan holda odam o‘g‘irlash” sifatida 14 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Bu ikki jinoyat bir-biriga yaqin jinoyatlar bo‘lib, ularni farqlash jinoyatni kvalifikatsiya qilishda eng muhim omildir. Odam o‘g‘irlash jinoyatlari bevosita shaxsga va uning erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlarga daxl qiladi, Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarining obyekti esa eng avval Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida baholash mumkin. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoiy uyushma tashkil etish, kontrabanda, ommaviy tartibsizliklar bilan bir qatorda jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyat hisoblanadi. Ikki jinoyatda ham jinoyatchilarning maqsadlari turli yo‘nalishlarda

belgilanadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlarda bu ikki jinoyat bir o‘rinda ifodalanishi va turdosh jinoyatlar sifatida qaralishi holatlari mavjud. Odam o‘g‘irlashga u keyinchalik ushlab turiladigan joyning yashirin xususiyati xos. Zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishda mazkur joyning “yashirinligi” hech qanday ahamiyatga ega emas. Har qanday makon, xona (aksariyat hollarda jabrlanuvchi yoki aybdorning doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi, ish joyi va h.) jabrlanuvchini ushlab turish joyi bo‘lishi mumkin.

Demokratik prinsiplarning ilg‘or tashabbuskori sifatida qaraladigan AQSH Qonunlar to‘plamining 1202-paragrafida yuqorida zikr etilgan (1201-paragrafda nazarda tutilgan) jinoyatlarni sodir etish munosabati bilan tovon puli yoki haq sifatida topshirilgan pul mablag‘lari mol-mulk yoki uni biron-bir qismini bila turib olgan shaxsga o‘n ming dollargacha jarima yoki o‘n yilgacha turma qamog‘i yoki ikkala turdagi jazo nazarda tutilgan. Ayni shu qonunlar to‘plamning 1751-paragrafiga muvofiq AQSH Prezidenti yoki uning devoni a’zosini o‘ldirish, o‘g‘irlash yoki unga hujum qilish uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan [3]. Amerika Qo‘shma Shtatlari jinoyat huquqining o‘ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, mazkur davlatda bir necha o‘nta huquqiy tizim muvoziy tarzda amal qiladi. Ba’zan bu huquqiy tizimlar bir-biridan sezilarli darajada ajralib turadi [4]. Odam o‘g‘irlash turlari va mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun jazo AQSH federal jinoyat qonunchiligi va ayrim shtatlarini qonun hujjatlariga muvofiq bir xil emas. Aynan shtatlarda odam o‘g‘irlash uchun hatto o‘lim jazosi ham nazarda tutilgan (bunda jazo faqat odam o‘g‘irlash jabrlanuvchining o‘limiga olib kelgan hollardagina tayinlanishi mumkin). Mazkur jazo o‘g‘irlanganlarni tirik qaytarish va o‘g‘rilarni ularning hayoti haqida o‘ylashga majbur etish uchun nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. AQSH namunaviy jinoyat kodeksning “Odam o‘g‘irlash va bunda turdosh jinoyatlar” deb nomlangan 212-bo‘limiga “ularni o‘g‘irlash” deb nomlangan 212.1-modda kiritilgan bo‘lib, unda quyidagi maqsadlardan birini ko‘zlab o‘zga shaxsni uning yashash yeri ish joyidan boshqa joyga g‘ayriqonuniy ravishda ko‘chirilgan yoxud shaxsning bir joydan alohida ajratilgan boshqa joyga uzoq muddatga g‘ayriqonuniy ravishda ko‘chirgan shaxs odam o‘g‘irlashda aybdor bo‘lishi aytilgan: a) o‘zga shaxsni tovon puli yoki haq to‘lashni talab qilish uchun yoki garov sifatida tutqunlikka olish; b) biron-bir og‘ir jinoyat sodir etishni yoki uni sodir etgandan so‘ng qochib yashirinishni yengillashtirish; yoki jabrlanuvchining yoxud o‘zga shaxsning badaniga shikast yetkazish yoki ularda qo‘rquv uyg‘otish; yoki biron-bir davlat funksiyasi yoki siyosiy funksiyani bajarishga to‘sqinlik qilish [5]. Uzoq vaqt davomida AQSh sudlari odamni (odatda bolani) o‘g‘irlashni yanada qattiqroq jazoga loyiq bo‘lgan noqonuniy qamoq turi sifatida ko‘rib chiqdi. O‘g‘irlangan shaxsni boshqa davlatga yoki bir shtatdan boshqasiga olib o‘tish og‘irlashtiruvchi holat deb topildi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, AQShda yuzdan ortiq shunga o‘xshash jinoyatlar jinoiy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida tan olingunga qadar (odatda to‘lov olish maqsadida) sodir etilgan [6].

Nyu-York shtatining jinoyat kodeksiga muvofiq o‘zga shaxsni o‘g‘irlagan odam, agar u mazkur qilmishni: 1) uchinchi shaxsni tovon to‘lashga yoki tovon haqi sifatida pul yoki mol-mulkni topshirishga yoxud muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarmasdan o‘zini tiyishga majburlash niyatida sodir etgan; 2) agar aybdor o‘zga shaxsni: a) uning badaniga shikast yetkazish yoki nomusiga tegish; b) og‘ir jinoyat sodir etish yoki sodir etishga ko‘maklashish; v) uni yoki uchinchi shaxsni ta’qib qilish; g) ma’muriy yoki siyosiy vazifalarini bajarishga aralashish niyatida 12 soatgacha ko‘proq vaqt tutqunlikda saqlagan bo‘lsa; 3) agar o‘g‘irlangan shaxs o‘g‘irlash vaqtida yoki uni qaytargunlariga qadar o‘lgan bo‘lsa, birinchi darajali odam o‘g‘irlashda aybdor deb topiladi. Umumiy qonunga ko‘ra, odam o‘g‘irlash bir mamlakatda odamni majburan o‘g‘irlash va boshqasiga olib ketishdir. Biroq, deyarli barcha jinoyat kodeksida bu jinoyat kengroq tushuniladi. Masalan, ular, qoida tariqasida, biron bir hududga “ko‘chib o‘tish” belgisini eslatmaydilar. Istisno Kaliforniya Jinoyat kodeksi bo‘lib, u o‘g‘irlash ta’rifida o‘g‘irlangan shaxsni “boshqa mamlakatga, boshqa shtatga, boshqa okrugga yoki o‘sha okrugning boshqa qismiga” tashish haqida gapiradi (207-modda) [6].

Xitoy xalq respublikasining jinoyat qonunchiligida esa, odam o‘g‘irlash va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish uchun javobgarlik bitta moddada ko‘zda tutilgan: XXR JKning 239-moddasiga muvofiq tovlamachilik yo‘li bilan mol-mulkni berishni talab qilish maqsadida odam o‘g‘irlash yoki uni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyat deb topiladi. XXR JKning 238-moddasida uchinchi shaxsni g‘ayriqonuniy ravishda hibs etish yoki uni

ISSN 3030-3230

boshqa yo‘llar bilan ozodlikdan mahrum qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Odam o‘g‘irlash uchun maxsus javobgarlik uchun faqat – maxsus maqsad – tovlamachilik yo‘li bilan mol-mulkni berishni talab qilish mavjud bo‘lgan holdagina nazarda tutilganini e’tiborga olib, mazkur qilmish aybdorning yuqorida zid etilgan maqsadisiz sodir etilgan taqdirda uning harakatlari g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Bunday jinoyatni sodir etgan shaxs o‘g‘irlangan shaxsni o‘ldirgan yoki badaniga shikast yetkazgan bo‘lsa, XXR JKning odam o‘ldirish va badanga shikast yetkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan 232-moddasi yoki 234-moddasi bilan jinoyatlar majmui bo‘yicha o‘lim jazosiga hukm qilinishi ham mumkin [8].

XXR JKning 240-moddasida ayol yoki bolani sotish maqsadida o‘g‘irlash uchun alohida jinoyat-huquqiy norma nazarda tutilgan mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun jazo – jarima solgan holda besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish. Javobgarlikni og‘irlashtiruvchi alohida holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda jazo chorasi kuchaytiriladi (o‘lim jazosiga qadar) [9]. Xorijiy huquq manbalarida odam o‘g‘irlash, undan foydalanish, garovga olish va tahdid qilish orqali pul talab qilishga oid normalar belgilangan, lekin jinoyatning obyekti xususida turlicha to‘xtamlarga kelingan. Jinoyatlar uchun jazo choralar keskin bo‘lib, 20 yilgacha qamoq va ozodlikdan mahrum etish, yoki oliy jazogacha bo‘lgan sanksiyalar qo‘llanilgan.

Yaponiya jinoyat qonunchiligida (tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan 1907-yilgi JKda) g‘ayriqonuniy ravishda ushlab turish va ozodlikdan mahrum qilish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan (220-modda), bunda mazkur qilmishni jinoyatchining yoki uning xotini (eri)ning yaqin qarindoshi bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etish jinoyatning javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holati sifatida belgilangan [10]. Ushbu jinoyatni sodir etilganlik uchun Yaponiya JKda yetti yilgacha muddatga majburiy jismoniy mehnat tariqasidagi jazo nazarda tutilgan.

Ayrim davlatlar shu jumladan MDH davlatlari (Qozog‘iston, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi) ning jinoyat qonunchiligida odam o‘g‘irlash yoki shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish sodir etgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlikdan, binobarin, boshqa jinoyat-huquqiy oqibatlaridan ham ozod qilish imkoniyati nazarda tutilgan. Bu yerda gap chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish, ya’ni odam o‘g‘irlagan yoki uni garov sifatida tutqunlikka olgan shaxs ushlab turilgan odamni ixtiyoriy ravishda qo‘yib yuborishi haqida boradi. O‘zbekiston, Ukraina, Estoniya va boshqa davlatlarning jinoyat qonunchiligida odam o‘g‘irlash uchun ham, g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish uchun ham aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyati nazarda tutilmagan. Uzoq xorij mamlakatlarining qonun chiqaruvchilari odam o‘g‘irlagan va uni qo‘yib yuborgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni emas, balki bu holda jazoni yumshatishni ma’qul ko‘radi. Masalan, GFR JK 239-a-paragrafining tovlamachilik maqsadida odam o‘g‘irlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan to‘rtinchi qismga muvofiq, agar jinoyatni bajaruvchi o‘zi talab qilgan tovon pulidan voz kechib, jabrlanuvchini qo‘yib yuborgan bo‘lsa, sud jazosi yumshatilishi mumkin [11].

Taniqli nemis olimi V.Middendorf shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda tajovuz obyektlarining uch guruhini ajratgan:

1) bevosita jabrlangan (garov sifatida tutqunlikka olingan) shaxs;

2) bilvosita jabrlangan (talablar qo‘yilayotgan) shaxs;

3) manfaatlariga daxl etilishi mumkin bo‘lgan boshqa har qanday tashkilotlar [12].

Odam o‘g‘irlash jinoyati esa har xil bo‘lishi, chunonchi: ochiqdan – ochiq yoki yashirincha zo‘rlik ishlatib, shuningdek aldash yoki ishonchli suiiste’mol qilish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. M.X.Rustambayev ta’biri bilan aytganda, “egallab olish deganda jabrlanuvchiga egalik qilish, uning taqdirini belgilash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun uni shaxsiy erkinligidan mahrum qilish nazarda tutiladi” [13]. Yuridik adabiyotlarda shuningdek, “bosqinchilik yo‘li bilan odam o‘g‘irlash” to‘g‘risida ham so‘z yuritiladi [14]. Odam o‘g‘irlash jinoyatida tirik insonning jismoniy erkinligini asosiy bevosita obyekt hisoblanadi. Agar insonning erkinligi qo‘shimcha obyekt bo‘lsa, shaxsning harakatlari O‘zR JKning 137-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishi mumkin emas. Aynan jinoyat tajovuzi obyektini aniqlash qilmishni jinoyat deb kvalifikatsiya qilish keyinchalik esa uni turdosh jinoyat tarkiblaridan ajratish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq inson ozodligiga tajovuz qilish, ya’ni uni erkin harakatlanish va o‘zining bo‘lib turish joyini tanlash imkoniyatidan mahrum qilish bilan bog‘liq harakatlar nafaqat 137-modda

(«Odam o‘g‘irlash») bo‘yicha, balki 135-modda («Odam savdosi»), 138-modda («Zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish»), 234-modda («Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish»), 245-modda («Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish») va boshqa normalar bo‘yicha ham kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Jinoyat kodeksida mazkur moddalarning mavjudligi ayrim hollarda normalarni aniqlashtirishni taqozo etadi. Bunda muayyan holatda aynan qaysi norma qo‘llanilishi lozim, degan savol tug‘iladi [15] Jurnalistlar, ba’zan huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari ham «g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilingan shaxs», «o‘g‘irlangan shaxs», «garov sifatida tutqunlikka olingan shaxs» tushunchalari o‘rtasiga tenglik belgilarini qo‘yadilar. Shu tufayli ham, V.N.Kudryavsev: «Jinoiy qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun u bilan turdosh jinoyat tarkiblari o‘rtasidagi farqni aniq tasavvur qilish lozim. Faqat mazkur qilmishga xos bo‘lgan alomatlarni belgilash, ushbu qilmishga xos bo‘lmagan belgilarni chiqarib tashlash, tegishli huquqiy norma va qilmishning haqiqiy holatlari tahlilini asta-sekin chuqurlashtirish orqali huquqni qo‘llovchi mazkur qilmishni tavsiflovchi va uni boshqa qilmishlardan ajratish imkoniyatini beruvchi belgilarning yagona majmuini aniqlaydi» [16], deb ta’kidlaydi, bu fikrga qo‘shilish zarur. Mazkur holatlarda jinoyatning obyektiv tomoni odam o‘g‘irlash jinoyati bilan bir xil bo‘lishi mumkin. Ular o‘rtasidagi asosiy tafovut jinoyatning subyektiv tomonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ya’ni, professor M.X.Rustambayev ta’kidlaganidek, «odam o‘g‘irlash jabrlanuvchini yashirin ravishda, ochiqdan-ochiq yoki aldash yoxud ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan qo‘lga olish va keyinchalik uni olish-sotish, topshirish va boshqa harakatlarni amalga oshirish maqsadida uni doimiy yoki vaqtincha turar joyidan, aybdorning ixtiyoriga ko‘ra boshqa joyga ko‘chirishdir» [17] Demak, mazkur holatda odam o‘g‘irlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad keyinchalik jabrlanuvchini olish-sotish bilan bog‘liq bo‘lishi holatlari yuqori. Masalan, jinoyatchi odam o‘g‘irlash jinoyatini sodir etib, ko‘zlangan maqsadga erisha olmagach, jabrlanuvchini boshqa birovga sotib yuborib odam savdosi jinoyatini sodir etsa qilmishni qanday kvalifikatsiya qilish borasida savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha mazkur vaziyatda ayblanuvchining qilmishlarini jinoyatlar majmui (JK 135 va 137-moddalari) bo‘yicha kvalifikatsiya qilish zarur. Odam o‘g‘irlash jinoyatining tarkibi shuningdek, zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JKning 138-moddasi) va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JKning 245-moddasi) kabi jinoyatlar bilan o‘xshash jihatlarga ega. Masalan, V.A.Osipov bergan ma’lumotlarga ko‘ra, JKning shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishga bag‘ishlangan moddasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlarining o‘ttiz foizga yaqini sudda JKning odam o‘g‘irlashga bag‘ishlangan moddasiga qayta kvalifikatsiya qilingan [18]. Yuqorida zikr etilgan jinoyat tarkiblarini bir-biridan ajratish masalalarini ilmiy asoslagan holda, aniq hal qilish zaruriyati hozirgi vaqtda qonunni qo‘llash amaliyotining ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ayrim tadqiqotchilar odam o‘g‘irlash va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish, shuningdek g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyatlarining tarkiblarini bir-biridan aniq ajratish amalda mumkin emasligini, bu hol jinoyat tarkiblarining dispozitsiyalarida mazkur qilmishlarning belgilari lozim darajada aniq ta’riflanmagani bilan izohlanishini qayd etadilar [19].

Xulosa o‘rnida aytganda ushbu jinoyatlarni bir-biriga o‘xshashligi yuqori bo‘lganligi holatida aybdorlar tomonidan bir qancha jinoyatlar to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Odam o‘g‘irlash jinoyatlari bilan o‘z maqsadlariga erisha olmagan jinoyatchilar jabrlanuvchini odam savdosi qurboniga aylantirishlari mumkinligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135-moddasida sanksiyasini og‘irlashtirish va ushbu moddaning ikkinchi qismiga “takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan yoxud ilgari ushbu kodeksning 136-137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilsa” sifatida yangi norma kiritilishi hamda besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi, Jinoyat kodeksi 135-modda uchinchi qismiga “Tijorat uchun jinsiy ekspluatatsiya va fohishalikka majburlash” sifatida yangi norma kiritilishi, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Shaxs ozodligiga qarshi jinoyatlar - odam o‘g‘irlash, zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyatlar majmui bo‘lishi yoki murakkab aybli jinoyatlar sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Inson erkinligiga qarshi jinoiy-huquqiy tahlilimizni yakunlar ekanmiz xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, jabrlanuvchini o‘z ixtiyori bilan ozod etgan jinoyatchiga nisbatan rag‘batlantiruvchi normalarni belgilash maqsadga muvofiq.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье подробно освещаются правовые нормы ряда стран, широкий круг мнений юристов по поводу преступлений похищения и захвата заложников. Обсуждались проблемы назначения наказания виновным в совершении преступлений похищения и захвата заложников в зарубежных странах в соответствии с его деянием, изучалось применение уголовных наказаний, сравнивались степени тяжести. Изучено обеспечение прав человека, в том числе закрепление уголовно-правовых основ свободы личности и ее хищения, возможность совершения сложных преступлений, связанных с похищением человека. Кратко объясняется назначение наказания и его квалификация в отношении преступников в США, Китае и Европейских странах.

Ключевые слова: Свобода, похищение человека, состав преступления, злой умысел, задержание, захват заложников, посягательство на свободу, лишение свободы, применение насилия.

Abstract. The article highlights in detail the legal norms of a number of countries, a wide range of legal opinions on the crimes of kidnapping and hostage-taking. The problems of sentencing those guilty of kidnapping and hostage-taking in foreign countries in accordance with their act were discussed, the application of criminal penalties was studied, and the degrees of severity were compared. The article examines the provision of human rights, including the consolidation of the criminal legal foundations of individual freedom and its theft, the possibility of committing complex crimes related to kidnapping. The purpose of punishment and its qualification in relation to criminals in the USA, China and European countries are briefly explained.

Key words: Freedom, kidnapping, corpus delicti, malicious intent, detention, hostage-taking, encroachment on freedom, deprivation of liberty, use of violence.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘z.Res. IIV Huquqiy statistika va tezkor hisob ma’lumotlar boshqarmasi ma’lumotlar bazasi.
2. Rustambayev M.X.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. - Toshkent: Adolat, 2016.-B.710.
3. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран. Новое и Новейшее время. - М., 1999. - С. 418-419 .
4. Уголовное право зарубежных стран. Общая часть / Под ред. И.Д.Козочкина. - М., 2003. - С. 108.
5. Примерный Уголовный кодекс США. - М., 1969.
6. Андрушко А.В. Криминальноправова протидия викраденню людей у США. Прикарпатський юридич - ний висник. 2017. Випуск 6 (21) том 2. С. 105–109.
7. Оганян Р.Э. Криминологическая теория и практика предупреждения преступлений, связанных с похищени - ем людей : дисс. … д-ра юрид. наук : спец. 2.00.08. Москва, 2002. 328 с.
8. Ахметшин Х.М., Ахметшин Н.Х., Петухов А.А. Современное уголовное законодательство КНР. - М., 2000. - С. 133
9. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики. - СПб., 2001.
10. Уголовный кодекс Японии / Под ред. А.И.Коробеева. - СПб., 2002.
11. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии / Пер. и предисл. А.В.Серебренниковой. - М., 2000.
12. Миддендорф В. Виктимология взятия заложников // Криминалистика. 1974. №4. (ФРГ, Гамбург).
13. Рустамбаев М.Х. Курс уголовного права Республики Узбекистан. Особенная часть. Том 3: Преступления против личности. Преступлиния против мира и безопасности.Учебник для ВУЗов.-Ташкент:ТГЮИ, 2008.-С.268.
14. Payzullayev Q.P. Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammosi // TDYI Axborotnomasi.-Toshkent, 2009.-№7.- B.53.
15. Иркаходжаев А.К. Научные основы квалификации преступлений. Учебное пособие. - Ташкент: ТГЮИ, 2006. - С.63.
16. Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификации преступлений. - М., 2001. - С. 126.
17. Rustambayev M.X. Odam savdosi. - Toshkent: TDYuI, 2009. - B.18.
18. Осипов В.А. Захват заложника: уголовно-правовой и криминологический аспекты: Автореф. дисс. …канд. юрид. наук. - М., 1999. - С. 7.
19. Гаухман Л.Д., Максимов С.В., Сауляк С. Об ответственности за захват заложника и похищение человека // Законность. - Москва, 1994. - №10. - С. 29.; Мартыненко Н.Э. Похищение человека: уголовно-правовой и криминологический аспекты: Автореф. дисс. …канд. юрид. наук. - М., 1994. - С. 17.

DXX CHEGARA QO‘SHINLARI TOMONIDAN HUQUQBUZARLARNI MA’MURIY TARZDA USHLASH TURISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

Xolbo‘tayev Abdug‘ani Abduraximovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar boyicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurash jarayonida huquqbuzarlarni ma’muriy tartibda ushlab turish bo‘yicha ayrim huquqiy muammolarning mavjudligi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini samarali tashkil qilishga ta’sir ko‘rsatayotganligi hamda mazkur muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan takliflar bildirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat chegarasi, Davlat chegarasini qo‘riqlash, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ma’muriy tartibda ushlab turish, chegara rejimi, Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejim.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma’muriy majburlov choralarini qo‘llashdan maqsad – bu dastlab mansabdor shaxslar tomonidan huquqbuzarlik holatini tezkorlik bilan aniqlash va dalillarning yo‘q bo‘lishining oldini olish, ish yuritish jarayonida qatnashuvchi shaxslarning shaxsini aniqlash, tegishli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish orqali huquqbuzarlik holatlarining oldini olishni ko‘zda tutuvchi tadbirlar majmui hisoblanadi. DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida asosan ma’muriy cheklov choralardan ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish chorasi keng qo‘llaniladi.

MJtKga binoan boshqa ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llanib bo‘lingandan keyin ma’muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida tuzish imkoni bo‘lmagan taqdirda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish, ishlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida, mazkur shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga yo‘l qo‘yiladi [1].

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-fevraldagi O‘RQ–753-son [2], 2023-yil 25-apreldagi O‘RQ–832-son [3] Qonunlari bilan DXX Chegara qo‘shinlarining huquqbuzarlarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishning qonuniy asoslari takomillashtirildi.

DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma’muriy cheklash choralaridan ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish amaliyotining tahlili mazkur sohadagi mavjud qonun hujjatlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xususan, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini olib borish lari davomida, MJtKning 90-moddasida nazarda tutilgan, ya’ni chegaraloldi hududlarda ov qilish qoidalarini buzgan shaxslarning huquqbuzarliklariga barham berish va ularga nisbatan tegishli choralar ko‘rilishini ta’minlash maqsadida, ularning Chegara qo‘shinlari bo‘linmalarida ushlab turilishiga va keyinchalik ichki ishlar organlari yoxud Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining hududiy bo‘linmalari mas’ul shaxslariga topshirish holatlari kuzatilmoqda.

Chunonchi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning [4] 36-moddasiga asosan, chegara zonalari ov qilish va (yoki) baliq ovlash joylari hisoblanmaydi.

Shuningdek, “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning [5] 9-moddasiga ko‘ra, chegara mintaqasi ov qilish joylari hisoblanmaydi.

ISSN 3030-3230

Mazkur Qonun hujjatlari talablariga muvofiq, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan chegara zonasi va chegara mintaqasida ov qilish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning ov qilish tartibini buzganliklari uchun, MJtKning 90-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybli deb topilib, ularga nisbatan tegishli choralar ko‘rilishi ta’minlab kelinmoqda.

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari Davlat chegarasini qo‘riqlash davomida, fuqarolar tomonidan keltirilgan ma’muriy huquqbuzarlik holatlari aniqlangan holatlarda shaxslarni ma’lum muddatga ma’muriy ushlab turishni amalga oshirmoqdalar. Vaholanki, qonun hujjatlari DXX Chegara qo‘shinlariga MJtKning 90-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik bo‘yicha shaxslarni ushlab turish vakolatini bermagan.

MJtKning 287-moddasi 2-bandiga ko‘ra, ushbu Kodeksning 184^2, 184^3, 196^1, 196^2, 224-moddalarida, 224^1-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 224^2-moddasida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida, 227^{23}-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda – DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan huquqbuzarlarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilishi mumkin.

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni (transport vositalarini) ushlab turish amaliyotining davom ettirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilayotganligini ko‘rsatmoqda va bu esa DXX Chegara qo‘shinlari manfaatlariga zarar yoki jiddiy ziyon yetkazmasdan qolmaydi.

Shu nuqtai nazaridan, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, bu orqali DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarlarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish faoliyatining qonuniy asoslarini takomillashtirish maqsadida, MJtKning 287-moddasi 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilishi lozim bo‘ladi:

*“ushbu Kodeksning **90,** 184^2, 184^3, 196^1, 196^2, 224-moddalarida, 224^1-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 224^2-moddasida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida, 227^{23}-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda – Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari tomonidan”.*

Bugun yurtimizda muhim konstitutsiyaviy tamoyil – inson huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha barcha sohalarda, ayniqsa, sud-huquq tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda [6]. Bu o‘z navbatida ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ham yanada takomillashtirishni zaruratini yuzaga keltiradi.

Xususan, MJtKning 288-moddasida shaxslarni ma’muriy tarzda ushlab turish muddatlari keltirilgan bo‘lib, mazkur moddaning ikkinchi qismida, chegara tartibini yoki O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o‘tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha muddatga ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan hollarda esa – ushlash paytidan boshlab yigirma to‘rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma’lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan **o‘n sutkagacha** muddatga ushlab turilishi mumkinligi belgilangan.

Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [7] 27-moddasi 3-qismiga ko‘ra, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz **qirq sakkiz soatdan** ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Bundan ko‘rinadiki, MJtKning 288-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish muddati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi talabiga zid.

Bundan tashqari, kodeksning 288-moddasi 2-qismida *“Chegara tartibini yoki O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o‘tish punktlaridagi tartib”* tushunchasi qo‘llanilgan bo‘lib, DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida mazkur atamalarning qo‘llanilishi kuzatilmaydi, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqin qilinishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Jumladan, “Chegara tartibi” deganda shaxslarni, transport vositalarini va tovarlarni Davlat chegarasi orqali o‘tkazishmi? shaxslarning chegara zonasi yoki chegara mintaqasida harakatlanishi, xo‘jalik yoki boshqa faoliyatni

amalga oshirishimi? kabi javobi mavhum bo‘lgan masalalar huquqni qo‘llash amaliyotida munozaralarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, Davlat chegarasi daxlsizligini ta’minlash, Davlat chegarasini qo‘riqlash uchun jangovar-xizmat, tezkor-xizmat harakatlari, nazoratga oid, tezkor-qidiruv tadbirlari bilan birga bir qancha huquqiy rejimlar o‘rnatilishi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunida [8] ko‘rsatib o‘tilgan.

Chunonchi, mazkur Qonunning 5–7-boblari Davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejim o‘rnatilishi va u bilan bog‘liq qoida hamda tartiblarga bag‘ishlangan.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o‘tish punktlaridagi tartib” tushunchasi qonun hujjatlarida qo‘llanilgan qoidalarga nomuvofiq bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunida ushbu tushuncha “O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejim” sifatida qo‘llanilgan.

MJtKning 288-moddasi 2-qismida qo‘llanilgan “Chegara tartibini yoki O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o‘tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar” so‘zlarini “Davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejimni buzgan shaxslar” so‘zlari bilan almashtirish orqali DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida qo‘llaniladigan ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish bo‘yicha qonuniy asoslarning to‘liq shakllantirish imkonini bermaydi.

Chunki, yuqorida ta’kidlanganidek, MJtKning 287-moddasi 2-bandiga ko‘ra, DXX Chegara qo‘shinlari Davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejimi bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ma’muriy huquqbuzarliklar, ya’ni MJtKning 184^2, 184^3, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida, 227^{23}-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha shaxslarni ma’muriy tarzda ushlab turish vakolatiga ega.

Shu nuqtai nazaridan, DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishning qonuniy asoslarini takomillashtirish orqali mazkur sohadagi mavjud qonun hujjatlaridagi kolliziyalarni bartaraf etish, shaxs huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qilinishini ta’minlash maqsadida, MJtKning 288-moddasi 2-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi maqsadga muvofiq:

“Ushbu kodeksning 184^2, 184^3, 196^1, 196^2, 224-moddalarida, 224^1-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 224^2-moddasida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida, 227^{23}-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari tomonidan aniqlangan taqdirda, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha muddatga ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan hollarda esa – ushlash paytidan boshlab yigirma to‘rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma’lum qilib, qirq sakkiz soatgacha yoki huquqbuzarda o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmasa, sudning ajrimi bilan o‘n sutkagacha muddatga ushlab turilishi mumkin”.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son qarori [9] bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari va tovarlarni o‘tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom”ning 121-bandi birinchi qismi to‘rtinchi xatboshisiga asosan, *chegara nazorati bo‘linmasi* o‘tkazish punktida tezkor xizmat faoliyatini amalga oshirishda Davlat chegarasi, o‘tkazish punktlaridagi rejim va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzgan shaxslarni dalolatnomalar tuzish uchun uch soatgacha, zarur bo‘lganda shaxsini aniqlash va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun ushlangan paytdan boshlab 24 soat ichida prokuratura organlarini xabardor qilgan holda uch kungacha yoki huquqbuzarning shaxsini tasdiqlovchi hujjati bo‘lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan o‘n kungacha ma’muriy tartibda ushlab turish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Mazkur hujjatning normalari chegara nazorati bo‘linmalari faqatgina MJtKning 224^1, 225-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni ma’muriy tartibda ushlash huquqiga ega

ISSN 3030-3230

ekanligini ko‘rsatmoqda.

Vaholanki, amaliyotda chegara nazorati bo‘linmalari tomonidan keltirilgan huquqbuzarliklardan tashqari, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisining qonuniy talablarini bajarmaslik (MJtK 196[1]-modda), DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining o‘z xizmat burchini bajarishiga qarshilik ko‘rsatish (MJtK 196[1]-modda), chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo‘lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish (MJtK 224-modda), O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasida barpo etilgan muhandislik-texnika inshootlarini va to‘siqlarni, shuningdek qo‘riqlashning texnik vositalarini yo‘q qilish yoki ularga shikast yetkazish (MJtK 224[2]-modda) va boshqa huquqbuzarliklar bo‘yicha shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish davomida ma’muriy tartibda ushlab turish bo‘yicha tegishli protsessual hujjatlar rasmiylashtirilimoqda.

Muhokama etilayotgan doiradagi ijtimoiy munosabatlarning qonunlar asosida tartibga solinishi shaxs huquqlarini samarali kafolatlashga xizmat qilishi shubhasiz. Biroq, unga qadar ham mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi qonunosti hujjatlardagi mavjud huquqiy bo‘shliq va kolliziyalarni o‘z vaqtida bartaraf etish orqali Davlat chegarasini qo‘riqlashni ma’muriy huquqiy ta’minlash sohasidagi shaxs huquqlari kafolatlanish darajasining oshirilishini ta’minlash lozim.

Keltirilganlarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari va tovarlarni o‘tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom”ning 121-bandi birinchi qismi to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilishi taklif etiladi:

ослабление информационной безопасности страны и расшатывание осведомленности граждан, поступает из-за рубежа. Государство, как основной субъект, обязано установить четкие правила в осуществлении международного обмена информацией, определить конкретные ограничения и запреты. Например, необходимо унифицировать в соответствии с принципами международного права вопросы открытых информационных систем, международного обмена информацией, а также выработать общие подходы к кибербезопасности.

Сегодня особого внимания требуют вопросы изменения подходов к угрозам безопасности киберпространства. Кроме чисто технических средств необходимо усилить правовую пропаганду среди молодежи. Современная правовая пропаганда в правовом государстве должна основываться на истинных научных правовых идеях и теориях. Необходимо использовать научно обоснованные средства и методы пропагандистского воздействия на правовое осознание и поведение граждан, особенно молодежь.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda norozilik namoyishlarini amalga oshirish mexanizmlari, internetda texnik infratuzilmalar va aktivlarni tayyorlab, norozilik harakatini shakllantirish usullari yoritilgan. Bundan tashqari bu maqolada «zaif jamoalarni» noroziliklik namoyishlariga safarbar qilish hamda ommaviy ongni manipulyatsiya qilish vositalari va manipulyatsiyani oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Norozilik namoyishlari, mexanizm, internet, ommaviy ong, aktivlar, zaif jamoalar, safarbar qilish, manipulyatsiya, ommaviy axborot vositalar.

Abstract. This article covers the mechanisms for the implementation of protests today, methods for the formation of a protest movement, preparing technical infrastructures and assets on the internet. In addition, this article provides recommendations for mobilizing “vulnerable communities” to protest demonstrations as well as for the Prevention of mass consciousness manipulation tools and manipulation.

Key words: Protests, mechanism, Internet, public consciousness, assets, vulnerable communities, mobilization, manipulation, media.

Использованная литература:

1. Черемных К. А., Восканян М. В., Кобяков А. Б. Анонимная война. М.: Алгоритм, 2014. –С. 90–91.
2. Шиллер Г. Манипуляторы сознанием [Текст] / Г. Шиллер. – М.: Мысль, 1980. – С. 111.
3. Мертон, Р. Социальная теория и социальная структура общества [Текст] / Р. Мертон; [Пер. с англ. Е.Н. Егоровой и др.]. – М.: АСТ; Хранитель, 2006. – С. 220
4. Шиллер, Г. Манипуляторы сознанием [Текст] / Г. Шиллер. – М.: Мысль, 1980. – С. 149
5. Липпман, У. Общественное мнение [Текст] / У. Липпман. – М.: Институт Фонда «Общественное мнение», 2004. –С. 39.
6. Исторические переломные этапы развития Кыргызстана: комплексный теоретический анализ. – Бишкек: Илим, 2011. – С. 264.
7. Айтбаев, А. Менталитет кыргызского народа как объект философского исследования [Текст]: автореф. дис. д-ра. филос. наук: 09.00.11 / А. Айтбаев – Бишкек, 2007. С. – 46.
8. Беридзе, Ю.В. Типология идеологий в современном обществе // Теория и практика общественного развития. – 2007. – № 1 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http: // www. teoria-practica.ru/ru/-l-2007.html.
9. Бодрийяр, Ж. Общество потребления: его мифы и структуры [Текст] / Ж. Бодрийяр. – М.: Республика. Культ. Революция, 2006. – С. 117
10. Хантингтон, С. Политический порядок в меняющихся обществах [Текст] / С. Хантингтон. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. –С. 64

ISSN 3030-3230

MILLIY INSTITUTLAR FAOLIYATINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI

Kenjayev Jasur Omon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Malaka oshirish instituti
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson huquqlari va qonun ustuvorligini himoya qilish, fuqarolar huquqiy madaniyatini rivojlantirish maqsadini ko‘zlagan hamda davlat, jamiyat va fuqarolar manfaatlarini uyg‘unlashtirish orqali tom ma’noda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni o‘z faoliyatining asosiy mezoni sifatida ko‘radigan davlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda, milliy institutlar faoliyati ham rivojlanib borayotganligi, ularning siyosiy va me’yoriy asoslari tahlil qilingan.

Jamiyatda inson huquqlari masalasi, uning ham nazariy va ham amaliy ahamiyati, uni amalga oshirishning tashkiliy asoslari yaratilgan bo‘lsa-da, lekin mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tashkilotlarining faoliyati prinsipial ahamiyatga egaligini ham inobatga olish kerak.

Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 70 ta asosiy hujjatga qo‘shilgan, BMT tomonidan qabul qilingan 10 ta xalqaro shartnomaning bevosita ishtirokchisidir. Milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga xalqaro standartlarni tizimli va bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o‘z modeli, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirildi [1].

Zotan, bizning jamiyatimizda inson sha’ni, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlari asosi jamiyat manfaatlari va fuqarolik jamiyati institutlari, qolaversa, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi siyosiy-huquqiy institutlari faoliyat tizimi tamoyilidan kelib chiqadi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish borasida milliy qonunchiligimiz bilan belgilangan bir qator milliy institutlar, tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jamiyatimizda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga bir qator milliy institutlar, xususan, O‘zbekistonda inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi qator davlat tashkilotlari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun [2] hujjatlari monitoringi instituti, Prezident huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman), Bola huquqlari bo‘yicha ombudsman instituti va bundan tashqari, inson huquqlarini himoya qiluvchi ko‘plab NNT faoliyat olib bormoqda.

Ular faoliyati inson huquqlari bo‘yicha xalqaro andozalar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib boradi.

O‘zbekistondagi mazkur tizimda bugungi kunda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar munosib o‘z o‘rnini topdi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov tizimiga kiradi. Ularning faoliyati biz oldingi mavzularda ko‘rib chiqqan inson huquqlari bo‘yicha xalqaro andozalar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib bormoqda [3].

Zero, yangi tahrirdagi Asosiy Qonunimizning 56-moddasida Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi, qolaversa, davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo‘yilganligi ham milliy institutlar faoliyati va rivojlanib borishi mezonlarining huquqiy asosi mustahkamlanganligidan nishona, deyish mumkin.

Inson huquqlarini va qonun ustuvorligini himoya qilish, fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashtirish maqsadini ko‘zlagan davlat va NNT tomonidan olib borilayotgan targ‘ibot ishlari bir muncha darajada o‘z natijasini berayotganligi ushbu tashkilotlarga aholi tomonidan kelayotgan murojaatlar soni oshib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin.

O‘zbekiston xalqaro taraqqiyotning ilg‘or an’analaridan kelib chiqib, inson huquqlarini

himoya qilishda o‘z sodiqligini ochiq bildirgani holda o‘z hududida ularga rioya etish majburiyatini oldi hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini ishlab chiqdi. Mazkur mexanizmning asosiy elementi bo‘lgan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti tashkil etildi [4].

O‘zbekistondagi Ombudsman institutiga to‘xtalishdan avval mazkur institut tashkiliy va xalqaro asoslariga qisqacha izoh berib o‘tsak.

Ombudsman – so‘zi shved tilidan olingan bo‘lib, “xalq himoyachisi” degan ma’noni anglatadi.

Ombudsman – inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdor shaxs. Ular inson huquqlarini turli ma’muriy organlar tajovuzidan saqlashni maqsad qilib qo‘yadi. Ular fuqarolarning murojaati yoki o‘z tashabbusi bilan tekshiruv ishlarini yuritadi. Huquq buzilishlarini aniqlagan vaqtda, shu huquq buzilishi aybdori bo‘lgan organga qonunsiz hujjat yoki harakatlarini bekor qilishini taklif etadi. Agar taklif bajarilmasa, u holda sudga yoki parlamentga murojaat qiladi [5].

Ombudsman faoliyati bo‘yicha jahon tarixiga nazar tashlansa, 1809-yilda Shvetsiya Qirolligi konstitutsiyasiga binoan inson huquqlari bo‘yicha Vakil Ombudsman instituti joriy etildi. Mazkur konstitutsiyaning 96-bo‘limiga muvofiq, Ombudsman institutiga adolat va boshqaruvni nazorat qilish vakolatlari berilgan.

Finlyandiyada yangi Respublika hukumati o‘rnatilgach, 1919-yilda “Parlamet ombudsmani”, “Vakillik palatasining a’zosi” nomi ostida inson huquqlari bo‘yicha Vakil instituti joriy etildi va bu sohada Finlyandiya dunyodagi 2-mamlakat sifatida tan olindi. Inson huquqlari bo‘yicha vakil shved ko‘rinishiga asoslangan bo‘lib, unga mamlakatning boshqa hokimiyat idoralari va sud tomonidan qonunlari ijrosini nazorat qilish bo‘yicha keng ko‘lamdagi vakolatlar berilgan edi [6].

Ombudsman instituti 1975-yilda Portugaliya tomonidan, 1978-yilda esa Ispaniya davlati tomonidan qabul qilindi. Shu tariqa mazkur institut dunyoning 120 dan ortiq mamlakati tomonidan tan olindi. Yevropa Ittifoqi 1995-yil 27-sentabrdan boshlab o‘zining Ombudsman institutiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2001-yil 14-iyundagi 55/258-sonli hamda 2001-yil 24-dekabrdagi 56/253-sonli rezolutsiyalariga muvofiq BMT Ombudsmanining kotibiyati ta’sis etildi.

Ombudsman institutiga asoslangan, shu xildagi mansabdor shaxslar turli mamlakatlarda turlicha nom bilan ataladilar. Masalan, Shvetsiya, Daniya, Polsha, Kanadada – ombudsman, Ispaniya va Kolumbiyada – xalq himoyachisi, Fransiyada – vositachi, Ruminiyada – xalq advokati, Rossiyada – inson huquqlari bo‘yicha vakil, Skandinaviya mamlakatlarida – Ombudsman, Ispaniya va Kolumbiyada – xalq himoyachisi deyiladi.

O‘zbekistondagi mazkur institut, xususan, Parlament huzuridagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) instituti O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis qaroriga binoan uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga ko‘maklashish uchun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish Komissiyasi tashkil etildi. Vakil va Komissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995-yil 29-avgust Qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risidagi Nizom bilan tartibga solingan.

Xususan, 1997-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinadi. Ushbu qonun parlament islohotlarini amalga oshirilishi munosabati Bilan 2004-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun inson huquqlari bo‘yicha Vakilning huquqiy holatini, faoliyat sohasi va tamoyillarini, shuningdek, lavozimga saylanish va ishdan bo‘shatilish tartibini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqishdagi vakolatlari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoyalashdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi [7].

Muhim bir jihati shundaki, Ombudsman instituti davlat organlari va jamiyat a’zolari o‘rtasida mustahkam ijtimoiy-huquqiy ko‘prik vazifasini o‘tab beradi.

Ombudsmanining faoliyati, vakolati hamda uning huquqiy maqomi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)” to‘g‘risidagi Qonunda o‘z ahamiyatini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo‘lib, unga davlat organlari,

ISSN 3030-3230

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta’minlash vakolatlari berilgan. Vakil (ombudsman) instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi.

Vakil O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko‘maklashadi. Vakil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi va Vakil lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi [8].

Inson huquqlari bo‘yicha vakil o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umume’tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi. Vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Vakil Oliy Majlis tomonidan deputatlar orasidan Oliy Majlisning vakolatlari muddatiga saylanadi. Oliy Majlisning vakolatlari muddati tugagach, Vakil yangi Vakil saylanguniga qadar o‘z vazifalarini bajarib turadi. Vakilning Oliy Majlis tomonidan saylanadigan o‘rinbosari bo‘ladi. Vakil o‘rinbosariga Vakil uchun belgilangan huquqlar va kafolatlar tatbiq etiladi. Vakil faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm, insonparvarlik, oshkoralik, har bir kishi uchun ochiqlikdir [9].

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘z faoliyatini olib borishda uning faoliyatini tartibga soluvchi qonungagina emas, balki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga ham asoslanadi. Bunday hujjatlar qatoriga Kotibiyat faoliyati to‘g‘risida Nizom, Vakil qoshidagi Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish Komissiyasi Reglamenti, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risidagi Nizom kabilar kirib, bular Vakil faoliyatining barcha yo‘nalishlarini batafsil belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ombudsmanining asosiy vazifasi davlat organlari faoliyatining to‘g‘ri va adolatli olib borilishini ta’minlash hisoblanadi [10].

Vakil o‘z vazifalarini bajarishda 1994 yil 6 maydagi “Fuqarolar murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 1995-yil 30-avgustdagi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari hamda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalarga amal qiladi. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi 2003-yil 29-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 23-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakilini saylash tartibi belgilangan. “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi 20 moddadan iborat O‘zbekiston Respublikasi qonunining har bir qoidasi inson huquqlari himoyasi uchun xizmat qiladi.

Muhim jihati shundaki, O‘zbekistondagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil keng huquqiy vakolatlarga ega bo‘lib, uning faoliyati davlat va fuqaro, jamiyat va shaxsga oid ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasini o‘z ichiga oladi.

Vakil fuqarolar huquqlarining beg‘araz va insonparvar himoyachisidir, u inson huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqadi va tekshiradi, ayrim tashkilotlar va mansabdor shaxslar yo‘l qo‘ygan xatoliklarni tugatish yuzasidan tadbirlar tavsiya qiladi, fuqarolar huquqlari tiklanishiga yordamlashib, inson huquqlarining jiddiy buzilishiga sababchi shaxslarni qonunga binoan javobgarlikka tortish to‘g‘risida tavsiya qilishga ham haqlidir.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘z faoliyati davomida jamiyat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ana shu asosiy prinsiplarini taraqqiy ettirish va hayoga tatbiq etilishi uchun xizmat qiladi [11].

O‘z o‘rnida, Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) fuqarolar huquqlarining beg‘araz va insonparvar himoyachisidir: u inson huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqadi va tekshiradi, ayrim tashkilotlar va mansabdor shaxslar yo‘l qo‘ygan xatoliklarni tugatish yuzasidan tadbirlar tavsiya qiladi, fuqarolarning huquqlari tiklanishiga

yordamlashib, inson huquqlarining jiddiy ravishda buzilishiga sababchi bo‘lgan shaxslarni qonunga binoan javobgarlikka tortish to‘g‘risida tavsiya qilishga ham haqlidir [12].

Bundan shunday fikrni keltirish mumkinki, inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlisning vakili davlat va nohukumat tashkilotlarining o‘z maqsadi – inson huquqlari va erkinlarini ta’minlash yo‘lida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyati rivojlanib borishini tizimli o‘rganish hamda ularni fuqarolik jamiyatining haqiqiy a’zolariga aylanishlarini nazariy va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning institutlashgan ba’zasi – siyosiy-huquqiy tashkiloti, vazifasini o‘tab beradi.

Vakilning jamiyatda tashviqot va tashviqot olib borish faoliyati ham o‘ziga xos jihatlarga ega. U jamiyat a’zolari – jamoaning huquqlari va Ombudsmanning faoliyati, uning inson huquqlarini himoya qilish tizimidagi o‘rni va ahamiyati bilan tanishtirib borish bilan bir qatorda, jamiyat va insonlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishni ta’minlashga katta hissa qo‘shishi muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, inson huquqlariga rioya qilishning xususiyatlari to‘g‘risida xalqaro va respublika ilmiy-amaliy tadbirlari, konferensiya va forumlar, seminarlar tashkil qilish va o‘tkazishga tashabbuskor va mas’ulligi bilan ajralib turishi bugungi yangi islohotlar jarayonida mamlakatda inson huquqlarning bo‘yicha vakilning zaruriy va zamonaviy faoliyat mezonlariga aylanib boradi.

Muhim bir jihati shundaki, bugun Ombudsman instituti davlat organlari va jamiyat a’zolari o‘rtasida mustahkam ijtimoiy-huquqiy ko‘prik vazifasini o‘tab beradi, bu ko‘prik qanchalik mustahkamligi, jamiyatda inson huquqlarining ta’minlanish sifat va samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Zero, demokratiyaning inson huquq va erkinliklarining ustunligi kabi muhim belgisining haqiqiy tafsiloti va mazmunini aniqlash, fuqarolar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish Ombudsmanning vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda inson huquqlariga rioya qilish va himoyalash masalalari bilan shug‘ullanuvchi bir necha idoralar mavjud. Ulardan ikkitasi qonun chiqaruvchi, bittasi ijroiya va yana biri nohukumat organidir. Masalan, 1996 yilda esa Oliy Majlis huzurida amaldagi qonunchilik monitoringi instituti tashkil qilindi. O‘sha yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko‘ra Respublika inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz tuzildi. Ya’ni, Markaz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan [13].

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi xalqaro huquqning inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume’tirof etilgan prinsiplari va me’yorlarini, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalarini va qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha davlatga qarashli tahlil, maslahat, idoralararo muvofiqlashtirish organi hisoblanadi.

Ushbu markaz inson huquqlarini himoya qilishda aloqador bo‘lgan barcha davlat va nodavlat organlarining faoliyatini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan.

Markazning asosiy vazifalariga inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, ushbu sohadagi O‘zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi bo‘yicha davlat organlari faoliyatiga ko‘maklashish, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish holatini o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish bo‘yicha milliy ma’ruzalar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo‘llash amaliyotiga implementatsiya qilishni ta’minlash bo‘yicha takliflar tayyorlash, inson huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish masalalari bo‘yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlarga maslahat berish va ularga amaliy ko‘maklashish va boshqalar kiradi [14].

Markazning asosiy maqsadi esa – ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo‘li bilan Inson huquqlari va erkinliklarini himoya etishning ko‘p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, jumladan: inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish; huquqiy yordam ko‘rsatish va inson huquqlarini sud yo‘li bilan himoya qilish; inson huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish; turli toifadagi shaxslar huquqini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish, qolaversa, nohukumat huquqni himoya etish tashkilotlari faoliyatlarining samarali shakllarini rivojlantirish; inson huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish erkinligini ta’minlash; ijro hokimiyati doirasidagi vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar

ISSN 3030-3230

va muassasalarni inson huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va hokazo.

Markaz o‘z faoliyatini amalga oshirishda qator xalqaro tashkilotlar bilan, xususan, BMT, YEXHT, TASIS, YUNESKO, AQSH, Fransiya, Angliya, Italiya elchixonalari, qator xalqaro nohukumat tashkilotlar va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

Qolaversa, inson huquqlari sohasidagi faoliyat milliy dasturini ishlab chiqish orqali davlat va jamoat tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot, ta’lim va ma’rifiy faoliyatlarini muvofiqlashtirish; O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari milliy konsepsiyasi asosida huquqiy davlat milliy mafkurasini shakllantirish; BMT e’lon qilgan inson huquqlari sohasidagi barcha normativ aktlarni bosqichma-bosqich qabul qilish orqali O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga kirishining samarali mexanizmini yaratish Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida olingan [15].

Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyati samaradorligini oshirish va inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarishning ta’sirchan tizimini yaratish maqsadida 2018-yil 10-dekabrda, inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazaning tizimli shakllantirilishini tashkil etish, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashida O‘zbekiston Respublikasining a’zoligini samarali amalga oshirish doirasida 2022-yil 25-marta “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining moddiy-texnika ta’minotini yanada yaxshilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarining qabul qilinishi [16] Milliy markaz faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ishlarning me’yoriy asosi deyish mumkin.

Bundan tashqari, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) faoliyati tashkil etilganligi o‘ziga xos ham huquqiy, ham siyosiy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bo‘lgan bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Bolalar ombudsmani instituti ta’sis etildi.

Bugungi kunda bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashda dunyoning saksonga yaqin mamlakatlarida Bolalar ombudsmani faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha’ni, qadr-qimmati, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlari himoyasiga butun jamiyat va davlatni faol jalb etishdan iborat.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda Bolalar ombudsmani faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Xususan, Polshada “Bola huquqlari bo‘yicha ombudsman to‘g‘risida” (2000-yil 6-yanvar); Irlandiyada “Bolalar bo‘yicha ombudsman to‘g‘risida” (2002); Fransiyada “Bola himoyachisi to‘g‘risida” (2000-yil 6-mart); Shvetsiyada «Bolalar ombudsmani to‘g‘risida» (1993-yil 1-iyul) qonunlar bunga misol bo‘ladi.

Bizning jamiyatda 1992-yil 9-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bolalarning huquqiy va ijtimoiy maqomini shakllantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu hujjat orqali O‘zbekiston xalqaro konvensiya qoidalari va prinsiplariga rioya etish, bola huquqlarini himoya qilishning milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish bo‘yicha majburiyatlarni hamda jahon hamjamiyati oldida javobgarlik masalasini o‘z zimmasiga oldi.

Mamlakatimizda bu yo‘nalishda o‘tgan yillarda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda jamiyatimizning boshqa sohalari kabi bu jabhadagi ishlar ham yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon asosida Bolalar ombudsmani mustaqil institut sifatida ish boshladi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, uning sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, bolalarning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish, bolaning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish choralarini ko‘rish, bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar ishlab chiqilishini hamda amalga oshirilishini, shuningdek, ularning

ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘rilayotgan choralarni baholash, monitoring qilish va samaradorligini oshirish Milliy komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilab qo‘yildi [17].

Bu boradagi yana bir muhim hujjat - O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirdi. Mazkur qonunning 2-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) mansabdor shaxs bo‘lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Bola huquqlari bo‘yicha vakil o‘z faoliyati bilan bola huquqlarini himoya qilishning mavjud shakllarini va vositalarini to‘ldiradi. Bola huquqlari bo‘yicha vakil O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchiligini takomillashtirishga va uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi, fuqarolarning bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini oshirishga yordamlashadi.

Bola huquqlari bo‘yicha vakil quyidagi huquqlarga ega: bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan rioya etilishini o‘rganish; davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning rahbarlariga bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish; bolaning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda tiklash maqsadida sud jarayonlarida, shu jumladan, yopiq sud majlislarida qonunda belgilangan hollarda va shakllarda ishtirok etish; bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan tadbirlar tashkil etish; o‘z vakolatlari doirasida xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatish va ularning a’zoligiga kirish, shuningdek xorijiy davlatlarning inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlari bilan hamkorlik qilish va h.k. [18].

Bola huquqlari bo‘yicha vakil o‘z vakolatlarini mustaqil ravishda hamda davlat organlariga va ularning mansabdor shaxslariga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi hamda o‘z faoliyati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga hisobdordir.

Umuman olganda, mamlakatimizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish davlat ijtimoiy siyosatining asosini tashkil etmoqda.

Keyingi yillarda, O‘zbekiston xalqaro taraqqiyotning ilg‘or an’analarini davom ettirgan holda inson huquqlarini himoya qilishning o‘ziga xos milliy va xalqaro me’yorlarga mos keladigan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqmoqda. Ya’ni, inson huquqlari himoya qilish bo‘yicha bir qator milliy institutlar va nohukumat tashkilotlar o‘z faoliyatlarini tizimlashtirib, takomillashtirib bormoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur institutlar tom ma’noda inson huquqlarini himoya qiluvchi o‘ziga xos fuqarolik jamiyati institutlari hisoblanishadi.

Bugungi kunda aynan hukumatga qarashli bo‘lmagan tashkilotlar, xususan, shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy huquqni o‘rganish va huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarining ildam harakat olib borishi inson huquqlarning jamiyatda himoya qilinishini ta’minlaydi.

Zero, NNT hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, bu tashkilotlar orqali fuqarolar ijtimoiy faolliklarini ko‘rsatishmoqda, siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratilmoqda, davlat va nodavlat tashkilotlari o‘zaro hamkorligi, ijtimoiy integratsiyasida inson manfaatlari va huquqlari masalasi ham birlamchi planga olinmoqda.

Umuman olganda, mazkur institutlarning mamlakatda fuqarolik jamiyati amal qilishi uchun inson huquqlari va erkinligi himoya qilishini ko‘mak beruvchi milliy institutlar maqomini mustahkamlab boradi. Ya’ni, NNTdan tashqari, mazkur milliy vakillik institutlari inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shu maqsadni olg‘a surishda samarali harakat olib boruvchi, yagona va birlamchi siyosatning siyosiy-huquqiy drayveri bo‘lishi muqarrardir.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В данной статье с органами государственного управления, которые направлены на защиту прав человека и верховенства закона, развивают правовую культуру граждан и главным критерием видят развитие гражданского общества буквально через гармонизацию интересов государства, общества и граждан. своей деятельности. кроме того, развивается и деятельность национальных институтов, анализируются их политические и нормативные основы.

Abstract. In this article, with the state management bodies that aim to protect human rights and the rule of law, develop the legal culture of citizens and see the development of civil society literally by harmonizing the interests of the state, society and citizens as the main criterion of their activity. in addition, the activity of national institutions is also developing, their political and normative foundations are analyzed.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.Базарова. “Инсон қадр-қиммати – энг олий қадрият” махсус ўқув модули. “Фуқаролик жамияти” умумназарий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий журнал. 2020, № 2 сон. 48-49 б. -Б. 49.
2. Inson huquqlari: darslik /A.R.Mo‘minov, M.A.Tillabayev; mas’ul muharrir A.X.Saidov. -Toshkent: Adolat, 2013. -B. 427.
3. Сагдуллаева Д.Ш. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослар. Фалс.фан.ном. ...дисс. -Тошкент: 2010. –Б. 115.
4. Конституциявий ҳуқуқ (изоҳли луғат). А.Азизхўжаев, О.Ҳусанов, Х.Азизов. - Тошкент, “Академия”. 2001. -Б. 75.
5. Qarang: А.А.Сарабеков. “Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини халқаро миқёсда ҳимоя қилиш”. Рисола -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. –Б. 79.
6. Конституциявий ҳуқуқ (изоҳли луғат). А.Азизхўжаев, О.Ҳусанов, Х.Азизов. - Тошкент “Академия”. 2001. –Б. 75.
7. Саттаров А. Омбудсман – ҳуқуқ ҳимоячиси (хорижий ва миллий тажриба). –Тошкент, 2000. 34-бет.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) туғрисида”ги Қонуни. 27 август 2004 йил. https://lex.uz/docs/276159.
9. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. Масъул муҳаррир ва муаллифлар жамоасининг раҳбари Б.Мустафоев. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2006. -584 б. -Б. 202.
10. Муаллифлар жамоаси. Инсон ҳуқуқлари умумий назарияси: ИИВ тизимидаги таълим муассасалари тингловчи ва курсантлари, шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза этувчи органлар ходимлари учун дарслик. –Т., 2012. –Б. 102.
11. Qarang: Олий Мажлис Инсон ҳуқуқлари бўйича вакилининг (омбудсманнинг) 2003 йилги фаолияти тўғрисида ҳисобот. –Т., 2004, 5-бет.
12. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази расмий веб-сайти: http://insonhuquqlari.uz/uz/menu/natsionalnye-instituty.
13. Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: https://insonhuquqlari.uz/ uz/menu/zadachi-i-funktsii-.
14. Qarang: Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: https://insonhuquqlari.uz/uz/menu/zadachi-i-funktsii-.
15. Qarang: А.Х.Саидов. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека в 1999 году: основные направления деятельности. –Тошкент, НЦПЧ. 2000. –12, 18-бет.
16. Qarang: Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: https://inson huquqlari.uz/uz/menu/zadachi-i-funktsii-.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 09.08.2021 йилдаги ПФ-6275-сон. https://lex.uz/docs/5570490.
18. Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 29 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг “Бола ҳуқуқлари бўйича вакили (Болалар омбудсмани) тўғрисида”ги ЎРҚ-917-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/6823379.

РОЛЬ ЧЛЕНОВ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОЙ ГРУППИРОВКИ ПРИ СОВЕРШЕНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ

Сабырбаева Айнура Бахыт кызы,
Доцент кафедры уголовно-процессуального права Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются особенности деятельности отдельных видов членов организованной преступной группировки при совершении киберпреступлений, а именно роль дропов в отмывании доходов, добытых преступным путем, что приводит к тому, что львиная доля нанесенного в ходе совершения преступления ущерба не возмещается, киберпреступления остаются не раскрытыми, а основные организаторы избегают уголовной ответственности и продолжают свою преступную деятельность.

Ключевые слова: киберпреступление, дроп, организованная преступная группировка, отмывание доходов, преступный путь, киберпространство, социальные сети, боты.

XXI век не зря именуется веком цифровых технологий, искусственного интеллекта, ведь современный человек уже не может обойтись без современных технологий (телефоны, Интернет, социальные сети и так далее). И даже маленький ребенок с детства познает этот мир сквозь призму телефона. Киберпространство, являясь одним из ответвлений информационно-коммуникационных технологий, на протяжении всего нескольких десятков лет стало частью жизни каждого человека и предоставило массу возможностей как для рядового обывателя, так и для стран в целом, в том числе и в вооружении армий. Даже в Конституции регламентировано, что «государство создает условия для обеспечения доступа к всемирной информационной сети Интернет». Однако, помимо положительных аспектов, которые дает нам цифровизация общества, она также несет в себе опасности, как например преступления в киберпространстве, либо его использование в противоправных целях.

Киберпреступность давно перешагнула порог от совершения кибератак в одиночку в режиме ALONE до создания целых организованных преступных группировок. Однако, в отличие от традиционной модели организованных группировок, члены группы в большинстве случаев не знают друг друга, а просто выполняют определенную им роль и исполняют специфические обязанности. Анализ говорит о том, что, независимо от изощренности совершаемых атак, преступники обладают надежной структурой управления и контроля, что говорит о переходе традиционной организованной преступной группировки на новый уровень.

«Современные хакерские группы своим построением повторяют «ячеистую систему» организации колумбийских наркокартелей и современных криминальных террористических группировок. Принцип действия данной системы прост — каждая ячейка выполняет только одну функцию и не знает о других ячейках (о членах ячеек)» [1].

В данных группировках особое внимание уделяется набору кадров под определенные задачи, как правило они нанимают своих «сотрудников» в DarkNet или в социальных сетях, таких как Telegram. Специалисты группы киберразведки Cyberint при поддержке Financial Times [2] обнаружили растущую сеть хакеров, которая публикует в Telegram утечки конфиденциальных данных и прочую личную информацию.

«Недавно мы стали свидетелями более чем 100-процентного роста использования Telegram киберпреступниками, — рассказывает Тал Самра, аналитик киберугроз в Cyberint. — Его служба зашифрованных сообщений становится все более популярной среди злоумышленников, ведущих мошенническую деятельность и продающих украденные данные» [3]. Стоит отметить, что существует множество групп, в которых выкладывается информация о вакансиях: кто нужен, для каких целей, требуемые навыки, на какую страну собираются осуществить кибератаку. Однако, в такие группы трудно попасть рядовому гражданину. Для этого они разработали целые системы, боты, которые определяют количество баллов, накопленных пользователем данного аккаунта либо в

ISSN 3030-3230

некоторых случаях по приглашению лица, уже зарегистрированного в данной группе. А баллы набираются в результате осуществленных кибератак, кибермошенничества, краж личных данных, кибервымогательства и так далее. Чем больше балл, тем больше вероятности, что тебя добавят в группу и лицо сможет присоединиться к данному преступному сообществу. В фильме «Хакер», так же был показан момент вхождения в подобную группу: герой в фильме осуществил фишинговую атаку, чем зарекомендовал себя и получил, тем самым, возможность присоединиться к группе. Боты запрограммированы таким образом, что они считывают ID-аккаунта и при желании подключиться к любой группе боты этих групп автоматически считывают его баллы. Во избежание разоблачения группы и привлечения к уголовной ответственности, группы, открытые в социальных сетях, удаляются через определенное время, в группу скидывается ссылка для присоединения, по которой пройти и вступить в группу возможно после сканирования аккаунта специальным ботом. Следует отметить, что наименование аккаунта или никнейм не имеет никакого значения, главное ID аккаунта.

После присоединения к группе начинается процесс вербовки, найма кадров или «трудоустройства». В группах преступники-рекруитеры (те, кто занимается набором персонала) дают подробную информацию: на какую страну собираются осуществить кибератаку, какие вакансии открыты, какие навыки нужны и даже когда это произойдет. Преступник, кто хочет трудоустроиться связывается с рекруитером и после одобрения его кандидатуры ему выделяется роль в зависимости от способа совершения киберпреступления.

Сейчас появились целые преступные сообщества киберпреступников, биржи труда, «черные» рынки по сбыту информационных технологий либо вредоносного программного обеспечения, и даже «судебные» органы для решения споров внутри таких сообществ. Есть так же свои силовики или, как их еще называют, «спортики» для наказания тех, кто нарушил правила.

Имеется множество возможностей и работ, чтобы осуществить возможность вступления в ряды киберпреступников, в зависимости от цели и предполагаемой деятельности. Как отметил Косенков А.Н. «субъекты киберугроз могут быть классифицированы по их мотивации и в определенной степени по их изощренности» [4].

В Даркнете или социальных сетях типа Telegram (который фактически стал как Даркнет ввиду своих настроек конфиденциальности) создаются группы (Team). К примеру, в Telegram канале «XBET TEAM Чат» количество участников составляет около 7000. Для присоединения к группе подается заявка, которая обрабатывается модераторами вручную. Заявитель должен пройти опрос: цель, навыки, перспективы, на каких платформах ранее был зарегистрирован, профит от прежней деятельности. Уже после присоединения к данной группе участники могут присоединиться к той или иной команде (Team) по своей специальности в зависимости от вида киберпреступления.

В данных группах преступники могут обмениваться способами преступлений, кого какие вопросы интересуют, ежедневный и общий профит, даже определяют Топ-воркера дня. Также в группах имеются команды и их состав, в которых наряду с админами существуют кураторы и модераторы. Также в эти группы скидывают голосовые и смс сообщения от «мамонтов» (так называют жертв преступления).

Главный инструмент – боты, которые выполняют 80% работы и созданы так, что их возможности поражают. К примеру, мгновенно можно создать фишинговый сайт любого сервиса (выбираешь Yandex, BTS, Fargo доставка, Payme, Click платеж и т.д.). Для осуществления кибермошенничества или кражи личных данных формируется команда с персоналом, выполняющая определенные функциональные обязанности.

Topic starter (с англ. topic — тема, to start — начинать) — лицо, которое является организатором или инициатором преступной схемы, разрабатывает план, какие участники нужны, чтобы провернуть то или иное преступление. После того как софты (приложения), программа, боты готовы, он, как правило, выкладывает пост на форумах, сайтах или группах в социальных сетях с необходимыми вакансиями для набора команды.

Scammer или worker – тот, кто непосредственно и осуществляет киберпреступление (онлайн-мошенничество, романтические аферы, фишинг и т.д.). Он занимается всей «грязной» работой – получением денег. Основную работу выполняет именно воркер, который может работать по нескольким схемам. Рассмотрим

на примере фишинга. Он размещает в онлайн торговых площадках объявление о продаже товара по очень низкой цене (продавец), а в другом случае – покупателем. По первой схеме, воркер размещает объявление, по которому стоимость Iphone 15 Pro Max составляет 1000 долларов США, естественно покупатели клюют на эту уловку и сами связываются с ним. Воркер просит внести предоплату, чтобы не отдать товар другим покупателям. Воркер скидывает покупателю фишинговое письмо, чтобы оформить заказ и после введения данных карты, деньги со счета жертвы списываются. Затем аккаунт жертвы блокируется.

Бывают и случаи повторного обмана жертвы. И для этого в игру вступает возвратер (vozvrater) – лицо, которое под видом службы поддержки, связывается с жертвой, ссылаясь на то, что произошла ошибка и у жертвы были ошибочно сняты денежные средства. Жертве направляется еще одно фишинговое письмо и жертва вместо того, чтобы получить обратно указанную сумму денег, теряет опять такую же сумму денег.

Сейчас воркеры перешли на другую схему, они прикидываются покупателями, связываются с продавцами, выставившими объявления о продаже товаров. Как правило, воркеры даже не торгуются, а говорят, что хотят приобрести товар, но в связи с тем, что они находятся в другом городе, им нужно оформить доставку через Fargo или BTS и просят жертву перейти по фишинговой ссылке. После того, как жертва ввела данные банковской карты и коды подтверждения, воркер заканчивает свою работу и в игру вступает вбивер (vbiver), который снимает все денежные средства, находящиеся на платежной карте. Кроме того, они получают доступ к платежной карте и в случае поступления денежных средств, они также снимаются вбивером. Единственный способ полностью заблокировать карту. По уголовному делу № 1–1007–2201/253 [5] Н. по предварительному сговору лиц, выступая в роли «покупателя» товара, войдя в доверие потерпевшего, обманным путём получал коды доступа через ссылки, отправляемые потерпевшим, выставившим объявления о продаже своего имущества на торговой площадке OLX.UZ, предоставила неизвестному лицу в мессенджере «Telegram» с ник-неймом «Mercedes» доступ к своим банковским картам для того, чтобы деньги переводились на её банковские пластиковые карты как на «транзитные» с последующим переводом денежных средств на кошельки платёжного сервиса «QIWI».

